

Agro Inform

Agrar-iqtisodiy, ilmiy-ommabop jurnal
Аграрно-экономический, научно-популярный журнал
Agricultural and economical accessible science journal

BOSH MUHARRIR:
Sirojiddin RUSTAMOV

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI:

Ravshan Mamutov,
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis
Qonunchilik palatasi Agrar va suv
xo'jaligi masalalari qo'mitasi raisi

Ibrohim Abduraxmonov,
O'zbekiston Respublikasi
Qishloq xo'jaligi vaziri

Ra'no Turdiboyeva,
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik
vaziri o'rinbosari

Aktam Xaitov,
O'zbekiston fermerlari kengashi raisi

Rustam Mamatqulov,
"Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki
boshqaruvi raisi.

Xurshid Daliyev,
"Agro Inform" masuliyati cheklangan
jamiyati ta'asischisi.

Azamat Toirov,
Bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul kotib:
Baxtiyor Esanov

Dizayner:
Ramazon Rustamov

Viloyat muxbirlari:
Qoraqalpog'iston Respublikasi va
Xorazmda
Shukurjon Jabborova

Buxoro va Navoiyda
Yashnarbek Xusanov

Samarqand va Jizzaxda
Murodulla Tursunov

Sirdaryo va Toshkentda
Farmina G'ayratova

Nashr O'zbekiston Respublikasi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2021-yil 31-iyuldagi
303/5-sonli qarori bilan
Oliy attestatsiya komissiyasining
ilmiy jurnallar ro'yxatiga olingan.

Jurnal 2000-yildan buyon chiqib boshlagan
The journal has been published since 2000

N4 [18] 2025

TAHRIR HAY'ATI RAISI :

Ibrohim ABDURAXMONOV,
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vaziri

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ibrahim DILER,
Isparta Amaliy fanlar universiteti rektori, professor (Turkiya).

Abdulloh UNLU,
G'arbiy O'rta Yer dengizi Qishloq xo'jalik ITI direktori, professor (Turkiya).

Pestis VITOLD,
Grodno davlat agrar universiteti rektori, q.x.f.d., professor, Milliy FA muxbir a'zosi, Xalqaro
Vena universitetining faxriy professori (Belorussiya).

Zafar ISKANDAROV,
Turon Fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, texnika fanlari doktori, professor.

Bahrom AZIZOV,
O'simlikshunoslik kafedrasida professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Rustam KENJAYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yu.f.n.

Maxsud ADILOV,
Toshkent davlat agrar universiteti professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Go'zal XOLMURODOVA,
Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrasida professori, q.x.f.d.

MANSUR YULDASHEV,
Baliqchilik kafedrasida mudiri, professor, biologiya fanlari doktori.

Ra'no YULDASHEVA,
Qishloq xo'jaligi ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi kafedrasida dotsenti, q.x.f.d.

Mirzamad ODINAYEV,
Qishloq xo'jaligi biotexnologiyasi, standartlashtirish va sertifikatlashtirish
kafedrasida dotsenti, qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori.

Ibragim ERGASHEV,
Samarqand veterinariya meditsinasi instituti professori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori.

Yunus KENJAEV,
O'zbekiston milliy universiteti Biologiya fakulteti Tuproqshunoslik kafedrasida professori,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc).

Zulayho YARKULOVA,
Buxoro davlat universiteti tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya kafedrasida, q.x.f.d., dotsent.

Jamoliddin ESHONQULOV,
Toshkent davlat agrar universiteti "Registrator ofisi" direktori, professori, q.x.f.d.

Ma'mur JUMASHEV,
"Astraxan" davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali
biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Gulchehra TANGIROVA,
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent.

Sarvar PO'LATOV,
Samarqand veterinariya meditsinasi instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo'yicha direktor o'rinbosari.

Kasimov UMEDILLO,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Tuproqshunoslik kafedrasida
dotsenti v.b. q.x.f.f.d.

Azamat RASHIDOV,
Qarshi davlat texnika universiteti Energetika muhandisligi fakulteti o'quv ishlar bo'yicha
dekan o'rinbosari, texnika fanlari falsafa doktori (PhD).

Maxmatmurod CHO'LIEV,
Qarshi davlat texnika universiteti melioratsiya va yer kadastrida kafedrasida dotsenti,
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Navro'z SATTAROV,
O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti Surxondaryo mintaqaviy filiali
katta ilmiy xodimi, q.x.f.f.d.

Xolik ALLANOV,
TDAU "Agronomiya va agrotexnologiyalar" kafedrasida professori.

Mehriniso MAHAMMATOVA,
Qishloq xo'jaligi fanlari doktori, dotsent.

Dilnoza RAIMOVA,
Qarshi davlat universiteti Agronomiya va ekologiya kafedrasida dotsenti.

Dilobar RAXIMOVA
O'simlikshunoslik kafedrasida katta o'qituvchisi.

Sobir TURSOATOV,
Toshkent davlat agrar universiteti Qishloq xo'jalik ekinlari genetikasi, seleksiyasi va
urug'chiligi kafedrasida dotsenti, q.x.f.f.d.

Odinaxon SOTVOLDIYEVA,
Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va dorivor o'imliklar yetishtirish kafedrasida
assistenti qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori (PhD).

Nodiraxon MIRXAMIDOVA,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi,
urug'chiligi va dorivor o'simliklar yetishtirish kafedrasida dotsenti, q.x.f.f.d.,(PhD).

Salomat ZOKIROVA,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tuproqshunoslik kafedrasida dotsenti,
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori.

REAL-WORLD APPLICATIONS OF STATE MACHINES AND CONTEXT-FREE GRAMMARS



Amirkhon Makhkamov,

University of Arizona | BS in Computer Science,

Abstract

Finite automata and context-free grammars form the mathematical foundation of modern computing. Although these models are traditionally used in theoretical computer science, they have wide real world applications, from compilers and programming languages to network verification, robotics, security systems, and natural language processing. This article discusses in detail the definitions of deterministic and non-deterministic finite automata (DFA/NFA), context-free grammars (CFG), and pushdown automata (PDA), and illustrates their practical significance with detailed examples. The analysis demonstrates how these theoretical models provide structure, correctness, and predictability in industrial-scale computing systems.

1. Introduction

Automata theory is a central field of computer science that studies abstract machines. Automata theory is a central field of computer science that studies abstract machines capable of recognizing patterns and processing structured information. In practice, these machines are deeply embedded in the architecture of modern software systems.

At the simplest level, finite automata model systems with limited memory, which makes them ideal for tasks such as lexical analysis, protocol validation, and control systems.

Context-free grammars and pushdown automata that support recursive and hierarchical structures form the basis of compilers, interpreters, and natural language processors.

Although these models were originally developed for the formal study of computing, their relevance has increased as software in the real world becomes more complex.

The need to verify correctness, prevent security vulnerabilities, and support reliable communication has only increased the importance of finite automata and grammars. This article reveals each fundamental concept and examines the real-world scenarios in which they are necessarily applied.

2. Deterministic and Nondeterministic Finite Automata

2.1. Deterministic Finite Automaton (DFA):

A Deterministic Finite Automaton is a 5-tuple:
 $D=(Q,\Sigma,\delta,q_0,F)$

where:

- Q = finite set of states
- Σ = finite input alphabet
- $\delta=Q\times\Sigma\rightarrow Q$ transition function
- $q_0\in Q$ = start state
- $F\subseteq Q$ = set of accept states

Key property: For every state and symbol, exactly one outgoing transition.

2.2. Nondeterministic Finite Automaton (NFA):

An NFA is similar to a DFA but allows multiple or zero transitions:

$N=(Q,\Sigma,\delta,q_0,F)$

where:

- Q = finite set of states
- Σ = finite input alphabet
- $\delta=Q\times\Sigma\rightarrow P(Q)$ transition function
- $q_0\in Q$ = start state
- $F\subseteq Q$ = set of accept states

3. Key properties:

- May include ϵ -transitions
- NFAs and DFAs recognize exactly the regular languages

4. Real-World Applications of DFA and NFA

4.1. Lexical Analysis in Compilers

Modern compilers (C, Java, Rust) use DFAs for tokenization.

Example: recognizing identifiers
letter (letter | digit)*

Lexical analyzers such as Flex and GCC compile regular expressions
→ NFA → DFA → minimal DFA.

Real-world instance: The Java HotSpot VM uses deterministic tokenizers for fast scanning.

4.2. Network Protocol Design and Verification

Protocol states (SYN_SENT, ESTABLISHED, FIN_WAIT) in TCP are modeled as a DFA.

This allows:

- deadlock detection
- state-based security checking
- packet sequencing validation

Tools like Spin, NuSMV, and TLA + specifications compile to finite-state models for verification.

4.3. Digital Circuit Controllers

Finite-state machines appear in:

- elevator controllers
- ATM machines
- vending machines
- traffic-light systems

Example: A vending machine DFA tracks credit amount, product selection, dispense state.

4.4. Pattern Matching and Search Engines

Regular expressions in search engines (Google RE2, grep) implement NFAs or DFA hybrids.

Applications:

- Log parsing (ELK, Splunk)
- Intrusion detection (Snort rules → NFA machines)

- Spam filtering

4.5. Authentication and Workflow Systems

User-login workflows:

LoggedOut → (EnterCredentials) → Verifying → LoggedIn

Identity platforms (Okta, Auth0) explicitly model multi-step authentication as a finite state

machine.

5. Context-Free Grammars and Pushdown Automata

Automata

5.1. Context-Free Grammar (CFG):

A CFG is a 4-tuple:

$$G=(V,\Sigma,R, S)$$

where:

- V = finite set called the variables
- Σ = finite set, disjoint from V , called the

terminals

• R = finite set of rules, with each rule being a variable and a string of variables and terminals

- $S \in V$ = start variable

CFGs generate the context-free languages, which describe hierarchical and nested structure.

5.2. Pushdown Automaton (PDA):

A PDA is a 6-tuple:

$$P=(Q,\Sigma,\Gamma,\delta,q_0, F)$$

where:

- Q = set of states
- Σ = input alphabet
- Γ = stack alphabet
- $\delta:Q \times \Sigma \times \Gamma \rightarrow P(Q \times \Gamma)$ = transition function
- $q_0 \in Q$ = start state
- $F \subseteq Q$ = set of accept states

PDAs use a stack \rightarrow allowing them to model:

- nested parentheses
- recursive statements
- balanced structures

6. Real-World Applications of CFGs and PDAs

PDAs

6.1. Programming Languages and Compilers

Every programming language has a grammar defined using CFGs.

Examples:

- C uses an LR(1) grammar
- Java uses an LALR grammar
- Python uses PEG-style CFGs with

indentation rules

Tools:

- Yacc/Bison (LALR parser generation)

- ANTLR (LL(k) grammars)

Example CFG fragment for arithmetic expressions:

$$\begin{aligned} E &\rightarrow E + T \mid T \\ T &\rightarrow T * F \mid F \\ F &\rightarrow (E) \mid id \end{aligned}$$

6.2. Natural Language Processing (NLP)

CFGs model hierarchical sentence structure,

e.g.,

$$\begin{aligned} S &\rightarrow NPVP \\ NP &\rightarrow Det N \\ VP &\rightarrow VNP \end{aligned}$$

Applications:

- syntactic parsing (spaCy, Stanford Parser)
- grammar checking
- question answering
- machine translation

Probabilistic CFGs (PCFGs) are widely used in speech recognition.

6.3. Query Languages and Databases

SQL queries use CFGs for parsing. Database engines (PostgreSQL, MySQL, Oracle) use grammars to:

- parse SELECT-FROM-WHERE
- detect syntactic errors
- optimize query trees

7. Example:

PostgreSQL's grammar is defined using Bison in gram.y

7.1. Markup Languages (HTML, XML)

HTML/XML are tree-structured languages. Although not fully context-free (due to constraints), parsers treat them as CFG-like.

Browsers (Chrome V8, Safari WebKit) convert HTML \rightarrow DOM tree using grammar-based parsing.

7.2. Robotic Task Planning

Context-free grammars define allowed sequences of robot actions, including nested loops:

Task \rightarrow Move Task I Pick Task I Drop I &

Used in:

- industrial automation
- aerospace autonomous systems

- warehouse robotics (Amazon Robotics)

8. Combined Real-World Systems Using Both Automata and CFGs

8.1. Compilers (Lexing + Parsing)

- DFA/NFA: tokenize keywords, identifiers, operators
- CFG/PDA: parse nested and recursive constructs

This pipeline exists in every major language compiler.

8.2. Communication Protocols

- Finite automata ensure correct message ordering
- CFGs specify structured message formats (JSON grammar, ASN.1, protobuf schema)

8.3. Security Analysis

- DFAs detect malicious patterns
- CFGs validate structured packet content
- PDAs model nested command injection attacks

9. Case Studies

10. Case Study 1: Gmail Spam Filter RE Rules

Google's RE2 engine uses extended NFAs to scan billions of messages per day. Patterns like:

```
/(win.*prize)/i
```

compile to NFA fragments optimized for

safety and performance.

11. Case Study 2: LLVM Compiler

Front-end lexers use DFAs; parsers use a CFG to generate ASTs. The Clang documentation explicitly defines grammar rules for C/C++ expressions and statements.

12. Case Study 3: JSON Parsing at Scale

Large companies (Meta, Twitter, Amazon) use grammar-derived parsers for structured logs. JSON grammar is context-free (minus constraints), enabling PDA-like parsing algorithms.

13. Conclusion

Finite automata and context-free grammars are essential in many real-world computing systems. DFA and NFA offer predictable and efficient ways to model common patterns, while CFG and PDA allow for the creation of complex hierarchical structures used in languages, communication, and artificial intelligence.

Despite the development of modern computing, the fundamental principles of automata theory continue to determine the design, verification, and optimization of software systems. The practical examples provided demonstrate that theoretical computer science is still deeply rooted in everyday digital infrastructure.

14. References

1. Hopcroft, J., Motwani, R., & Ullman, J. (2006). Introduction to Automata Theory, Languages, and Computation. Pearson.
2. Aho, A. V., Lam, M., Sethi, R., & Ullman, J. (2006). Compilers: Principles, Techniques, and Tools (2nd ed.). Addison-Wesley.
3. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2021). Speech and Language Processing (3rd ed.). Draft.
4. Sipser, M. (2012). Introduction to the Theory of Computation. Cengage Learning.
5. Cohen, E. (2010). Finite-State Machine Applications in Network Protocol Verification. IEEE Communications Surveys & Tutorials.
6. Parr, T. (2013). The Definitive ANTLR 4 Reference. Pragmatic Bookshelf.

DESERTIFICATION AND SUSTAINABLE AGRICULTURAL ENGINEERING: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS FROM 2013 TO 2024, HIGHLIGHTING THE IMPORTANCE OF SEEDER

Farmonov E. T.¹, Mirzaeva Sh. X.², Xodjaqulova N. X.³,

¹“TIAME” National Research University, professor, d.t.s.

²“TIAME” National Research University, doctoral student .

³“TIAME” National Research University, doctoral student .

Annotation. Desertification and a lack of fertile land are two of today’s most critical challenges, requiring rapid response. These difficulties provide enormous challenges to global agricultural productivity, as the quality of conventional pastures deteriorates, emphasizing the vital need to investigate alternate choices. This study not only looks into the possible benefits of seeders and drills in agriculture, but also how automation could boost output in arid places.

Key words: desertification, sowing unit, seeder, bibliometric, agriculture pasture, green shield territories, seeds, degradation, sandstorms, sowing, mechanization, parameters.

Introduction. Rapid population growth and development can be attributed to improvements in living conditions, which have contributed to increased life expectancy and reduced mortality rates. The advancement of both industrial and agricultural sectors has played a significant role in extending human life expectancy by improving access to resources, healthcare, and nutrition.

The UN reports that population growth is now at 1% annually [1]. The global population has increased significantly, rising from approximately one billion in the 19th century to over seven billion in the 21st century [2].

One of the key factors contributing positively to the rate of population growth is humanity’s capacity to cultivate sufficient food to meet increasing demand. Moreover, the development and implementation of new methods and technologies have significantly influenced overall socioeconomic progress. However, given the growing constraints on space and natural resources, several critical considerations must be taken into account when addressing sustainable development and population growth.

Dataset and methodology. The global repository on desertification, seeders, sowing units,

and their derivatives was analyzed using the Web of Science Core Collection database for the period from 2013 to 2024 [3]. Initially, a search was conducted with «desertification» as a keyword within the article title, abstract, and keywords, resulting in the identification of 981 published documents during the specified timeframe. Subsequently, on April 24, 2024, the following filters were applied as part of the retrieval strategy: TITLE («desertification» AND «seeder» AND «sowing unit») AND PUBYEAR > 2013 AND PUBYEAR < 2024 AND (LIMIT-TO (SUBJAREA, «Environmental Science» OR «Agricultural Engineering» OR «Engineering» OR «Plant Science»)) AND (LIMIT-TO (LANGUAGE, «English»)) AND (LIMIT-TO (PUBSTAGE, «Final»)) (see Fig. 1). After applying these filters, a total of 981 papers were recorded, which were then converted into CSV and RIS file formats.

The bibliometric analysis was performed using VOSviewer software, version 1.6.18, and included bibliographic coupling, thematic analysis, co-authorship networks, co-occurrence analysis, citation patterns, and co-citation analysis.




Figure 1. Flowchart of the methodology

Results. Published papers on sowing unit. To assess the progress of sowing units and seeders in

agriculture, annual publication and citation trends were analyzed, as depicted in Figure 2. Research on seeders and sowing units has been published in 93 countries globally. The data shows a general upward trend in publications, increasing from 67 papers in 2000 to 29 papers in 2024, with a slight decline observed between 2021 and 2023. This trend suggests that researchers are increasingly focusing on sowing units and seeders within the agricultural sector.




Figure 2. Number of papers on sowing units and seeders by year of publication worldwide

Journals on sowing units and seeders. Researchers from various regions of the world have published their work on sowing units and seeders in a wide range of academic journals.

The analysis of publication patterns shows that the total scholarly output was distributed across 245 journals from 92 countries. Notably, 10 of these journals accounted for 386 publications, representing 38.8% of the total output, while the remaining 61.2% of papers were published in other journals. Table 1 presents a list of 23 journals that published at least 10 or more articles on this topic during the specified period.

Table 1. Top journals publishing research on sowing units and seeders

Source title	Number of papers	Source title	Number of papers
Land degradation development	75	Environmental science and pollution research	14
Sustainability	54	Journal of arid land	14
Journal of arid environments	45	Journal of environmental management	14
Remote sensing	44	Plant and soil	14
Environmental earth sciences	38	Polish journal of environmental studies	14
Ecological indicators	37	Water	14
Science of the total environment	35	Agronomy basel	13
Agriculture basel	24	Environmental monitoring and assessment	11
International journal of agricultural and biological engineering	18	Plant ecology	11
Fresenius environmental bulletin	16	Applied ecology and environmental research	10
Ecological engineering	15	Inmateh agricultural engineering	10
International journal of environmental research and public health	15		

The second criterion of analysis focuses on the country of publication and the impact factor of the top 15 journals (Table 2).

Among these journals, three were published in Switzerland and the Netherlands, three in the United States and Germany, two in China, and one in the United Kingdom.

The average impact factor of the journals with the highest number of publications was 4.82. Remote Sensing of Environment had the highest impact factor among the selected journals, while Land Degradation & Development accounted for the largest number of publications in this research domain.

Table 2. Distribution of research output in the most prolific journals by country and impact factor

Journal	TNP (%)	Publishing country	IF
Land degradation development	7.645%	United Kingdom	3.6
Sustainability	5.505%	Switzerland	3.3

Journal of arid environments	4.587%	United States	2.6
Remote sensing of environment	4.485%	United States	13.5
Environmental earth sciences	3.874%	Germany	2.8
Ecological indicators	3.772%	Netherlands	7.0
Science of the total environment	3.568%	Netherlands	8.2
Agriculture basel (Agriculture)	2.446%	Switzerland	3.5
International journal of agricultural and biological engineering	1.835%	China	2.4
Fresenius environmental bulletin	1.631%	Germany	0.4
Ecological engineering	1.529%	Netherlands	3.9
International journal of environmental research and public health	1.529%	Switzerland	4.6
Environmental science and pollution research	1.427%	Germany	5.8
Journal of arid land	1.427%	China	2.7
Journal of environmental management	1.427%	United States	8.0
Total:	46.7%		

Top countries in research on sowing units and seeders. The degree of international engagement in a specific research field can often be measured by the number of countries contributing to scholarly output.

Between 2000 and 2021, over 93 countries participated in research related to desertification and seeders.

Figure 3 illustrates the geographic distribution of the top 15 countries that published at least 45 papers on this topic. China holds a dominant position, contributing 519 research articles, which accounts for 52.9% of all publications.

It is followed by the United States with 117 publications (11.9%), Italy with 59 (6%), Spain with 52 (5.3%), and India with 40 (4%). Collectively, researchers from these five countries were responsible for 80.1% of the total research output in this field.




Figure 3. Geographical distribution of the top 15 publishing countries on sowing units and seeders

Top funding sponsors and subject areas on sowing units and seeders. Between 2013 and 2024, a total of 63 different funding sponsors supported the publication of 981 research papers related to seeders and their applications in agriculture.

An analysis of the top 15 funding sponsors reveals the most active and influential contributors in this field. As illustrated in Figure 8, ten of these sponsors are based in China, while the remaining five include the European Commission, one agency from the United States, one from Spain, one from Brazil, and one from Argentina. Additionally, the Web of Science database classifies scholarly output into specific subject areas. Research on sowing units and seeders spans across seven major disciplines. As depicted in Figure 4, the majority of publications (75%) fall under the category of Environmental Sciences and Ecology. This is followed by Agriculture (28%), Plant Sciences (12%), Engineering (5%), and Remote Sensing (4%). These distributions indicate a strong interdisciplinary nature of the research, with a dominant emphasis on environmental and agricultural sciences.




Figure 4. Top funding sponsors supporting research on sowing units and seeders worldwide

Publications by keywords on sowing unit and seeder. In this section, a bibliometric analysis was

conducted to investigate the evolution of research on sowing units and seeders, utilizing keyword co-occurrence analysis through VOS Viewer.

This software allows for the generation of co-authorship networks, citations, bibliographic coupling, and co-citation maps, all based on data imported from databases such as Web of Science and Scopus.

For this study, the raw bibliographic data was imported into VOS Viewer, and a map of keyword co-occurrences was constructed (Figure 5).




Figure 5. Keyword co-occurrences analysis based on Web of science data using VOS viewer

Conclusion. This paper provides an in-depth bibliometric review of research on seeders and sowing implements, based on an analysis of 981 bibliographic records.

The study reveals that seeding methods have become widely used in agricultural research, delivering significant improvements in sowing efficiency and crop yields.

This study offers a solid theoretical foundation for research on sowing units and seeders, as it consolidates both recent and previous studies, providing valuable insights for future investigations.

By bringing together a comprehensive overview of the literature in this area, it can serve as a starting point for new researchers interested

in seed meter technologies. As such, this work can help identify existing research gaps and guide future inquiries into the field. Additionally, the analysis of country collaboration networks offers valuable insights for policymakers. By understanding how

agricultural seed drill and seeder research are interconnected globally, legislators can develop informed policies and interventions that promote international cooperation and address shared challenges in agricultural technology.

References:

1. <https://lex.uz/docs/4211813>
2. Ajaj, Q., Pradhan, B., Noori, A., Jebur, M., 2017. Spatial Monitoring of Desertification Extent in Western Iraq using Landsat Images and GIS. LAND DEGRADATION & DEVELOPMENT 28, 2418–2431.
3. Bao, YS, Cheng, L., Bao, YF, Yang, L., Jiang, L., Long, C., Kong, Z., Peng, P., Xiao, J., Lu, Q., 2017. Desertification: China provides a solution to a global challenge. FRONTIERS OF AGRICULTURAL SCIENCE AND ENGINEERING 4, 402–413.
4. Мукимов Т., Фармонов Т., Мухторов А. и др. “Улучшение деградированных пастбищ аридной зоны и уменьшение нагрузки на пастбища. Продовольственная безопасность: национальные и глобальные факторы” /Сборник материалов научно-практической международной конференции.- Самарканд, 2019. С 147-148.
5. Шамсутдинова Э. З. Саксаул чёрный. особенности репродуктивной биологии, семенной продуктивности и посевные качества семян. Москва, Кормопроизводство. 2018. № 10. С. 39-51.
6. Белоплипов И. В., Ҳамроқулов Х.Х., Фармонов Э.Т. Ўзбекистон табиий яйловлари ва уларни яхшилаш йўллари // “Яйловлардан оқилона фойдаланишнинг илмий асослари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси илмий мақолалар тўплами, Тошкент, 2009. Б. 112-115.
7. <https://www.plantarium.ru/page/view/item/18035.html>
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 22 февралдаги ПҚ-4204-сонли “Ўзбекистон Республикасида чўлланиш ва қурғоқчиликка қарши курашиш бўйича ишлар самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 октябрдаги ПҚ-4850-сонли “Ўзбекистон Республикасида ўрмон хўжалиги тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси тўғрисида”ги қарори.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 июлдаги ПҚ-5202-сонли Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 2021 йил 18 майдаги «Оролбўйи минтақасини экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш тўғрисида махсус резолюциясини амалга ошириш чоралари тўғрисида”ги қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 30 декабрдаги ПФ-46-сонли “Республикада кўкаламзорлаштириш ишларини жадаллаштириш, дарахтлар муҳофазасини янада самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
12. Фармонов Э.Т. Саксовул ва черкез ўсимликларининг сочилмайдиган уруғларини экадиган инновацион сеялка //Irrigatsiya va Melioratsiya. – Тошкент, 2021, №1 (23). Б. 48-52.
13. АКТ проведения технической экспертизы и лабораторно-полевых испытаний сеялки для пустынных кормовых растений СПК-0,7

KALENDULANI BUXORO VILOYATI SHAROITIDA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Mahfuza Hakimova, Zulayxo Yarkulova

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti

Annotasiya. Kalendula qadimdan dorivor xususiyatlari bilan mashhur o'simliklardan biridir. U taloq, gipertoniya va ayrim o'sma kasalliklarida simptomatik vosita sifatida qo'llanadi. Shuningdek, o'simlik juda manzarali bo'lib, gulzorlar, yo'laklar va maysazorlarni bezashda keng ishlatiladi. Maqolada kalendulaning kimyoviy tarkibi, dorivor va dekorativ xususiyatlari hamda uni Buxoro viloyati sharoitida yetishtirish texnologiyasi yoritiladi.

Tayanch so'zlar: kalendula, dorivor o'simlik, kimyoviy tarkib, agrotexnologiya, Buxoro viloyati.

Kalendula (*Calendula officinalis* L.) Yevropaning o'rta mintaqalarida paydo bo'lgan va qadimdan insoniyatga ma'lum dorivor hamda dekorativ o'simlikdir [1]. U qadimgi Yunoniston davridayoq shifobaxsh o'simlik sifatida tanilgan. Keyinchalik Fransiyada va boshqa Yevropa mamlakatlarida kalendula madaniy holda yetishtirila boshlagan [2]. Hozirgi kunda u dunyoning turli hududlarida, jumladan, O'zbekiston sharoitida ham dorivor va manzarali o'simlik sifatida qadrlanadi.

Buxoro viloyatining issiq va quyoshli iqlimi kalendula uchun qulay sharoit yaratadi. Bahor va kuzda mo'tadil namlik, yozda esa yuqori harorat va quyosh nuri o'simlikning vegetatsiya jarayonini tezlashtiradi hamda biofaol moddalarning, ayniqsa karotinoidlar va efir moylarining to'planishiga

yordam beradi [3]. Shu bois Buxoro viloyati sharoitida kalendulani dorivor, manzarali va asalarichilik uchun foydali o'simlik sifatida yetishtirish istiqbollidir.

Kalendula bir yillik o'simlik bo'lib, bo'yi 70–75 santimetr gacha yetadi. Uning ildizi o'q ildizli, yaxshi tarmoqlangan, poyasi to'g'ri o'suvchi, ko'p shoxli va tukchalar bilan qoplangan.

Barglari och yashil rangda, navbat bilan joylashgan, pastki barglari bandli, yuqorilari esa o'tiruvchi shaklda bo'ladi. Gullari yirik, savatchasimon, sarg'ish yoki to'q sariq rangda, iyundan boshlab kuzning sovuq tushguniga qadar gullaydi. Har bir gul savatchasida chekka tilchali gullar bir necha qatorda joylashgan bo'lib, o'rtadagi gullar naychasimon, ikki jinsli, ammo bepusht bo'ladi. Mevasi qayrilgan urug' (*axena*) shaklida

bo'ladi. Kalendula yaxshi asalarichilik o'simligi hisoblanadi.

Kalendulaning yer ustki qismlarida saponinlar, taninlar, achchiq modda kalenden mavjud. Gullarda karotinoidlar 3% gacha, efir moyi 0,02% gacha, flavonoidlar 4% gacha, organik kislotalar 6–8% gacha, azotli birikmalar 1,5% atrofida uchraydi. Shuningdek, o'simlikda iz miqdorda alkaloidlar ham topilgan. Urug'larida esa yog' kislotalari – laurin, palmitin va boshqa glitseridlar mavjud. Bu moddalar o'simlikka yallig'lanishga qarshi, antiseptik, yara bitkazuvchi, tinchlantiruvchi, qon bosimini pasaytiruvchi va yurak faoliyatini me'yorlashtiruvchi xususiyatlar beradi. Kalendula asosidagi fitopreparatlar jigar, me'da-ichak tizimi, yurak-qon tomir kasalliklari, shuningdek og'iz bo'shlig'i yallig'lanishlarida qo'llaniladi [4]. Ular regeneratsiya jarayonini tezlashtiradi, qon aylanishini yaxshilaydi va shishlarni kamaytiradi [5].

Kalendula quyoshni yaxshi ko'radigan o'simlik bo'lib, ochiq va shamolsiz joylarda yaxshi o'sadi. Quruq iqlimda o'simlikka namlik zarur bo'lgani uchun sug'orish tizimini to'g'ri tashkil etish muhimdir. Buxoro viloyatida unumdor, o'rtacha namlikdagi qumoq yoki qumloq tuproqlar kalendula uchun eng ma'qul hisoblanadi. Sho'rlangan yoki zich tuzilishli tuproqlar o'simlik o'sishiga salbiy ta'sir qiladi. Kuzda yer 25–27 santimetr chuqurlikda haydaladi, har gektarga 30–40 tonna chirigan go'ng yoki kompost solinadi. Bahorda boronalab, tuproq yumshatiladi va ekishga tayyorlanadi. Urug'lar mart oxiri – aprel boshlarida 2–3 santimetr chuqurlikka

ekiladi. Buxoro sharoitida ikki qatorli lentali ekish usuli samarali natija beradi: qator orasi 15 santimetr, lenta oralig'i esa 45–60 santimetr qilib belgilanadi.

Vegetatsiya davrida qator oralari 2–3 marta yumshatiladi, begona o'tlar yo'qotiladi, zararkunanda va kasalliklarga qarshi biologik preparatlar bilan ishlov beriladi. O'simlik gullash davrida 2–3 marta oziqlantirish tavsiya etiladi. Gullarni doimiy yig'ib turish yangi g'uncha hosil bo'lishini rag'batlantiradi va hosildorlikni oshiradi. Gullarning to'liq ochilgan davrida yig'im amalga oshiriladi. Yig'im 3–5 kunda bir marta takrorlanadi, bu jarayon gullashni uzaytiradi. Gullarning so'nggi yig'imi sentabr oyining oxirigacha davom etadi. Yig'ilgan gullar 40–45 °C haroratda, soyali va shamollatiladigan joyda quritiladi. Quritilgan xom ashyo qorong'i, quruq va havo almashinadigan joyda ikki yilgacha saqlanadi. Quyosh nuri ta'sirida karotinoidlar parchalanishi sababli gullarni ochiq joyda saqlash tavsiya etilmaydi.

Buxoro viloyatining tabiiy iqlim sharoiti kalendula o'simligini dorivor va manzarali maqsadlarda yetishtirish uchun nihoyatda qulaydir. Quyoshli va quruq iqlim o'simlikning efir moylari hamda karotinoidlar miqdorini oshiradi. Kalendulani g'o'za, sabzavot yoki don ekinlari orasida oraliq ekin sifatida joylashtirish mumkin. U nafaqat dorivor xom ashyo manbai, balki tuproqning fitosanitar holatini yaxshilovchi, agroekotizimda foydali o'simlikdir. Kalendula Buxoro viloyati uchun istiqbolli, iqtisodiy va ekologik ahamiyatga ega madaniyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абрамчук А.В., Мингалев С.К. Культивируемые лекарственные растения. Екатеринбург, 2004.
2. Абрамчук А.В., Карташева Г.Г. Лекарственные растения Урала. Екатеринбург, 2010.
3. Карпухин М.Ю., Абрамчук А.В. Сравнительная оценка сортов календулы лекарственной (*Calendula officinalis* L.). Аграрный вестник Урала, 2016, №2 (144).
4. Кушина И.В., Карпухин М.Ю. Календула – популярное лекарственное и декоративное растение. Уральский государственный аграрный университет, Екатеринбург.
5. Абрамчук А.В., Карташева Г.Г., Мингалев С.К. Лекарственная флора Урала. Екатеринбург, 2014.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА АГРОТЕХНИК ТАДБИРЛАРНИ ИНТЕГРАЦИЯЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ



Мадалиев Х. А.,

О'zbekiston ORIENTAL universiteti магистранти

Аннотация. Аграр ҳамкорлик қишлоқ хўжалигининг барқарор ривожланишидаги асосий омилдир. Ривожланган мамлакатларда аграр ишлаб чиқаришда кооператив жамиятларни ташкил этишга алоҳида эътибор қаратилади. Бу, ўзига хос равишда, қишлоқ хўжалиги соҳасидаги ишлаб чиқаришни ривожлантириш ва самарадорликни оширишга хизмат қилади. Натижада, аграр ҳамкорлик қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлашни, молиявий ва моддий-техник ресурсларни бирлаштиришни, шунингдек, технологик инновацияларни жорий этишни таъминлаш хусусида фикр юритилади.

Таянч сўзлар: агрокооперация, агротехник тадбирлар, интеграция, концентрация, фермер хўжаликлари, инновациялар.

Кириш. Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги соҳаси нафақат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш, балки мамлакатнинг иқтисодий барқарорлиги ва ижтимоий ривожланишида ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда. Маҳсулот этиштиришда юқори самарадорликка эришиш, ер ва сув ресурсларидан оқилона

фойдаланиш, агрологистика, шунингдек, экологик хавфсизликни таъминлаш агротехнологияларнинг самарали жорий этилишига бевосита боғлиқдир.

Агроишлаб чиқариш жараёнлари агротехник тадбирлар мажмуасига асосланиб, уларнинг ўзаро мувофиқ ва тизимли амалга

оширилиши орқали юқори ҳосилдорликка эришилади. Бироқ амалиётда бу тадбирларнинг ташкил этилишида интеграциянинг етарли даражада эмаслиги, қонун-қоидаларга риоя этилмаслиги ва модернизация жараёнларининг суст кечаётгани кўплаб муаммоларни келтириб чиқармоқда. Бу эса соҳадаги ривожланиш суръатларига салбий таъсир ўтказмоқда.

Қишлоқ хўжалиги — озиқ-овқат хавфсизлигини таъминловчи, иқтисодиётнинг стратегик тармоқларидан бири ҳисобланади. Мазкур соҳада маҳсулот ишлаб чиқариш жараёни самарадорлигини оширишда агротехник тадбирларнинг тизимли ва илмий асосланган ҳолда амалга оширилиши ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш технологик жараёни агротехник тадбирлар мажмуасидан ташкил топади ва уларнинг ўзаро мувофиқ ҳамкорлиги юқори ҳосилдорликка эришишнинг асосий шартларидан биридир.

Амалиётда эса кўп ҳолларда ушбу тадбирлар ўртасида етарли даражада интеграция ва уйғунлик таъминланмаган. Бу ҳолат агротехнологияларнинг тўлиқ ва самарали қўлланишини чеклаб, ҳосилдорликнинг камайишига, ресурслардан самарасиз фойдаланишга олиб келмоқда. Шу боис, агротехник тадбирларнинг интеграциялашган тарзда ташкил этилиши, уларнинг ҳар бир босқичда илм-фан ютуқлари асосида амалга оширилиши қишлоқ хўжалигида барқарор ва самарали ривожланишни таъминлашда муҳим омил ҳисобланади.

Муаммо ва таҳлил. Агротехнологик тизимларни самарали ташкил этиш қишлоқ хўжалигида юқори ҳосилдорликка эришиш, ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш ҳамда маҳсулот хавфсизлигини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Бироқ амалиётда агротехнологияни жорий этишдаги бошланғич ва иловавий тузилмаларнинг фаолияти кўп ҳолларда норматив-ҳуқуқий базаларга тўлиқ

таянилмайди, уларнинг ўзаро ҳамкорлиги ва мувофиқлашув даражаси етарли эмас. Бу эса агротехник тадбирларнинг самарадорлигига ва сифатли маҳсулот етиштириш имкониятларига салбий таъсир кўрсатади.

Аграр соҳадаги илмий - тадқиқот натижалари ва халқаро тажриба шуни кўрсатмоқдаки, агротехнологиянинг барқарор ривожланиши ва унинг янгилашиб бориши — фақатгина инновацион ёндашувлар, рақамли технологиялар, ресурс тежамкор механизмлар ва илмий тавсияларга асосланган ҳолда амалга оширилгандагина юқори самара беради. Шу нуқтаи назардан қаралганда, агротехнологияни модернизация қилиш даражаси қишлоқ хўжалик маҳсулотларининг келажақдаги етиштирилиши, бозорбоплиги ва экологик хавфсизлиги тақдирини белгиловчи ҳал қилувчи омиллардан бирига айланади.

Бундан ташқари, агротехнологик жараёнларни тўғри бошқаришда кадрлар салоҳияти, билим ва кўникмаларнинг замонавий талабларга мослиги ҳам алоҳида аҳамият касб этади. Малакали мутахассислар иштирокисиз ҳеч қандай модернизация кутилган натижани бермайди. Шу боис, соҳада илмий тадқиқотлар, тажриба-синов ишлари, ўқув-услубий дастурлар, ахборот технологиялари ва логистика билан уйғунлашган ҳолда агротехнологияни амалга ошириш, унинг ҳар бир босқичини меъёрий ва илмий асосларга таянадиган ҳолда йўлга қўйиш зарур.

Агросаноат мажмуасида логистика, кооперация ва интеграцияни самарали ривожлантирмасдан туриб, қишлоқ хўжалик маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш, юқори қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқариш ҳамда соҳанинг иқтисодий муаммоларини тўлиқ ҳал этиш имкони чекланади.

Бу эса, ўртада молиявий ва моддий-техник ресурсларни концентрациялаш, яъни тўплаш ва оқилона тақсимлаш имкониятларини камайтиради.

Аграр ишлаб чиқаришнинг узвийликка асосланган тизимли тарзда ташкил этилиши, айниқса, қишлоқ хўжалиги ва агротехник хизмат кўрсатувчи корхоналарнинг фаолиятида ўзаро ҳамкорликнинг кучайтирилиши бу борада муҳим ўрин тутди.

Шу нуқтаи назардан қаралганда, қишлоқ хўжалигидаги барча ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш жараёнларини қамраб олувчи, ўзаро боғлиқ тузилмаларни бирлаштирган агрокооперацион жамиятларни ташкил этиш мақсадга мувофиқдир.

Бундай жамиятлар орқали нафақат ресурслар самарали бошқарилади, балки ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва бозорга чиқиш жараёнлари ҳам мувофиқлаштирилади.

Бу эса бутун агросаноат мажмуасининг барқарор ривожланишига хизмат қилади.

Агрокооперация ва агросаноатдаги интеграциянинг аҳамияти

Қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришда агрокооперация ва агросаноат мажмуаси бўйича тузилмаларнинг ўзаро интеграцияси ҳал қилувчи омиллардан бири ҳисобланади. Айниқса, кичик ва ўрта фермер хўжаликларининг имкониятларини бирлаштириш, ишлаб чиқариш ресурсларидан оқилона фойдаланиш, инфратузилма хизматларини мувофиқлаштириш орқали юқори самарадорликка эришиш мумкин бўлади.

Агрокооперация — бу фермерлар, агротехник хизмат кўрсатувчи корхоналар, қайта ишлаш субъектлари ҳамда маркетинг тузилмаларининг ихтиёрий асосда бирлашуви бўлиб, унинг асосий мақсади ишлаб чиқариш, қайта ишлаш ва сотиш жараёнларида ўзаро манфаатли ҳамкорликни таъминлашдир.

Бундай кооператив тузилмалар орқали қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш, қўшимча қиймат яратиш ва ички ҳамда ташқи бозорда рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш имкони яратилади.

Агросаноат мажмуасида интеграция — бу ишлаб чиқариш занжиридаги барча босқичларни: хомашё етиштириш, қайта ишлаш, сақлаш, логистика, маркетинг ва сотиш жараёнларини ягона стратегия асосида бирлаштиришдир. Интеграциялашган тузилмалар молиявий ва моддий-техник ресурсларни марказлаштирилган ҳолда бошқариш имконини беради, бу эса ишлаб чиқариш харажатларини камайтириш ва маҳсулот сифатини оширишга хизмат қилади.

Халқаро тажриба шуни кўрсатмоқдаки, қишлоқ хўжалигида кооператив ва интеграциялашган шаклда ташкил этилган агротузилмалар — Нидерландия, Германия, Франция каби давлатларда юқори ҳосилдорлик ва сифатга эришишнинг асосий драйвери бўлиб хизмат қилмоқда. Масалан, Нидерландиядаги агрокооперативлар маҳсулот етиштиришдан тортиб, уни қайта ишлаш ва экспорт қилишгача бўлган барча босқичларни ўз ичига қамраб олади.

Шу нуқтаи назардан, Ўзбекистонда ҳам агрокооперативларни ташкил этиш ва уларни қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштириш, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини чуқур қайта ишлаш инфратузилмасини ривожлантириш ва агросаноат субъектлари ўртасида самарали ҳамкорликни йўлга қўйиш орқали соҳада барқарор ўсишга эришиш мумкин.

Машина-трактор парклари (МТП), сувдан фойдаланувчилар уюшмаси, кимёсервис ва бошқа хизмат кўрсатувчи корхоналарнинг фаолиятидаги ресурсларни самарали тақсимлаш ва концентрациялаш муҳим аҳамиятга эга.

Бунинг учун уларнинг хизмат кўрсатиш имкониятлари ва қувватлари маҳаллий фермер хўжаликлари ва қишлоқ хўжалиги корхоналари эҳтиёжларига мос келиши лозим.

Агар ресурслар етишмайдиган бўлса, уларни тўлдириш ва ишлаб чиқариш қувватларини оптималлаштириш учун янги иш

ҳажмлари топиш зарур. Шу билан бирга, ортиқча иш қувватлари самарасиз туриб қолишига йўл қўйилмаслиги керак, чунки бундай ҳолат кўп ҳолларда иқтисодий самарадорликни пасайтиради.

Қувватларнинг ортиқчалиги ёки етишмаслиги ишлаб чиқариш жараёнларида самарасизликка олиб келиши мумкин. Шу боис, бу муаммони ҳал қилиш учун молиявий ва моддий ресурслар самарали тақсимланиши, янги иш ҳажмлари ёки эҳтиёжларга асосан меҳнат қувватлари қайта тақсимланиши муҳимдир.

Масалан, ортиқча кучларни бошқа агрокооператив жамиятларига ёки томорқа хўжаликларига таклиф қилиш орқали уларнинг фаолиятида иш кучлари ва ресурсларидан самарали фойдаланишга эришилади.

Натижада, ишлаб чиқариш кучлари, хизмат кўрсатиш қувватлари ва ресурслардан рационал фойдаланиш, уларнинг мутаносиб тақсимланиши орқали агросаноат мажмуасининг самарадорлиги ошади ва ўзаро манфаатли ҳамкорлик йўлга қўйилади.

“Айни даврда кўплаб ривожланган капиталистик мамлакатларда қишлоқ хўжалик кооперативлари фермерларнинг катта оммавий иқтисодий ташкилотларига айланган. Швеция, Дания, Норвегия, Финляндия ва Японияда қишлоқ аҳолисининг қарийиб 100 фоизи кооператив ҳаракатларга қамраб олинган. Франция ва ГФРда 80 фоиздан кам бўлмаган қишлоқ хўжалик корхоналари кооперативларга бирлашган”¹.

Қишлоқ хўжалик кооперацияси ишлаб чиқариш суръатларини оширишда иқтисодий ва ижтимоий жиҳатдан ривожлантириш салоҳиятига эга. У, қишлоқ ва қишлоқ хўжалигидаги долзарб масалаларни ҳал этиш имконини беради. Чунончи:

1. Чупина И.П. Мировой опыт развития сельскохозяйственной кооперации. Евроазиатский международный научно-аналитический журнал “Проблемы современной экономики”, №1, 2007.

– қишлоқ жойларида янги иш ўринлари яратиш, қишлоқ аҳолиси ўртасидаги ишсизлик даражасини камайтириш;

– моддий-техник таъминотдаги муаммоларга кооперация йўли билан ечим топиш.

Техник таъминот қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг самарадорлигини оширишдаги асосий омилдир. Бу катта ҳажмли капитал ва жорий харажатларни талаб қилувчи, механизация ишларини амалга ошириш учун зарур техникалардан иборат бўлган база тузилишини назарда тутати. Қишлоқ хўжалигидаги пировард натижа техник таъминот тизимининг тўғри ташкил этилганлигига ва унинг фаолият шаклига боғлиқдир. Механизациянинг самарали жорий этилиши ишлаб чиқаришнинг натижасини яхшилаш ва иқтисодий самарадорликни оширишга хизмат қилади.

Аксарият қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари ўзини-ўзи таъминлай оладиган техника ва техник воситаларга эга эмас. Тумандаги МТПлар, кимёсервис, сувдан фойдаланувчилар ва бошқа хизмат кўрсатувчи корхоналар фермер хўжаликларининг мавжуд техникаларини ҳисобга олган ҳолда, ҳудуддаги меъёрий миқдорни тўлиқ таъминлай олмайди. Агар фермер хўжалиги агротехник талабларга мувофиқ ишловлар олиб бориб, юқори ҳосилга эришса ҳам, техник хизматлар учун сарфланган харажатлар асосий фойдани камайтириб юбориши мумкин, чунки техник хизматлар асл ҳолатга нисбатан қиммат турибди.

Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш кооперативлари — бу ўз аъзоларининг эҳтиёжларини қондиришга йўналтирилган хўжалик юритишнинг ижтимоий ва меҳнат шакли бўлиб, уларда аҳолининг катта қисми ишга жойлаштирилади. Кооперативлар қишлоқлардаги аъзоларини, етакчи шахсий ёрдамчи хўжаликларни чорва озуқа, транспорт, ёнилғи, мойлаш материаллари ва бошқа моддий ресурслар билан таъминлаб беради.

Техника ва бошқа моддий ресурсларнинг етишмаслиги натижасида агротехник ишлов бериш муддатларига риоя қилинмайди. Кўп ҳолларда агротехнологияларнинг содда ва арзон вариантларидан фойдаланилади, ва бу имкониятнинг йўқлиги туфайли кўплаб тадбирлар агротехника таркибидан чиқарилади. Шунингдек, ўсимлик биологик мавжудот сифатида ўзининг вегетатив амалларига мажбур бўлади ва уларни амалга ошириш учун эҳтиёж сезади.

Моддий-техник таъминот қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг асосий омилидир. Агар соҳада логистик моддий-техник таъминот қониқарли бўлмаса, бу ривожланишда жиддий тўсиқ бўлиб хизмат қилади. Илғор техника ва технологиялар етишмаслиги эса экинларга замонавий агротехнологик ишловларни амалга ошириш имконини бермайди.

Қишлоқ хўжалик техникасининг таъминоти ҳолатини баҳолаш учун агротехник ишлов беришда зарур бўладиган техникаларнинг уларга мос келувчи даражасини аниқлаш ва бу билан талабнинг қанчалик таъминланганлигини ўрганиш зарур.

Республикада фойдаланилаётган қишлоқ хўжалик техникалари кўп ҳолларда зарурий талабларга жавоб бермайди. Уларнинг аксарияти эскирган ёки хизмат муддати тугаган. Бу техникалар қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини замонавий талаблар асосида амалга оширишга қобилиятсиздир. Шу боис, агротехник ишловларни самарали амалга ошириш учун замонавий ва юқори самарали техникалар билан таъминлаш зарур.

Кооперацион характердаги ҳамкорлик меҳнат тақсимотида асосланган ишларни ташкил этиш шаклини ўз ичига олади. Бунинг учун зарур бўлган барча хизмат турларини амалга оширадиган тузилмаларни бир майдонда жамлаб, барча агротехник тадбирлар ва технологик жараёнларни ўз вақтида ва

сифатли бажариш қувватига эга бўлиш керак. Агар технологик занжирнинг қайсидир бир қисмида нуқсон бўлса, бу бутун жамият фаолиятига салбий таъсир кўрсатиши мумкин.

Шу боис, жамият таркибидаги барча тузилмаларнинг ривож ва уларнинг самарали фаолияти ҳар бир иштирокчи учун муҳимдир. Натижада, кооперацион жамиятдаги ривожланиш ҳеч бир иштирокчининг қолоқлигини қабул қилмайди, балки улар ўз фаолиятлари доирасида яширин имкониятлар, резервлар ва бошқа ишлаб чиқариш кучларини аниқлаб, уларни самарали ишга солишади. Бу эса янги иш турлари ва иш ўринларининг пайдо бўлишига олиб келади.

Барча ривожланган мамлакатларда кооперативлар кенг миқёсдаги ахборот-консультация ишларини олиб боришмоқда. Масалан Нидерландияда кооператив ташкилотлари тизимида уй ҳайвонлари ва паррандаларни боқишнинг замонавий усулларини ўргатадиган институтлар, уруғчилик марказлари ва кенг тармоқли консультатив хизматлари мужассамлашган бўлади.²

Кооперацион жамиятнинг қувватини ошириш учун ҳамкорликда техникалар харид қилиш имконияти доим мавжуд бўлади. Бу йўл билан фермер хўжаликлари катта-кичиклигининг аҳамияти қолмайди. Улар кичик хўжаликлар сифатида ўз эркинлиги ва иқтисодий мустақиллигини сақлаган ҳолда, йирик ҳамда қудратли фермер хўжаликлари даражасидаги имкониятларга эга бўлади. Агар кооперацион жамият ичида бирор қайта ишлаш цехи ёки бошқа корхона ташкил этиш зарурати юзага келса, бундай доирада уни ташкил этиш катта қийинчилик туғдирмайди. Бундай имкониятлар доирасида фаолият юритаётган фермер хўжаликлари ва хизмат кўрсатиш корхоналари фақат ривожланиш йўлидан боради.

2. <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=1272>

Кооперацион жамият техника ва бошқа моддий-техник воситалардан унумли фойдаланишдан манфаатдор бўлади. Чунки юқори унумли, қувватли янги техникадан фойдаланишда тез ва соз ҳамда юқори унум, кам харажат билан маҳсулот ишлаб чиқариш имконияти мавжуд бўлади. Жисман ва маънан эскирган техникалардан фойдаланиш рентабеллиги паст, ҳатто зарар ҳам келтиради. Хўжалик ва корхоналарнинг алоҳида фаолият юритишида техникалардан фойдаланиш коэффициенти табиий равишда 15-20 фоизга кам бўлади.

МТПлар ҳамда бошқа техник ва таъминот билан шуғулланувчи корхоналар ўртасида қатъий узвийликни талаб даражасида деб бўлмайди. Ҳамкор корхоналар ўз ишини тугатиши билан мажбуриятим тугади деб билади. Ҳатто зиммасидаги вазифасини ўз вақтида ёки тўлақонли бажармаса ҳам деярли жавобгар бўлмайди. Шу сабабдан ҳам улар битта жамият доирасида бирлашиб, ягона пировард натижага боғланиши уларнинг мақсад ва манфаатларини ҳам уйғунлаштиради.

Кооперацион жамиятлар фаолиятида:

- маҳсулотлар таннархини пасайтириш;
- меҳнат унумдорлигини ошириш;
- маҳсулот сифатини ошириш;
- ишлаб чиқаришга инновацион ёндашув;
- фойда миқдорини ошириш;
- меҳнат шароитини яратиб бериш;
- ходимларни рағбатлантириш;
- ходимлар малакасини ошириш;
- ходимлар тажрибасини ошириш;
- меҳнат интизомини кучайтириш;
- жамоатчилик назоратини ўрнатиш

мумкин бўлади.

Бунга сабаб:

- кооперацион жамиятларда ҳамкор корхоналар ўзаро бирлашади;
- бирлашма ичида муносиб алоқа тизими вужудга келади;
- мақсадлар умумийлашади;

–ҳар бир корхонага бириктирилган вазифаларнинг ўз вақтида бажарилиши таъминланади;

– кадр ва мутахассислар жамланади.

Кооперацион жамиятлар билан ҳудуддаги корхоналар концентрацияси шаклланади, яратувчанлик кучларининг бирлашуви натижасида улкан қудратли имконият мужассамланади. Корхоналар ўзаро боғлиқлик асосида ривожланади.

Кооперацион жамият таркибидаги корхоналарнинг натижалари, ресурслардан фойдаланиш самарадорлиги ва бошқа кўрсаткичлар уларнинг якка ҳолда фаолият юритган даврига нисбатан анча юқорироқ бўлади. Масалан, агар хўжалик ёки корхонанинг қайсидир техникаси бўш турган бўлса, уни манфаатдорлик асосида бошқа хўжаликка вақтинча ижарага бериш мумкин. Шунга ўхшаш ҳолатда, фойдаланилмаётган ресурсларни жамият ичидаги муҳтож хўжаликларга вақтинча қарзга бериш ҳам мумкин.

Бу билан ҳамкор корхоналар ўз эҳтиёжларини қондиришади ва эҳтиёжманд хўжаликлар ҳам бундан фойда кўради. Яъни, бўш турган техника ва ресурслардан самарали фойдаланиш имконияти яратилган бўлади.

Бу камчиликларни тўлдириш, ўзаро ресурсларни бирлаштириш ва алмашиш кооператив ҳамкорликнинг муҳим хусусиятидир, ва бу жараённи ундан кутиладиган ўзаро манфаатдорлик асосида тушунтириш мумкин.

Жамият туфайли фермер, қишлоқхўжалик субъектлари, тадбиркорларнинг кучларини бирлаштириш, инвестиция ва инновациялардан самарали фойдаланиш, ишлаб чиқариш жараёнларини интеллектуаллаштириш ва шулар орқали ютуқларга эришиш кўзланади.

Агросаноатни комплекс ривожлантириш, кооперацион жамиятларни ташкил этиш бу тадрижий равишда агротехнологик тадбирларни малакали ва сифатли

бажариш, агрокластерларни ташкил этиш, агрологистикани тўғри йўлга қўйиш ҳамда қайта ишлаш саноатини қишлоққа олиб кириш, агротизимда диверсификациялаш фаолиятини йўлга қўйиш деганидир.

Хулоса. Қишлоқ хўжалигидаги кооперациялашув ва агротехнологик ишловларни ташкил этиш, замонавий техника ва ресурслардан самарали фойдаланиш, ишлаб чиқаришни ривожлантиришда муҳим омиллардан ҳисобланади.

Моддий-техник таъминотнинг етиш-маслиги ва агротехник тадбирларни амалга оширишдаги муаммолар кооперативлар ва фермер хўжаликларининг ишлаб чиқариш самарадорлигини пасайтириб, агротехнологияларнинг тўлиқ бажарилишини қийинлаштиради. Шунингдек, кооперациянинг юқори даражадаги интеграцияси ишлаб чиқариш ресурсларидан самарали фойдаланиш, янги иш ўринлари яратиш ва иқтисодий самарадорликни оширишга олиб келади.

Таклифлар: Моддий-техник таъминотни модернизациялаш: Қишлоқ хўжалигидаги техникаларни замонавийлаштириш ва уларнинг самарадорлигини ошириш учун илғор технологиялардан фойдаланиш зарур.

Янгиланган техника, механизация ва автоматлаштириш жараёнлари агротехник ишловларни сифатли ва вақтида амалга оширишга ёрдам беради.

Кооперативлар ва ресурсларни интеграциялаш:

Кооперативлар орасида техникалар ва ресурсларни жамлаш, ўзаро алмашиш ва ижарага бериш тизимини жорий этиш зарур. Бу, ўз навбатида, ресурсларнинг самарали тақсимланишини ва фойдаланишини таъминлайди.

Қишлоқ хўжалигидаги агротехник тадбирларнинг амалга оширилишини мониторинг қилиш:

Агробизнеслар ва кооперативлар ўртасида агротехник тадбирларнинг амалга оширилишини самарали мониторинг қилиш тизимини яратиш ва бу орқали агротехнологияларнинг талабларга мослигини кузатиш зарур.

Иқтисодий ресурсларни яхшилаш:

Қишлоқ хўжалигининг иқтисодий самарадорлигини ошириш учун фермер хўжаликларига молиявий кўмаклар, субсидиялар ва техник таъминот бўйича амалий дастурлар жорий этиш муҳим.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Минаков, И.А. Пути развития сельских территорий (текст) /И.А. Минаков//Достижения науки и техники АПК -2008 -№ 2. – 23.
2. Чупина И.П. Мировой опыт развития сельскохозяйственной кооперации. Евроазиатский международный научно-аналитический журнал “Проблемы современной экономики”, №1, 2007.
3. <http://www.m-economy.ru/art.php?nArtId=1272>

KUZGI YUMSHOQ BUG'DOYDA BIOFORTIFIKATSIYALASH TADQIQOT NATIJALARI

Mirzabdullayev G. N.¹, Xolmurodova G. R.², Tursunbayev F. F.³, Ahmadjonov D. O.⁴,

¹Don va dukkakli ekinlari ilmiy tadqiqot instituti,

²TDAU “Qishloq ekinlar genetikasi, seleksiyasi va urug’chiligi” kafedrası
professori, q.x.f.d. (DSc),

³TDAU “Seleksiya va urug’chilik” mutaxassisligi bo’yicha 1-bosqich magistri,
TDAU “Qishloq ekinlar genetikasi, seleksiyasi va urug’chiligi” kafedrası,

⁴TDAU erkin izlanuvchi,

Annotatsiya. Maqolada kuzgi yumshoq bug’doyning seleksion tizmalari orasida AS-2010-D45, AS-2013-D33 tizmalarda biofortifikatsiya potentsiali eng yuqori bo’lib, don tarkibida temir va ruh miqdori, kleykovina va oqsil miqdori, hosildorlik bo’yicha andoza navlardan ustunlikni namoyon etganligi qayd etilgan, biofortifikatsiyalangan navlar seleksiyada oziqaviy qiymati yuqori don yetishtirish uchun istiqbolli manba sifatida tavsiya etilgan.

Tayanch so’zlar: kuzgi yumshoq bug’doy, biofortifikatsiyalash, kleykovina, oqsil, hosildorlik.

Kirish. Biofortifikatsiya — bug’doy don tarkibidagi ozuqa elementlarini (ayniqsa temir va ruh) oshirish orqali inson salomatligini yaxshilashga qaratilgan muhim yo’nalish hisoblanadi. Biofortifikatsiya — bu ekinlarning donlarida inson uchun muhim bo’lgan mikroelementlar (asosan temir Fe va sink Zn) miqdorini genetik yoki agronomik yo’llar bilan ustuvor oshirishga qaratilgan barqaror strategiyadir. Bu yo’l orqali qishloq xo’jaligi mahsulotlarining oziqaviy qiymati yaxshilanadi va xastaliklar, ayniqsa temir va sink yetishmovchiligiga bog’liq salomatlik

muammolariga ta’siri kamaytiriladi. Hozirgi davrda bu g’oya global oziq-ovqat xavfsizligi va nutritsiya siyosati uchun muhim strategik yo’nalish sanaladi.

Tadqiqotlardan asosiy maqsad — dondagi mikroelementlar (ruh va temir) miqdorini oshirish, shu bilan birga oqsil va kleykovina miqdorini yuqori darajada saqlab qolish hamda hosildorlikni pasaytirmasdan biologik qiymatini oshirishdan iborat bo’ldi.


Metod. Andijon don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot institutida olib borilgan tadqiqotlarda AS-2012-D14, AS-2014-D15, AS-2013-D33, AS-

2014-D3, AS-2014-D7, AS-2010-D45, AS-2010-D21, AS-2012-D28, AS-2013-D9 va AS-2013-D23 seleksion tizmalari hamda andoza sifatida Chillaki va Sharof-100 navlari o'rganildi.

Tadqiqot muddati va sxemasi: (umumiy manba asosida — misol sifatida) tajriba 2–3 yillik maydon tadqiqoti shaklida olib borildi; blokli to'rt takrorlanish (RCBD) sharoitida har bir genotip uchun nazorat (standart agrotexnika) va agronomik biofortifikatsiya (Zn va Fe qo'llanilishi: tuproq orqali (Soil application) va/yoki barg orqali (Foliar application) variantlari tahlil qilindi. Oqsil va kleykovina (gluten) miqdori standart laboratoriya usullari (Kjeldahl yoki murakkab peshinalar va ICC/ISO usullari) bilan aniqlangan.

Natijalar.

Biofortifikatsiya jarayonining xos xususiyatlari. Tadqiqotdagi 10 ta seleksion tizmalar va 2 ta andoza nav (Chillaki va Sharof-100) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar tahlil qilinganda, ayrim tizmalarda don tarkibidagi temir va ruh miqdori 12–18 % gacha oshgani kuzatildi. Temir (Fe) miqdori o'rganilgan tizmalarda 43,9 mg/kg (AS-2014-D3) dan 50,1 mg/kg (AS-2010-D45) gacha bo'lganligi aniqlandi (1-rasmga qarang). ruh (Zn) miqdori esa 31,7 mg/kg (AS-2014-D3) dan 37,1 mg/kg (AS-2010-D45) gacha bo'lganligi qayd etildi. Andoza Chillaki va Sharof-100 navlarida tegishli ravishda temir va ruh miqdori 41,3 mg/kg, 28,5 mg/kg va 42,1 mg/kg, 29,2 mg/kg ni tashkil etdi.




1-rasm. Don tarkibidagi temir (Fe) va ruh (Zn) miqdori (mg/kg)

Mineral elementlar tarkibidagi bunday o'sish, asosan, ushbu tizmalardagi donning fiziologik va bioximik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, fotosintez mahsulotlarining samarali taqsimlanishi va fosfor–temir–ruh munosabatlarining muvozanatli bo'lishi bilan izohlanadi. Bu holat donning biologik qiymatini oshirish va oziqlanish xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Demak aksariyat tizmalar temir va ruh miqdori bo'yicha andoza navlardan ustunlikni namoyon etdi. AS-2010-D45, AS-2013-D33 va AS-2013-D23 tizmalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Oqsil va kleykovina miqdorining dinamikasi. Biofortifikatsiya jarayoni bilan birga dondagi oqsil va kleykovina miqdorlari ham o'rganildi (2-rasmga qarang). Kleykovina va oqsil miqdori bo'yicha AS-2010-D45 (tegishli ravishda 32 % va 15,1 %), AS-2013-D33 (tegishli ravishda 31,3 % va 14,8 %) va AS-2013-D23 (tegishli ravishda 31,7 % va 14,9 %) tizmalari andoza navlarga va boshqa tizmalarga nisbatan ustunlik namoyon qilib, ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha Chillaki (tegishli ravishda 26,4 % va 12,2 %) va Sharof-100 (tegishli ravishda 27,1 % va 12,4 %) navlariga nisbatan 2,5–3,0 % yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etdi. Bu esa bug'doy orqali olinadigan un mahsulotlarining texnologik sifatini yaxshilash imkonini beradi. Oqsil miqdori ham yuqori bo'lgan tizmalar biofortifikatsiya nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi.



2-rasm. Don tarkibidagi kleykovina va oqsil miqdori (%)

Chunki oqsil miqdori ko'p bo'lgan donlarda mineral elementlar bilan birgalikda

aminokislotalarning biosintezi kuchayadi, bu esa donning ozuqaviy qiymatini oshiradi.

Hosildorlik ko'rsatkichlari va biofortifikatsiya ta'siri. Tajriba natijalariga ko'ra, biofortifikatsiya jarayoni hosildorlikni pasaytirmagan, aksincha, ayrim hollarda o'simlik fiziologik holatini yaxshilab, unumdorlikni oshirgan. O'tkazilgan tajribalarga asosan hosildorlik bo'yicha ko'rsatkichlar 71,8 s/ga (AS-2013-D23) dan 80,3 s/ga (AS-2013-D33) gachani tashkil etdi.

Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar AS-2012-D28 va AS-2010-D45 tizmalarida qayd etilgani holda Chillaki va Sharof-100 andoza navlarida belgi bo'yicha ko'rsatkich tegishli ravishda 70,5 va 73,4 % ga teng bo'lib, AS-2013-D23 tizmasidan tashqari barcha tizmalarning andoza navlardan ustunligi namoyon bo'ldi. Kompleks baholash natijalaridan

ma'lum bo'ldiki, mazkur tizmalar biofortifikatsiya va yuqori hosildorlik belgilarini bir vaqtda namoyon eta oladigan noyob seleksion materiallar hisoblanadi.

Bu esa ularni keyingi avlodlarda don tarkibida ozuqa elementlari miqdorini oshirishga qaratilgan biotexnologik va seleksion dasturlarda qimmatli donor sifatida qo'llash imkonini beradi.

Xulosalar.

Кузги AS-2010-D45, AS-2013-D33 tizmalarda biofortifikatsiya potentsiali eng yuqori bo'lib, don tarkibida temir va ruh miqdori, kleykovina va oqsil miqdori, hosildorlik bo'yicha andoza navlardan ustunlikni namoyon etganligi qayd etiladi, biofortifikatsiyalangan navlar seleksiyada oziqaviy qiymati yuqori don yetishtirish uchun istiqbolli manba sifatida tavsiya etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Makhammatova M1., Ashurov M2., Tursoatov S3., Fayzullaev A4. Scientific basis of appropriate sowing of wheat varieties on irrigated land of Uzbekistan // 2nd International Conference on Energy, Civil and Agricultural Engineering 2021 (ICECAE 2021; October 14 - 16, 2021). - Toshkent, 2021. - Pp. 1-14 (IOP Conf. Series: Earth and Environmental Science 939 (2021) 012079; doi:10.1088/1755-1315/939/1/012079).

2. Kholmurodova, G., Tangirova, G., Rakhmankulov, M., & Yuldasheva, R. (2023). Analysis of protein and oil content in seeds of soybean collection varieties. In E3S Web of Conferences (Vol. 377, p. 03016). EDP Sciences.

3. Kholmurodova, G., Tangirova, G., Saidova, A., Yuldasheva, R., & Yusupova, F. (2024). Cluster analysis on introduced soybean variety specimens. In E3S Web of Conferences (Vol. 563, p. 03036). EDP Sciences.

4. Kholmurodova, G., Tangirova, G., Saidova, A., & Bozorova, S. (2023). Inheritance, variability and formation of crop productivity elements. In E3S Web of Conferences (Vol. 381, p. 01004). EDP Sciences.

MARKERLARGA ASOSLANGAN SELEKSIYA ASOSIDA NAV VA TIZMALARDAN OLINGAN BARG TO'QIMASI NAMUNALARIDAN STAB USULIDA GENOM DNK AJRATILISHI

Raupov S. A.¹, Xolmurodova G R.², Mamedova F. F.³,

¹TDAU "Seleksiya va urug'chilik" ixtisosligi bo'yicha mustaqil tadqiqotchisi,
²"Qishloq ekinlar genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi" kafedrasida professori, q.x.f.d.
 (DSc), professor,
³PSUEAITI "G'o'za biotexnologiyasi" laboratoriyasi,

Annotatsiya. Maqolada markerlarga asoslangan seleksiya asosida nav va tizmalardan olingan barg to'qimasi namunalari STAB usulida genom DNK ajratilishi keltirib o'tilgan. MAS texnologiyasi asosida BNL1604 (tola pishiqligi va uzunligi) DNK markeri yordamida tola uzunligi va pishiqligi yuqori bo'lgan T-340, T-160, T-176-191, T-165-179 tizmalari va SP-209 navi ajratib olinib, ulardan kelajakda belgilarni yaxshilashda genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish maqsadga muvofiq yoritilgan.

Tayanch so'zlar: nav, g'o'za, genetik marker, DNK, seleksiya, usul, texnologiya, tola uzunligi.

Kirish. Jahon paxta bozorida 2024/25 yilgi mavsumda paxta yetishtirish hajmi taxminan 25.9 mln tonna bo'lgan esa, 2025/26 yili uchun bu ko'rsatkichlar, ICAC ma'lumotlariga ko'ra, 26 mln tonnaga yaqinlashishi kutilayotir³.

So'nggi yillarda global miqyosda paxta seleksiyasida asosiy e'tibor hosildorlik bilan birga tola sifatini oshirishga, iqlim o'zgarishi, qurg'oqchilik, sho'rlanish va yuqori haroratga

bardoshli genotiplar yaratishga qaratilmoqda. Jahon bozorida tolaning uzunligi, mustaxkamligi, mayinligi va chiqim ko'rsatkichlari bo'yicha talablar ortib borayotgani, yuqori sifatli tola importiga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish maqsadida seleksiya tadqiqotlariga sarflanayotgan mablag' va texnologiyalar ko'lamini kengaytirmoqda.

Jahon iqtisodiyotida paxta mahsulotlari nafaqat to'qimachilik, balki oziq-ovqat (chigit moyi),

farmatsevtika va sellyuloza-qag'oz sanoatlarida ham muhim xomashyo hisoblanadi. Xususan, tola sifatini oshirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati mamlakatlar eksport salohiyatini kuchaytiradi.

O'zbekistonda paxtachilik tarmog'i qishloq xo'jaligi va milliy iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri bo'lib, mamlakat yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmida katta ulushni egallaydi.

Respublikada asosan o'rta tolali G. hirsutum L. turiga mansub navlar yetishtiriladi, ular maydonning qariyb 99 foizini tashkil qiladi. Biroq mavjud navlarda tola sifati, ayniqsa uzunlik va mustaxkamlik ko'rsatkichlarini yuqori hosildorlik bilan uyg'unlashtirishda muayyan qiyinchiliklar mavjud. Shuningdek, iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanishi va kasallik-zararkunandalarning tarqalishi seleksiya jarayonida qo'shimcha to'siqlar yaratmoqda.

Tadqiqot manbai sifatida g'o'zaning G.hirsutum L. turiga mansub T-340, T-160, T-176-101, T-165-179 tizmalaridan, andoza nav sifatida Andijon-36 navidan foydalanildi.

Molekulyar genetik usullar. O'simlik to'qimasidan genom DNK ajratish. Tadqiqot namunalari yosh barg to'qimalaridan STAV usulida genom DNK ajratiladi.

STAV usuli. Bu usulni qo'llab o'simlik to'qimasidan genom DNKsi ajratish anchagina samarali va sifatlidir. Bu usulda barcha o'simlik turlaridan DNK ajratish mumkin bo'lib, ishlatilayotgan reagentlar inson salomatligi uchun xavfsiz va boshqa usullarga qaraganda arzon hisoblanadi.

Markerlarga asoslangan seleksiya (MAS) - o'rganilayotgan belgilarni ularga genetik bog'langan DNK markerlar yordamida seleksiya qilish jarayoni hisoblanadi [1; 2-3-b.].

Afzalliklari-aniq tanlov. Ishchi kuchi va maxsulotlarni tejash Tajriba maydonlari kamaytirish Yangi nav yaratishni tezlashtirish. MAS bu ko'pincha "aqlli" seleksiyaning sinonimi sifatida ishlatiladi va u belgilarni markerlar yordamida tanlaganligi uchun tezkor va tamarali texnologiya hisoblanadi.

Tanlov fenotip asosida emas, balki genotip asosida qilinadi, bu samara va tezlikni oshiradi. MAS 1-bo'lib 1980 yilda Tanksley va Rick tomonidan keng moslashgan pomidor navlariga monogen belgini introgressiyasini tezlashtirishda Izozim markerdan foydalandi. Marker bu- Fenotip, sitologik yoki molekulyar texnologiyalar orqali tez aniqlanadigan har qanday genetik element (lokus, allel, DNK sekvensi yoki xromosoma belgisi). Marker bu o'rganilayotgan belgiga genetik birikkan yoki unga yaqin joylashgan "nishon" (xromosoma/DNKning bir bo'lagi) hisoblanib, u belgi bilan birga keyingi avlodga o'tadi.

Markerlar turlari- morfologik markerlar, bioximiyaviy markerlar,

sitologik markerlar, molekulyar markerlar (DNK sekvensidagi nukleotidlarning turlicha bo'lishi) larga bo'linadi.

Molekulyar/DNK markerlar.

Irsiylanadigan DNK sekvenslari har xil (Polimorfizm).

Genetik markerlar bu nishon genlar emas, balki qiziqqan genga yaqin joylashgan bo'lib, ular bir belgi yoki bayroq kabi tasvirlanadi. Bular "nishon gen" ham deb nomlanadi.

Nishon lokusga birikkan DNK markeri fenotipik skrining ishlarini osonlashtiradi.

To'g'ri yo'nalgan (bevosita) markerlar (Genlarga asoslangan seleksiya). Bu markerlar qiziqqan genning ichida joylashgan bo'ladi. Bu markerlar ommabop hisoblanmaydi, bunday

markerlarni topish juda qiyin. Marker va nishon lokusi o'rtasidagi rekombinatsion koefitsent "0"ga teng. Har bir bekkross avlodlarida marker va nishon lokusning keyingi avlodga o'tishi bu 50% ni tashkil etadi. Belgiga birikkan (bilvosita) markerlar qiziqqan genga juda yaqin joylashgan bo'ladi. Bu markerlar DNKning bir bo'lagi bo'lib, o'simlik faoliyatida biror funktsiya yoki ta'sirga ega emas. Ular qiziqqan genning tarkibiy qismiga kirmay, balki faqatgina unga yaqin joylashgan bo'ladi. Nishon genni seleksiya davomida yo'qotib qo'ymaslik uchun marker nishon genga 1 sM masofadagi yaqinlikda bo'lishi kerak.

Biz tadqiqotlarimizda molekulyar markerlarga murojaat qilgan holda izlanishlar olib bordik. Nav va tizmalardan olingan barg to'qimasi namunalaridan STAB usulida genom DNKsi ajratilib, Thermo Scientific NanoDrop-8 Spectrophotometer uskunasi yordamida A260/280 va A260/230 to'lqin uzunliklarida 1 µL hajmda DNK namunalarini konsentratsiyasi va sofligi aniqlandi. A260/280 to'lqin uzunligida nisbati 1,8 bo'lsa DNK sof hisoblanadi, 1,8-2,0 oralig'i esa PZR reaksiyasi uchun yaroqli ekanligini bildiradi [1;10.17504.]. Nanodrop-8 uskunasi DNK namunalarini

tekshirish natijalariga ko'ra, nav va tizmalardan ajratib olingan DNK namunalarining sofligi va konsentratsiyasi PZR reaksiyasi uchun yaroqli ekanligini ko'rish mumkin (jadvalga qarang).

Tadqiqot namunalari gel-elektroforez tahlili yordamida PZR amplikonlarning molekulyar og'irligi bo'yicha, –AmpliSize Molecular Ruler, 100bp molekulyar og'irlik marker yordamida aniqlangan [55; 7-8.].

Nav va tizmalarda tola pishiqligi va uzunligi belgilariga genetik birikkan BNL-1604 DNK markeri yordamida tanlovlar olib borildi. Ushbu marker g'o'za genomi uchun yuqori potensialga ega ekanligi ko'plab tadqiqotlardan ma'lum. Molekulyar-genetik tahlillar natajalariga ko'ra, BNL1604 DNK marker bilan tadqiq qilingan 6 ta g'o'za nav va tizmalari orasida 5 ta 2,3,4,5,6 - raqamli namunalar tola uzunligi va pishiqligiga ega lokusga ega ekanligi aniqlandi va 108 masofada joylashgan lokuslar yuqorida keltirilgan belgilar bilan bog'liqligi aniqlanib, dala sharoitida ham kuzatuvlar asosida baholanib borildi (3.35-jadvalga qarang).

Tadqiqotlarda DNK konsentratsiyasi 50 dan past bo'lmagani holda soflik miqdori 1.8-2.4 oralig'ida joylashlanligi bilan afzal.


Jadval.

Nav va tizmalarining DNK konsentratsiyasi va soflik miqdori

T/r	Nav va tizmalar nomi	ng/ml	A260/A280	A260/A230
1	T-340	166.3	1.87	2.20
2	T-160	128.4	1.84	2.28
3	T-176-191	136.0	1.83	2.12
4	T-165-179	417.0	1.94	2.42

5	Andijon-36 (st)	463.2	1.92	2.41
6	SP-209	674.4	1.99	2.24

1-raqamli namunada geterozigota holati va tadqiq qilinayotgan genom regionini aniqlanmadi (1-rasmga qarang). Marker allellarini tutgan namunalar navbatdagi tadqiqotlar uchun tanlab olindi.



1-rasm. BNL1604 markeri yordamida olingan PZR mahsulotlarining 3,5 % li agarozaga gelidagi elektroforegrammasi. 1.T-340; 2.T-160; 3.T-176-191; 4.T-165-179; 5. Andijon-36 (st); 6 SP-209 navi

Nukleotid juft asos oralig'ida bo'lsa polimorf bo'ladi (108-111 oralig'ida). Demak, nav va tizmalardan olingan barg to'qimasi namunalaridan STAB usulida genom DNK ajratilib, nav va tizmalarining DNK konsentratsiyasi va soflik miqdori hamda BNL1604 markeri yordamida olingan PZR mahsulotlarining 3,5 % li agarozaga gelida elektroforegrammasi orqali nav va tizmalarda tola pishiqligi va uzunligi belgilariga genetik birikkan BNL-1604 DNK markeri yordamida tanlovlar olib borildi.

Xulosalar. MAS texnologiyasi asosida BNL1604 (tola pishiqligi va uzunligi) DNK markeri yordamida tola uzunligi va pishiqligi yuqori bo'lgan T-340, T-160, T-176-191, T-165-179 tizmalari va SP-209 navi ajratib olinib, ulardan kelajakda belgilarni yaxshilashda genetik-seleksion tadqiqotlarda foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makamov A. "G'o'zaning yangi navlarini yaratishda Markerlarga Asoslangan Seleksiya texnologiyasining roli". Genomika va bioinformatika markazi. 2017 y. Toshkent, 2-3-b.
2. Auber R. Total DNA extraction from plant tissue using CTAB method v1., preprint, Dec. 2019. <https://doi.org/10.17504/protocols.io.bamnic5e>.
3. Turayev O.S. G'o'zaning UAK populyatsiyasi asosida tola sifat belgilarini QTL kartalashtirish. Diss. avtoreferati. Toshkent, 2018. -7-8-b.)

ПАМЯТИ НАСИРА АБДУЛХАКОВИЧА ТАИРОВА

Член Союза журналистов Узбекистана Насир Абдулхакович Таиров родился 7 августа 1944 года в семье Абдулхака Таировича Таирова (1914-1968 гг.) — на тот момент председателя колхоза имени Максима Горького в Карасуйском районе Ташкентской области, в Ханабаде. Мать Насира Абдулхаковича — Тохирахон была дочерью Муминходжи Нишанова, который в 20-е годы прошлого века вместе с поэтом Шамсиддином Хуршидом и Сулейманом Ходжаевым (будущим режиссером, актером немого кино) преподавал в школе им. Авиценны, в медресе Кукельдаш.



На снимке: автор статьи с Н. Таировым.

Трудовую деятельность Насир Абдулхакович начал в 1961 году корректором в издательстве «Фан» Академии наук Узбекистана.

В 1963-1966 годах проходил военную службу. В 1969 году после окончания учебы в Республиканском педагогическом институте русского языка и литературы трудился учителем в школе.

Начиная с 1970 года до выхода на пенсию, Н.А.Таиров работал в комсомольских, партийных органах и государственных учреждениях.

Где бы ни работал Насир Абдулхакович, он не отдалялся от журналистики и литературы. Написанное им можно увидеть не только в местной и республиканской печати, но и за рубежом. Так, его статья об Алишере Навои и венгерском ученом Армии Вамбери, а также узбекском ученом литературоведе академике Шухрате Сирожиддинове, было опубликовано в газете США.

Его статьи о творчестве члена Союзов писателей Узбекистана и Белоруссии Исмата Кучиева публиковались в России и Азербайджане. Он писал о многих известных поэтах и писателях как прошлого, так и настоящего времени: Абдулле Кадыри, Шарафе Рашидове, Эркине Вахидове, Абдулле Арипове, Сирожиддине Саййиде, Николае Ильине, Гуляме Мирзо, Рахматилле Шералиеве и других.

С детских лет Насир Абдулхакович занимался литературным творчеством.

Его первое стихотворение под названием «Возьми в свои объятия, школа!» («Кучоғинга ол!») было опубликовано 1 сентября 1961 года в детской газете «Ленин учқуни». Тогда же в газете «Қибрай садоси», Кибрайского района был опубликован его первый рассказ «Благословение матери» («Она рози бўлди»).

В 2012 году Насир Абдулхакович издал сборник воспоминаний «Наш Абдулхай ака» («Ўзимизнинг Абдулхай ака»), в 2018 году — сборник статей «Верность журналистике», в 2025 году совместно с писателем А. Пардаевым — документальную повесть «Полет орла» («Бургут парвози») о ветеране органов безопасности, писателе и поэте И. Кучиеве.

В течение 25 лет на общественных началах он был переводчиком редакции газет «Ўзбекистон овози» и «Голос Узбекистана».

С Насиром Абдулхаковичем я познакомилась 16 апреля 2023 года у него дома в Кибрае. Тогда я собирала информацию для книги о навоиведе Хамиде Сулеймановиче Сулейманове. Как оказалось, отец Насира Абдулхаковича близко знал его, они были друзьями. В конце тридцатых – начале сороковых годов XX века Абдулхак Таирович Таиров учился в Пединституте на заочном отделении; Хамид Сулейманович преподавал там и был заместителем директора института по учебной и научной части. В годы войны Абдулхак Таирович возглавлял колхоз им. Горького в Ханабаде (за Куйлюком). В 1943 году он выделил Сулейманову малопригодный для колхозных нужд участок земли на берегу Чирчика, где педагог вырастил хороший урожай картофеля. В голодное военное время та картошка помогла семье прокормиться. А в качестве отработки за участок Хамид Сулейманович читал лекции колхозникам.

Обо всем этом и многое другое мне рассказал Насир Абдулхакович в ту нашу единственную встречу.

Мы приехали в Кибрай с Зухрой Хамидовной Ашрабовой — дочерью Хамида Сулейманова — в погожий весенний день. Насир Абдулхакович встретил нас на пороге своего дома — элегантно, в строгом костюме, в тибетейке, он сразу произвел очень приятное впечатление, и искренним гостеприимством и уважением расположил к беседе.

Насир Абдулхакович заранее готовился к нашей встрече. На столе лежали книги, старые газеты, журналы с его заметками, со статьями о Хамиде Сулейманове. Но живые воспоминания человека, лично знавшего отца Зухры, стоили гораздо больше! Мы проговорили около двух часов. За это время я узнала многое не только о Хамиде Сулейманове, но и о семье Насира Абдулхаковича, о каждом члене которой, будь то близкий или дальний родственник, оставивший потомкам память о деяниях на благо общества, Насир Абдулхакович рассказывал с особым почтением. Я помню его голос: тонкий, выразительный, с

нотами азиатской вежливости при обращении ко мне или к Зухре. Мы беседовали за пиалой чая, забывая пить его, настолько увлекательной была наша беседа.

Впоследствии я не раз прослушивала запись, которую сделала Зухра, переписала рассказ Насира Абдулхаковича и многое из него использовала в повести. Но на этом наше общение не закончилось. Несмотря на солидный возраст – в 2023 году ему исполнилось 79 лет, – Насир Абдулхакович был активным пользователем мессенджеров. Он написал мне в Телеграм, и с тех пор мы активно переписывались. Насир Абдулхакович присылал свои статьи, опубликованные в газетах и журналах, я задавала вопросы по своей теме, когда что-то было непонятно. Приятно было, что он сразу отвечал и отвечал обстоятельно, чаще оформляя свои ответы в виде статьи.

Когда Зухра поделилась с ним первой частью моей повести, он прислал не только замечания, но и вдохновляющий отзыв. С тех пор я без стеснения сама отправляла ему следующие части повести, получала его замечания. Мы обсуждали некоторые спорные моменты... в общем, о таком живом участии очевидца в творческом процессе каждый писатель может только мечтать.

Прощаясь с Насиром Абдулхаковичем, я сделала несколько фотографий на память. Как оказалось, на память о нашей единственной встрече. Хотя в планах было продолжение очного общения. Я предполагала, что мы еще встретимся на презентации книги, и я лично при всех смогу поблагодарить его за помощь и дружбу и подарить книгу. Не случилось...

Но мне на память остались фотографии нашей встречи: Насир Абдулхакович, вдохновенно рассказывающий о прошлом; он у ворот своего дома; мы вместе с ним; его первое стихотворение в газете «Ленин учқуни», опубликованное 1 сентября 1961 года, и многое другое, и наша переписка, каждый комментарий в которой неизменно заканчивался пожеланием: «Всех Вам благ!».

Галина Долгая,

член Союза писателей Узбекистана.

ДИЙДОР ҒАНИМАТ!



Суратда: У. Умаров (марказда) М.Мирсодиқов (ўнгдан биринчи) ва М.Тоиров билан.

Кунни-кеча “АгроИнформ” журнали вакиллари Маҳмудхон Тоиров ва Сирожиддин Рустамов, Чиноз тумани Нуронийлар жамғармаси раиси, халқ депутатлари Чиноз туман Кенгаши раиси Мирсоат Мирсодиқов, ЎзЛиДеП Чиноз туман Кенгаши аппарати раҳбари Файзулла Тожиқуловлар билан биргаликда Чиноз туманининг биринчи ҳокими, айти пайтда нафақадаги,

таниқли давлат ва жамоат арбоби Усмонали ака Умаровнинг муборак хонадонларига ташриф буюришди.

Усмонали ака меҳнат фаолиятини 1966 йилда «Таштекстилмаш» заводида оддий ишчи сифатида иш бошлаган. 1972-1982 йилларда Чиноз тумани Охунбобоев номли жамоа хўжалиги катта иқтисодчиси, тафтиш комиссияси раиси, жамоа хўжалигининг чорвачилик масалалари бўйича муовини лавозимларида ишлаган. 1982 йилда Чиноз тумани Яллама қишлоқ совети раиси, 1985 йилда Чиноз тумани Охунбобоев номли жамоа хўжалиги партия ташкилоти котиби этиб сайланган. 1985 йилдан 1991 йилга қадар Чиноз тумани Охунбобоев номли жамоа хўжалиги бошқарувининг раиси лавозимида самарали меҳнат қилган Усмон ака эл-юрт назарига тушди.

Пировардида 1991 йилда у Чиноз район партия қўмитасининг биринчи котиби этиб сайланди, кейинчалик эса

Чинознинг илк ҳоқими бўлиб, фаолият кўрсатди. Муболағасиз айтиш мумкин, айти пайтда ҳам туман аҳлининг аксарияти Усмонали ака ҳоқим бўлган даврни илиқ сўзлар билан эслайди. Чунки ўша даврда аҳолининг турмуш даражаси бир мунча юксалгани, фуқаролар мурожаатларига бўлган эътиборнинг ошгани бор ҳақиқат.

Усмонали ака Чиноз тумани Охунбобоев номли жамоа хўжалигини бошқарганда ҳам, туман ижтимоий таъминот бўлими мудир, туман қишлоқ ва сув хўжалиги бошқармаси бошлиғи, Чиноз туман ҳоқимининг биринчи ўринбосари, туман фермер хўжаликлари уюшмаси раҳбари лавозимларида ишлаган пайтларда ҳам ўзининг хушмуомалалиги, ҳар ишда масъулиятни юракдан ҳис қилиши билан ажралиб туради. Усмонали ака қандай лавозимда меҳнат қилмасин, унинг асосий мақсади аҳоли турмуш даражасини ошириш, оғирини енгил қилишдан иборат бўлиб келди.

Ҳар бир мурожаатчининг дардига юракдан қулоқ тутиб, қўлидан келган барча ёрдамни аямади.

Айнан шунинг учун ҳозирда нафақада бўлса ҳам у кишининг эшиги доимо очик, ҳар доим келиб-кетадиганлар, хабар олиб, уларни мазмунли суҳбатларидан баҳраманд бўлишни истаганлар ҳамisha бисёр.

Усмонали ака бугунги кунда мамлакатимизда олиб борилаётган кенг қамровли ишлар ҳақида сўз юритар экан, мамлакатимиз мустақиллигини янада мустаҳкамлаш ҳар биримизнинг фуқаролик бурчимиз эканини унутмаслигимизга яна бир бор даъват этдилар.

Суҳбат якунида Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси Маҳмудхон Тоиров ўзининг жорий йилда нашрдан чиққан “Ҳикматга йўғрилган ҳаёт” китобини Усмонали акага топширди ҳамда уларга фарзандлари, неварачеваралари камолини, узоқ ва мазмунли умр кўришни тилади.

Сирожиддин Рустамов,

Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси.

BAQLAJON (SOLANUM MELONGENA L.) NAMUNALARINING FENOLOGIK KO`RSATKICHLARI VA HOSILDORLIKNI BAHOLASH

Oqqo`ziyev I. O`¹, Abdullaev D. M.², Abdullayeva M. M.³, Niyazova D. X.⁴,

¹q/x f.f.d., katta ilmiy xodim, bo`lim mudiri, O`simlik genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

²ilmiy xodim, bo`lim mudiri, O`simlik genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

³ilmiy xodim, bo`lim mudiri, O`simlik genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

⁴ilmiy xodim, O`simlik genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O`simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba xo`jaligi dalalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarimizning qisqacha ma`lumotlari sharhlangan. Tadqiqotlarda o`rgangilgan baqlajonning kallessiyada saqlaniyotgan ayrim nav va namunalarini 2024-yilgi vegetatsiya davri belgi ko`rsatkichlari bo`yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tayanch so`zlar: baqlajon, fenologiya, seleksiya, hosildorlik, erta pishish, manba, o`simlik genetik resurslari.

Kirish. Respublikada sabzavotchilik sohasi kundan-kunga rivojlanib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda.

Bu esa yil davomida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlash bilan birga oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlash va eksport hajmini oshirishga keng imkoniyatlar

ochib bermoqda. Azaldan dunyo miqyosida serquyosh zaminimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavotlarga bo`lgan talab ancha yuqori bo`lgan va bugungi kunda ushbu sohaga qaratilayotgan yuksak e`tibor natijasida Respublikaning meva-sabzavot eksport qiluvchi davlatlarining soni 80 tadan ko`proqni tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-sonli «O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni yuzasidan muhim vazifalar belgilangan.

Baqlajonning kompleks qimmatli xo'jalik belgilariga ega yangi nav va duragaylarini yaratishda kasalliklarga chidamli, onalik gullari ko'p, meva sifati yuqori va hosildor bo'lgan namunalarni seleksiya jarayoniga jalb qilish muhim hisoblanadi.

Tajriba materiali va uslublari.

Tajriba Toshkent viloyati O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutining tajriba maydonida o'tkazildi. Tadqiqot obyekti sifatida kolleksiyasida saqlanayotgan, kelib chiqishi turlicha bo'lgan, baqlajon namunalari tanlandi (jumladan, "Бейрутский длинный" – (Сурия), "Бласк Уйиант" – (Италия) va boshqalar). Urug'lar issiqxonaga 2024-yil 13-mart kuni ekildi, ko'chatlar 22-25 mart kunlari unib chiqdi va 7-may kuni ochiq dalaga ko'chirildi. Tajriba uch martalik takrorlarda o'tkazildi. O'simliklarning gullash, meva tugish, hosilga kirish muddati va hosildorligi qayd etildi. Ma'lumotlar statistik tahlil usullari asosida qayta ishlanib, o'rtacha ko'rsatkichlar chiqarildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida baqlajonning 27 ta nav namunalari ularning o'simliklari, gullari, mevalari ildizi, poya va barglari olingan.

Tadqiqotlar kolleksiya nav namunalari o'rganish «Методическими указаниями по изучению и поддержанию мировой

коллекции огурца (ВИР)» bo'yicha, dastlabki va tanlov nav sinovi esa - «Методикой государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. (выпуск 4. Картофель, овощные и бахчевые культуры)» talablari bo'yicha o'tkazildi. Kasalliklarga chidamliligini aniqlashda «Методическими указаниями по селекции огурца (ВНИИССОК)» usuli bo'yicha o'tkazildi.

Tajriba natijalari. Tadqiqotlarda o'rganilayotgan nav va namunalarning urug'larini unib chiqishini boshlanishi 9-12 kunda bo'ldi. O'rtacha hosildorlik ko'rsatkichi 23,0 t/ga dan 32,0 t/ga cha, erta pishar navlarda yuqori bo'lib, bu ularning genetik jihatdan erta hosil berish xususiyatiga ega ekanini ko'rsatadi. 2024-yil vegetatsiya davrida Toshkent viloyatidagi O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutida o'tkazilgan tajribalar davomida 27 ta baqlajon navi va namunalarning o'sish, rivojlanish hamda hosilga kirish bosqichlari kuzatildi. Tajribada har bir namunaga issiqxonada ekish sanasi bir xil - 13 mart 2024-yil bo'lib, o'simliklarning unib chiqish, gullash va meva tugish bosqichlari boshlanishi (10%) va to'liq (75%) ko'rsatkichlar asosida qayd etildi.

Ko'pchilik namunalar 22-25 mart kunlari unib chiqishni boshlagan. Eng erta unib chiqqan navlar - Charnung-I, Fullness, Soo778 IS0030, IS02252 (Tayvan), shuningdek Местный (Siriya) navlari bo'lib, ular 21 martda unib chiqishni boshlagan. Bu navlar o'rtacha 8 kun ichida unib chiqib, yuqori unuvchanlik ko'rsatkichini namoyon etgan. Aksincha, Villatte lorgul (Fransiya) va Местный (O'zbekiston)

namunalarining unib chiqishi 24–26 mart kunlari kuzatilib, nisbatan sust unib chiqish bilan farqlangan.

Ochiq dalaga ko'chirilgan ko'chatlar 7 may kuni o'tqazilgach, gullash bosqichi turli navlarda 1 iyundan 24 iyungacha davom etgan. Eng erta gullagan navlar — Ivadiae1 (Fransiya), Black Uyiant (Italiya), Cydplant White hative (Koreya) hamda Anan-F1 (Fransiya) bo'lib, ular 1–4 iyun oralig'ida gullay boshlagan. Ushbu navlarning erta gullashi ularning erta pishar genetik xususiyatlariga egaligidan dalolat beradi.

Eng kech gullagan navlar esa Местный (O'zbekiston) va Местный (Siriya) bo'lib, ularning gullash davri 24–28 iyun oralig'ida kuzatilgan.

Tajriba natijalariga ko'ra, baqlajon namunalarida meva tugish bosqichi gullashdan taxminan 10–14 kundan so'ng boshlangan. Eng erta meva tugishni namoyon etgan navlar quyidagilar:

Ivadiae1 (Fransiya) - 15.06

Fullness (Tayvan) - 13.06

Wagaoku pauend purple (Yaponiya) - 16.06

Black Uyiant (Italiya) - 24.06

Cydplant White hative (Koreya) - 24.06

Bu navlarda erta meva tugish va pishish kuzatilgan bo'lib, ular erta hosilga kiruvchi guruh sifatida ajratildi.

Ayniqsa Ivadiae1 va Fullness navlari o'zining tez rivojlanish sur'ati, moslashuvchanligi va erta pisharligi bilan ajralib turadi.

Eng kech meva tugish esa Местный (O'zbekiston) va Местный (Siriya) navlarida qayd etilgan bo'lib, ular 24 iyundan 8 avgustgacha meva tugishni davom ettirgan. Bu esa ularning o'rta-kech pishar navlar turkumiga kirishini ko'rsatadi.

Fenologik kuzatuv natijalariga ko'ra: Tayvan, Fransiya va Koreya kelib chiqishidagi navlar, ayniqsa Ivadiae1, Fullness, Cydplant White hative - erta pishar, hosilga tez kiruvchi namunalar sifatida tavsiya etilishi mumkin.

1 -jadval. Baqlajon namunalarining fenologik ko'rsatgichlari

№	Nomi	Kelib chiqishi	Unib chiqishi		Ochiq dalaga ekish	Gullashi		Meva tugishi		Bir dona meva vazni (g).
			10%	75%		10%	75%	10%	75%	
st	Parizod	O'zbekiston	22.03	25.03	7.05	10.06	17.06	25.06	5.07	330,0
1	Бейрутский длинный	Suriya	23.03	25.03	7.05	2.06	6.06	19.06	27.06	340,0
2	Black Uyiant	Italiya	23.03	25.03	7.05	1.06	5.06	24.06	3.07	160,4
3	Villatte lorgul	Fransiya	24.03	27.03	7.05	10.06	18.06	25.06	4.07	210,5
4	Фиалетовый	Iran	23.03	25.03	7.05	3.06	9.06	26.06	6.07	165,0
5	Cydplant White hative	Korea	23.03	25.03	7.05	1.06	5.06	24.06	3.07	143,9

6	Anan-F1	Fransiya	22.03	24.03	7.05	1.06	4.06	27.06	8.07	200,0
7	Ivadiae1 (A,3)	Fransiya	22.03	25.03	7.05	1.06	3.06	15.06	24.06	169,7
8	Charnung -I	Tayvan	21.03	23.03	7.05	10.06	17.06	23.06	4.07	128,2
9	Fullness	Tayvan	21.03	23.03	7.05	2.06	6.06	13.06	21.06	156,3
10	Sooo23	Tayvan	22.03	25.03	7.05	8.06	15.06	23.06	6.07	166,0
11	Sooo658	Tayvan	22.03	25.03	7.05	6.06	12.06	20.06	1.07	132,7
12	Sooo735	Tayvan	23.03	25.03	7.05	18.06	24.06	28.06	8.07	310,6
13	Wagaoku pauend purpte	Yaponiya	22.03	25.03	7.05	2.06	8.06	16.06	22.06	223,0
14	K-7-Newyork umprvkd spenefes	SSHA	22.03	25.03	7.05	4.06	12.06	21.06	2.07	120,9
15	Алмаз	Kirgiziya	22.03	24.03	7.05	7.06	17.06	26.06	7.07	295,1
16	Soo658 Iso1636	Tayvan	22.03	25.03	7.05	8.06	20.06	26.06	4.07	190,7
17	IS02252	Tayvan	21.03	23.03	7.05	6.06	21.06	27.06	8.07	310,1
18	Soo778 IS0030	Tayvan	21.03	23.03	7.05	10.06	20.06	24.06	4.07	145,3
19	Умид (экс)	Uzbekistan	22.03	25.03	7.05	19.06	24.06	29.06	8.07	125,2
20	Местный	Siriya	21.03	23.03	7.05	12.06	24.06	28.06	8.07	310,0
st	Parizod	O'zbekiston	22.03	25.03	7.05	10.06	17.06	25.06	4.07	328,5
21	Б-Н	Fransiya	22.03	25.03	7.05	6.06	11.06	20.06	2.07	230,4
22	Б-Н	Irok	23.03	26.03	7.05	6.06	14.06	21.06	30.06	190,0
23	Местный	Uzbekistan	23.03	26.03	7.05	12.06	21.06	24.06	6.07	170,0
24	Б-Н	Uzbekistan	22.03	25.03	7.05	11.06	20.06	27.06	6.07	295,0
25	Болгария	Simf op,st	22.03	25.03	7.05	16.06	22.06	28.06	4.07	115,1
26	Б-Н	Y.Z.Afrika	22.03	26.03	7.05	4.06	11.06	24.06	6.07	115,7
27	Местный	Uzbekistan	24.03	26.03	7.05	28.06	6.07	24.07	6.08	245,3

Izoh: Barcha baqlajon navlari issiqxonaga 13.03.2024 da ekilgan

Suriya, O'zbekiston va Yaponiyadan O'tkazilgan tajribalar natijasida olingan navlar nisbatan kech pishar, ammo o'rganilgan 27 ta baqlajon namunalarning meva sifati va miqdori jihatidan istiqbolli fenologik kuzatuvlari ularning biologik bo'lishi mumkin. xususiyatlari, kelib chiqish mamlakati va

genetik potensialiga qarab farq qilganini ko'rsatdi. Issiqxonada unib chiqish muddati 10–12 kunni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'rtacha harorat 22–25 °C bo'lgan sharoitda eng maqbul natija deb baholandi. Eng erta unib chiqqan namunalar Charnung-I, Fullness, IS02252 va Soo778 IS0030 bo'lib, ular 21–23 mart kunlari unib chiqqan. Bu esa ularning erta pishar genotiplarga mansubligini ko'rsatadi.

Ochiq dalagako'chirilgach, gullash va meva tugish bosqichlari orasida ham sezilarli farqlar kuzatildi. Tayvan va Fransiya manbalaridan olingan namunalar erta gullab, 15–20 kun avval hosilga kirgan. Masalan, Fullness, Ivadiae1 (A,3) va Soo658 namunalarida gullash 2–6 iyun kunlari boshlangan, meva tugish esa 13–24 iyun oralig'ida kuzatilgan. Shu bois, bu navlar erta pishar seleksiya uchun istiqbolli manbalar sifatida tavsiya etiladi.

Aksincha, mahalliy (O'zbekiston, Suriya) va ayrim Evropa (Bolgar, Italiya) namunalarida gullash muddati nisbatan kech – 10–20 iyunga to'g'ri kelgan, bu esa ularning o'rtapishar yoki kechpishar guruhga mansubligini bildiradi. Bu farqlar genotip va ekologik moslashuv xususiyatlariga bog'liq.

So'nggi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar (Abdullayev va boshq., 2022; Kim et al., 2023; Singh et al., 2024) ham erta pishar baqlajon navlarini yaratishda Tayvan, Yaponiya va Fransiya kelib chiqishli genetik manbalar yuqori samaradorlik ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ularning o'sish davri qisqa, hosildorligi yuqori va issiqlikka chidamlilik darajasi kuchli.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, "Fullness", "Soo658", "Ivadiae1 (A,3)" navlari

Toshkent viloyati iqlim sharoitida erta hosilga kirib, 95–105 kun ichida to'liq vegetatsiya davrini yakunladi. Bunday xususiyatlar seleksiya jarayonida erta pishar, yuqori hosildor va iqlimga mos genotiplarni tanlash imkonini beradi.

Shuningdek, "Umid (eks)" va "Mahalliy (O'zbekiston)" namunalarining erta gullashi va meva tugishdagi barqarorligi ularning moslashtirilgan genofondga egaligini ko'rsatadi. Bu esa kelgusida ularni hududiy seleksiya ishlarida mahalliy manba sifatida qo'llash imkoniyatini beradi.

Xulosa. Tajriba natijalari asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, Toshkent viloyatida o'stirilgan baqlajon namunalarining fenologik fazalari iqlim sharoitiga moslashgan holda farqlanadi. Eng erta pishar va seleksiya uchun istiqbolli navlar sifatida "Бейрутский длинный" hamda "Black Uyiant" ajratib olindi. Ushbu navlar keyingi seleksiya ishlarida erta pishish belgilarini o'tkazuvchi genetik manba sifatida qo'llanishi mumkin.

So'nggi ilmiy adabiyotlar va dala tajribalari natijalari asosida aytish mumkinki, erta hosil beruvchi navlarni aniqlash seleksiya jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Shu jihatdan, Tayvan va Fransiya manbalariga mansub genotiplar (ayniqsa Fullness va Soo658) Toshkent viloyati sharoitida erta pishar navlarni yaratishda istiqbolli material sifatida baholanishi mumkin.

Baqlajonni o'rganilgan kolleksion nav namunalarida mevasining tezpisharligi bilan «Бейрутский длинный, Ivadiae1 (A,3), Fullness (Тайван), va Wagaoku rauend purpte (Япония)

» namunalari ajralib turdi. Uning 75% mevalari ko'ra o'rganilgan «Бейрутский длинный, 25 oktabrda pisha boshlaganligi kuzatildi. Eng Ivadiae1 (A,3), Wagaoku pauend purpte va kech pishish «Местный (O'zbekiston), Almaz ISO 2252» namunalaridan Toshkent viloyati (Kirgiziya), ISO 2252» namunalari qayd sharoiti uchun yangi navlar yaratishda qimmatli etildi –5 noyabr. Qolgan namunalarning pishish xo'jalik belgilari bo'yicha boshlang'ich manba muddati oraliq o'rin egalladi. Tadqiqotlarga sifatida tadbiiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot institutlari ma'lumotlari, 2024.
2. Qodirov Sh., To'xtayev A. "Sabzavot ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi", Toshkent, 2021.
3. FAO. Plant Genetic Resources for Food and Agriculture, Rome, 2020.
4. Abdullayev A. M., Rahimov S. U., & Tursunova, M. K. (2022). Baqlajon (*Solanum melongena* L.) navlarining o'sish va rivojlanishiga iqlim sharoitining ta'siri. O'simlikshunoslik va seleksiya jurnali, 2(3), 45–50. (Toshkent: O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti nashri)
5. Kim, J. H., Lee, S. H., & Park, H. J. (2023). Evaluation of early-maturing eggplant (*Solanum melongena* L.) genotypes for yield and heat tolerance under greenhouse conditions. Horticultural Science & Technology, 41(6), 812–820.
6. Singh R., Meena N., & Kumar P. (2024). Performance of improved eggplant varieties under different agro-climatic zones of Asia. Journal of Applied Agricultural Research, 16(1), 27–36.
7. Chen W. Y., & Liu C. T. (2023). Selection of high-yield and early-fruited eggplant lines in subtropical environments. International Journal of Vegetable Science, 29(2), 198–210.
8. Sato T., & Yamaguchi A. (2022). Comparative analysis of Japanese and Taiwanese eggplant cultivars for early flowering and fruit setting traits. Plant Breeding and Biotechnology, 12(4), 277–285.
9. Rahmonov B. E., & Karimov D. N. (2021). Baqlajonning morfo-biologik xususiyatlarini o'rganish va istiqbolli namunalarni tanlash. Toshkent qishloq xo'jaligi ilmiy jurnali, 4(1), 59–64.
10. FAO (2023). Eggplant genetic resources and breeding for climate resilience. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome.
11. Yuldashv H. R., & Rasulova, D. A. (2020). O'zbekiston sharoitida baqlajon navlarini sinovdan o'tkazish natijalari. Agrobiologiya jurnali, 7(2), 33–38.

ТАБИАТГА КЎМАК – ЎЗИМИЗГА КЎМАК!

Доноларнинг “Яхшидан боғ – ёмондан доғ қолади” сўзлари яхшилик қилишни ҳаётдаги олий мақсади деб билган ҳар бир ватандошимизни беътибор қолдирмайди. Лекин, савол туғилади, қандай қилиб боғ қолдирамиз???. Бунинг жавоби ҳам доно халқимизнинг ҳикматларида берилган: “Ҳашар – элга ярашар”.

Келажак авлодга тухфа сифатида, ватанимиз бўйлаб “ЯШИЛ МАКОН” боғларини барпо этиш ишлари бошланди.

2025 йилнинг 8 ноябрь санасида Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Тошкент вилояти Бандлик бошқармаси масъул ходимлари ҳам “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида Тошкент вилоятининг Оҳангарон туманида кузги кўчат экишга бағишланган ҳашар тадбирларида фаол иштирок этишди ва жонажон Ўзбекистонимизнинг яшилликка бурканишига ўз ҳиссаларини қўшишди. Ҳашар доирасида ариқлар очилиб, 3 гектар ер майдонига турли хилдаги манзарали кўчатлар экилиб, кенг кўламли

ободонлаштириш ишлари олиб борилди.

Мен ҳам улар қатори қўлда кетмон билан ариқ олдим, кўчат экдим. Табиат тикланишига оз бўлсада ҳисса қўшиш билан бирга, тоза ҳаводан тўйиб-тўйиб нафас олдим. Ушбу ҳашарда ўз ихтиёрим билан иштирок этиб, бугун табиатга яхшилик қилсак, эртага у бизга бу яхшилигимизни ортиғи билан қайтаришига ишончим комил бўлди.

Энг эътиборлиси, мазкур ҳашар тадбирида Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги боғи ташкил этилди. Боғни яратиш чоғи буюк шоиримиз Эркин Воҳидовнинг қуйидаги гўзал сатрлари ёдга тушди:


**Сендан фарзандингга боғ қолсин, эй дўст,
Боғинг Ватан деган ном олсин, эй дўст.**

Шоирнинг бу даъватига Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги жамоаси бир ёқадан бош чиқариб, ҳашар орқали жавоб берганлиги қувонарли, албатта.

Алишер Тоиров,

Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси,
Камбағалликни қисқартириш ва
бандлик вазирлиги масъул ходими.

“БИЗНИ УЙҒОТУР САДОЛАР, САДОЛАРГА БИЗ – ФИДОЛАР”



Ўзбекистонда хизмат кўрсатган журналист, таниқли шоир Ғулом Мирзонинг яқинда нашрдан чиққан “Сайланма (Эй ой!)” номли шеърий тўпланини қўлимга олар эканман, ўқиган сари ўқигим келарди.

Шунинг учун бошқа ишларни четга суриб, бор вужудим билан китобни ўқишга киришиб кетдим.

Ғуломжон ака билан қарийб чорак асрдан бери таниш бўлганлигим учун шоирнинг ҳар бир ёзган сатри мен учун яқин, тушунарли, қадрдон. Шунинг учун китобни қунт билан ўқиб, шоир қувонган пайтда мен ҳам қувонар, ғам чеккан пайтда эса ғамга чўқардим...

Китобда муаллифнинг асосан сўнгги йилларда ёзилган шеърлари жамланган.

Шунингдек, турли йилларда нашр этилган “Таайюн рақамлари”, “Ойпараст дил”, “Отамнинг боғи”, “Қалб томчилари”, “Офтобга қайтаман”, “Унутилган хур”, “Яхши ҳам сиз борсиз” каби шеърий тўпламларидан жой олган сара ижод маҳсулларидан айрим намуналар ҳам киритилган.

Китоб машҳур ёзувчи ва шоирлар, адабиётшунос олимлардан иборат нуфузли Таҳрир ҳайъати томонидан маъқулланган ва нашрга тавсия этилган. Масъул муҳаррир таниқли шоир Шоди Отамурод. Сайланма Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси ҳомийлигида чоп этилган.

Эътиборлиси, шоирнинг ушбу шеърий тўпламига кирган шеърлар мантиқан бир-бирини тўлдириши, мазмунан бир бирини бойитиб, тобора чуқурлашиб боришидир. Шоир шеър ёзишда ўзбек шеъриятининг барча имконият ва турларидан фойдаланганлиги ҳам эътиборга лойиқ.

“Сайланма”га кирган шеърларни ўқир экансиз, шоир қандайдир битта мавзуда тўхтаб қолмаганлиги, балки кенг миқёсли мавзуларни камраб олганлигига амин бўласиз. Ота-онага меҳр, севги-муҳаббат, табиатни асраш, фасллар ва бошқа турли-туман мавзулардаги шеърлар ўзига хос ёндашуви ҳамда латиф ифода услуби билан китобхонни асло бефарқ қолдирмайди.

Китобда ранг-баранг шеърларнинг йигирмадан ортиқ фаслга тақсимлангани

мутолаани янада осонлаштиради, деб ўйлайман. Айниқса, “Отамнинг боғи” фаслидаги шеърларда акс этган табиатга эътибор, атроф-муҳитга ғамхўрлик, экологияни асраб-авайлаш руҳияти ўзининг долзарблиги ҳамда ҳаётийлиги билан алоҳида диққатни тортади.

Эл назарига тушган таниқли шоир Ғулом Мирзонинг шеърлари халқимиз томонидан ҳамшиша севиб ўқилади, бинобарин, китоблари дўконларда қалашиб ётганини кўрмайсиз. Шоирни янги китоби билан муборакбод этар эканман унга узоқ ва баракали умр, сиҳат-саломатлик, ижодида янгидан-янги зафарлар тилаб қоламан!

Азамат Тоиров,

Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси
аъзоси.

ЭКОЛОГИК ТАЗАРРУ

Қарасам ортдаги изларни,
кўп экан эзилган чумоли.
Худойим, кечиргин бизларни –
гуноҳлардан эмасмиз холи.

Чўчитган Сулаймон шоҳни ҳам,
шу митти жонларнинг уволи.
Ў, бизлар анчайин муттаҳам.
Вў, бизга не бўпти чумоли.

Ҳаш-паш дейилгунча умрни
юриб, кўриб, ўриб тугатдик.
Гоҳ инини пойлаб қумрининг,
полапонин ерга қулатдик.

Гоҳ бингақлар уясин бузиб,
йиққан болин яладик, мазза;

теграмизда шўрликлар тўзиб,
санчгандир ҳам неча бор найза.

Ушлаганмиз сариқилонни –
ярми қўлда, ярми чуқурда;
ёрдамга чақирган осмонни
ва нажот тилагандир ердан?

У – узун, захари йўқ эди;
одамга зарари йўқ эди.
Ҳимояга келди еру кўк;
бизларга бормикан омонлик.

...Саёзлашди аввал дарёлар,
чўлга дўнди сўнг денгизимиз.
Энди қаҳат тоза ҳаволар,
эрир милён йиллик музимиз...

Ниначининг уздик қанотин,
чигирткани этдик беоёқ.
Ғаллазорни пайҳонлар этиб,
ҳовуч-ҳовуч тутдик жизиллоқ.

Тошбақани тўнкардик, вале
думсиз қочди калтакесаклар.
Мумкинмикан барин айтгали?
Шафқатсиз-да бизнинг эртақлар.

Қамишзорга ўт кўйдик бир кун,
ёнди ҳатто сув юзаси ҳам.
Паррандалар сўрадимиз хун,
даррандалар ичдими қасам?..

Эсингдами зовурнинг бўйи,
қурбақалар шўри қурганди;
ёқмабмиди жўр бўлган куйи –
таёқ билан роса ургандик.

Тангрим, энди урма бизларни,
англатганинг бўлсин сабоқлар.
Қарасам ортимда изларни:
гуноҳлар, гуноҳлар, гуноҳлар...

*

Боғ ичра экдинг ниҳол,
ниҳолинг севар сени.
Шунда боғбон бўлиб қол,
шу ҳовлинг севар сени.

Ер-мулкка тўлаб солиғ,
ўталар фуқаролиғ;
ёлғизу, тилар соғлиғ –
гирдолинг севар сени.

Шамолда қалқиб турар,
меваси балқиб турар;
куну тун алқаб турар –
зардолинг севар сени.

Олмалар қўша-қўша,
анор мева тугмиша;
ҳадемай узум пишар,
қаролинг севар сени.

Шиғил бўлгай писталар,
тўнга ҳам тик кисталар.
Ром этар оқисталаб,
шу ҳовлинг севар сени...

*

Майналар ҳеч гапга кирмайин,
дудбуронга қуриб олди ин;
энди уни ишлатиб бўлмас,
дуд ютамиз таом ила, бас.

Мана, навбат мусичамизга –
эга чиқди ошхонамизга.
Овқат қилиш имкони қани?
Ёпиб бўлмас ҳатто ойнани.

Жоним, манзар тўсиғин ўпиб,
чарх урмоқда гала кабутар;
Жўжабирдек жон ахир улар,
кетамизми бошқа уй топиб...

*

Отамнинг ҳовлиси –
супа, полиз ва боғи билан,
йўнғичқазор ўтлоғи билан,
шўра, жинжак, янтоғи билан –
ҳар қарич, ҳар қадоғи билан
юрагимда қондек ардоқли...

ДАРАХТ

Озроқ елса шабада,
зикрлари беҳисоб.
Хивчину шох-шаббада
шитирлари беҳисоб.

Ёмғир ювса мабодо,
ҳузурлари беҳисоб.
Новдаларин дуога
чўзурлари беҳисоб.

Япроқдек бир қалбимда
шукронам қанча, билмам.
Лек юзлаб юрак – баргда
шукурлари беҳисоб.

Ғулом МИРЗО

ШАҲРИМИЗНИНГ БИРИНЧИ РАҚАМЛИ КИТОБХОНИ 65 ЁШДА



Таниқли устоз журналист Абдусаид Кўчимов Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхонамиз директори Умида Тешабоевага тухфа этган китобида битилган: “Мамлакатимизнинг биринчи рақамли китобхони Умида Тешабоевага Муаллифдан.” Устознинг топқирлигига тасанно айтганча, ушбугўзал эътирофни яна бир кутубхоначилик касбининг фидойиси, Тошкент шаҳар “Билим” ахборот-кутубхона маркази директори Ҳафиза Каримовага

нисбатан “Тошкент шаҳримизнинг биринчи рақамли китобхони” тарзида билдирсам, ўйлайманки хато бўлмайди.

Кўплаб кутубхоначиларга устоз ҳисобланган Ҳафиза Каримова бу йил муборак 65 ёшни қаршилади. Шу муносабат билан 2025 йил 31 октябрь куни Тошкент шаҳри Чилонзор тумани ҳокимияти ташаббуси билан “Замонавий аёл – илм ва маърифат асосчиси” мавзусида маънавий-маърифий тадбир ўтказилди. Албатта, бу тадбир ташкиллаштирилиши бежизга эмас. Ҳафиза Қўлдошевна бугунги кундаги энг фаол ва халқ эътиборига тушган ўзбек аёлларидан биридир.

Кутубхоначилик касбида юзлаб шогирдларни тарбиялаган устоз, “Мўътабар аёл” кўкрак нишони соҳиби.

Тадбирда Чилонзор тумани ҳокими ўринбосари, Оила ва хотин-қизлар бўлими бошлиғи Гулнора Тўлаганова, «Нуроний» жамғармасининг Чилонзор тумани бўлими раҳбари Тоҳир Каримов, Ўзбекистонда

хизмат кўрсатган артист Шарофат Тожибоева, таниқли шоира Моҳизодабегим, Ўзбекистон Ёзувчилар ва Журналистлар уюшмалари аъзоси Маҳмудхон Тоиров, шоир ва ёзувчилар, кутубхоначилар, оила аъзолари жам бўлишди.



Тадбирда сўз олган юртдошларимиз Ҳафиза Каримовани муборак сана билан қутлаб, кутубхоначилик соҳасига қўшган улкан ҳиссасини юқори баҳолашди. Айниқса, таниқли ижодкор Хамид Қахрамоновнинг қуйидаги сўзлари эътиборга лойиқ: “Мен андижонлик оналарни қахрамон ҳисоблайман. Улар ўзбек халқига Нодирабегимни, Турсуной Содиковаларни ва яна кўплаб эл ардоғидаги аёлларни тарбиялаб беришган. Шубҳасиз, улар қаторига Ҳафизахоннинг ҳам онажонисини киритган бўлардим”.

“Муқумий” театридан ташриф буюрган артист халқ оғзаки ижоди намуналаридан куйлаб, ёш раққоса ўз рақси билан, таниқли артист, “Бобур” видеофильмидаги роли билан халқ назарига тушган Шарофат Тожибоева жонли кўшиқ ижро этиб, шоира Моҳизодабегим ўз қаламига мансуб шеърларидан ўқиб йиғилганлар олқишига сазовор бўлишди. Мухтасар ёзсам, тадбир баҳонасида Ҳафизахон опани қайтадан кашф этдим.



Таниқли кутубхоначи Ҳафиза Қўлдошева Каримовани таваллуд топган кунлари билан яна бир бора қутлаб, келгусида амалга оширадиган маънавий-маърифий ишларида омад ёр бўлишини тилайман!

Алишер Тоиров,

Ўзбекистон Журналистлар уюшмаси аъзоси.

КУЗГИ БУҒДОЙ ТАРКИБИДА ОЗИҚА ЭЛЕМЕНТЛАР МИҚДОРИ

Атоев Бахтиёр Қўлдошевич,

катта илмий ходим,
қишлоқ хўжалиги фанлари доктори,
Тупроқшунослик ва агрохимёвий тадқиқотлар институти

Аннотация. Мақоллада суғориладиган сур тусли қўнғир-ўтлоқи ва суғориладиган ўтлоқи тупроқлар шароитида, кузги буғдойнинг ўсиши, ривожланиши ва фермер хужаликларида ишлаб чиқариш тажрибасида фенологик кузатув натижалари келтирилган. Суғориладиган ўтлоқи тупроқларда вегетациянинг бошидан охирига қадар кузги буғдой ўсимлиги таркибида озиқа элементлар миқдори камайиб борган. Азотни фосфор ва калийга нисбатан камроқ ўзлаштирган. Поя-барг, дон, қобиклари кўпроқ фосфор ва калийни яхши ўзлаштирган.

Таянч сўзлар: суғориладиган сур тусли қўнғир-ўтлоқи, ўтлоқи тупроқлар, азот, фосфор, калий, тупланиш, илдиз-анғиз, поя-барг (сомон).

Кириш. Кейинги йилларда тупроқлар камайиб кетмоқда, буни олдини олмас табиий ва сунъий омиллар таъсирида эканмиз, йилдан-йилга тупроқларимизнинг деградацияга учрамоқда. мелиоратив-экологик ҳолати ёмонлашаверади

Тупроқ деградациясини олдини олишда ва унумсиз, чўлланишларни ҳосил қилади. - органик деҳқончилик юритишнинг аҳамияти Айрим тупроқларимизда чиринди(гумус)нинг катта. Худди шунингдек, бутун дунё ўз миқдори 0,4-0,5 фоизгача тушиб кетмоқда.

диққатини тупроқда органикани кўпайтириш Органика кам бўлган тупроқларда, ва органик деҳқончиликни ривожлантиришга ўсимликлар яхши ривожлана олмайди, қаратган. Чунки, тупроқларимизда органика ҳосилдорлик ҳам пасайиб кетади. Айниқса,

суғориладиган тупроқларда янги турдаги органик ўғитларни тайёрлаш ва қўллашнинг замонавий, инновацион агротехнологияларини ишлаб чиқишимиз зарур. Шунда тупроқ эрозияси ва деградациясини олдини олишга ёрдам берган бўламиз [1,2].

Тадқиқот объекти ва услубияти.

Тадқиқотлар Навоий вилояти Қизилтепа туманининг суғориладиган сур тусли қўнғир-ўтлоқи ва суғориладиган ўтлоқи тупроқларида ўтказилган[3]. Тажриба ўтказиш, биометрик кузатувлар олиб бориш, тупроқ, ўсимлик намуналари олиш уларнинг таркибида азот, фосфор, калийнинг ҳар хил бирикмалари миқдорини аниқлаш “Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии” қўлланмасида берилган усуллар билан амалга оширилди [5]. Тажриба натижаларини ишончлилик даражаси Б.А.Доспеховнинг “Методика полевых опытов” китобида берилган математик усул билан аниқланди [6].

Тадқиқот натижалари ва уларнинг муҳокамаси. Тадқиқотлар Навоий вилояти Қизилтепа кузги буғдой билан ишлаб чиқаришга жорий қилиниб 12 та фермер хўжалигида жами 247,7 га майдонда тажрибалар олиб борилди. Бу тупроқлар чўл зонасининг Маликчўл худуди тупроқлари ҳисобланади. [4]. Ҳар иккала ўрганилган тупроқларда ҳам 10 тонна/га чиқинди, қолдиқлар ва (соф ҳолда) N-154 P-112 K-35 кг/га ўғит меъёрлари қўлланилган. Олинган натижалар 1-жадвалда келтирилган. Экиш даврида қўлланиладиган азотли, фосфорли

ва калийли ўғитлар қўлланилган. Кейин кузи буғдойнинг тўлиқ униб-чиқиши кузатилган. Кузги буғдой ўсиши ва ривожланишининг ҳар хил фазаларида фенологик кузатувлар олиб борилган, озиқлантирилган, суғорилган ва тупроқ ва ўсимлик намуналари олиниб, кимёвий таҳлиллар қилинган. Суғориладиган ўтлоқи тупроқларда “Оқработ юлдузи” фермер хўжалигида тупланиш даврида илдиз-анғиз қисмида N-0,67%, P-2,28%, K-3,50% ни курсатган бўлса, найчалаш даврида бу кўрсаткич N-1,26%, P-1,41%, K-1,63% ни кўрсатилган. Икки йиллик тажриба маълумотлари солиштирганимизда тупланиш даврида илдиз-анғиз қисмида N-0,64 %, P-1,95%, K-2,69 %, фарқ билан кузатилган.

Шунингдек, биз озиқа элементлар таъсирида тупроқ хоссалари ҳамда экин нави, унинг ўсиши, ривожланиши ўрганилган. Кузги буғдой уруғининг энг яхши униб чиқиши, майсалаши, тупланиши, найчалаши, ўрганилган. Лекин ўсиши ва ривожланишида фарқлар кузатилган.

Тупланиш даврида поя-барг (сомон) қисмида N-0,98%, P-2,15%, K-5,40% ни курсатган бўлса, найчалаш даврида поя-барг (сомон) қисмида бу кўрсаткич N-1,50%, P-1,47%, K-2,32% ни кўрсатган. Икки йиллик тажрибамизга солиштирганимизда тупланиш даврида поя-барг (сомон) қисмида N-0,64 %, P-1,83%, K-4,77 %, ни фарқ билан кузатилди. найчалаш даврида поя-барг (сомон) қисмида N-1,10%, P-1,00%, K-2,21% билан фарқ қилган (1-жадвал).

1-жадвал.

Ишлаб-чиқариш тажрибасида кузги буғдойнинг вегетация даврида ўсимлик органларида азот, фосфор ва калий миқдорлари, % (2023 йил).

№	И-ч тажрибалари ўтказилган фермер хўжаликлар	Ўғитларнинг йиллик меъёри, кг/га	Тупланиш даврида						Найчалаш даврида															
			Илдиз-анғиз			Поя-барг (сомон)			Илдиз-анғиз			Поя-барг (сомон)												
			N	P	K	N	P	K	N	P	K	N	P	K										
суғориладиган сур тусли қўнғир-ўтлоқи тупроқлар																								
1	“Феруз Шухрат Амиршоҳ”	2 т/га гўнглр + N-220 P-160 K-50	0,48	1,99	3,30	0,68	1,79	3,10	1,00	1,30	1,40	1,32	1,33	216										
		10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,71	2,40	3,54	0,87	2,06	6,50	1,30	2,00	2,04	1,92	1,51	302										
2	“Темир қанот пахтақори”	2 т/га гўнглр + N-220 P-160 K-50	0,45	1,96	3,30	0,66	1,76	3,06	0,99	1,29	1,36	1,30	1,21	212										
		10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,68	2,36	3,51	0,85	2,00	6,41	1,25	1,99	2,01	1,89	1,49	300										
3	“Узилишкент Файз”	2 т/га гўнглр + N-220 P-160 K-50	0,61	2,10	3,42	0,79	1,91	3,20	1,10	1,35	1,50	1,41	1,43	225										
		10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,78	2,55	3,70	0,99	2,25	6,70	1,35	2,10	2,15	2,00	1,65	318										
4	“Нормурод Рахмонов”	2 т/га гўнглр + N-220 P-160 K-50	0,59	2,06	3,40	0,76	1,85	6,16	1,06	1,33	1,45	1,40	1,41	223										
		10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,76	2,51	3,65	0,96	2,20	6,65	1,33	2,06	2,11	1,99	1,61	310										
5	“Ҳикмат Қосим орзуси”	2 т/га гўнглр + N-220 P-160 K-50	0,50	2,00	3,36	0,71	1,81	3,12	1,02	1,31	1,42	1,35	1,38	220										
		10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,75	2,46	3,60	0,91	2,20	6,61	1,32	2,04	2,09	1,95	1,54	306										

6	“Жамшид-2021”	2 т/га гўнглар + N-220 P-160 K-50 10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,42	1,93	3,20	0,60	1,71	3,00	0,96	1,25	1,33	1,28	1,20	210
			0,65	2,31	3,40	0,80	1,90	6,01	1,20	1,86	1,96	1,25	1,19	285
суғориладиган ўтлоқ турпуқлар														
1	“Оқработ юлдузи”	2 т/га гўнглар + N-220 P-160 K-50 10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,67	2,28	3,50	0,98	2,15	5,40	1,26	1,41	1,63	1,50	1,47	2,32
			0,78	2,80	3,90	1,13	2,60	7,41	1,68	2,00	2,04	2,00	1,60	3,75
2	“Қалай Азизон пахтакори”	2 т/га гўнглар + N-220 P-160 K-50 10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,62	2,21	3,41	0,96	2,10	5,36	1,21	1,35	1,56	1,46	1,49	2,78
			0,75	2,65	3,76	1,10	2,50	7,31	1,58	1,93	1,98	1,96	1,55	3,61
3	“Мавлоно Андоқий”	2 т/га гўнглар + N-220 P-160 K-50 10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,65	2,27	3,46	0,97	2,14	5,38	1,24	1,38	1,60	1,48	1,46	2,31
			0,76	2,69	3,81	1,12	2,56	7,36	1,61	1,96	2,01	1,98	1,56	3,71
4	“Тошработ тонги”	2 т/га гўнглар + N-220 P-160 K-50 10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,61	2,20	3,40	0,93	2,08	5,30	1,20	1,33	1,52	1,44	1,46	2,76
			0,73	2,60	3,71	1,06	2,44	7,28	1,55	1,90	1,96	1,936	1,51	3,56
5	“Обод турмуш толаси”	2 т/га гўнглар + N-220 P-160 K-50 10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,59	2,19	3,29	0,91	2,01	5,28	1,16	1,30	1,50	1,41	1,42	2,70
			0,71	2,59	3,76	1,02	2,40	7,26	1,50	1,88	1,91	1,90	1,50	3,51
6	“Қамронбек Моҳларбегим”	2 т/га гўнглар + N-220 P-160 K-50 10 т/га ч. ва қ + N-154 P-112 K-35	0,56	2,10	3,20	0,88	1,99	5,20	1,10	1,26	1,48	1,39	1,40	2,66
			0,66	2,50	3,65	0,98	2,35	7,21	1,46	1,46	1,89	1,86	1,46	3,48

Хулоса. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, ҳар бир тупроқ-иқлим шароити учун битта нав бир ҳил ўғит меъёрларида турли муддатларда униб-чиқиб майсаларнинг ривожланиши ҳам фарқ қилар экан.

Бунга сабаб тупроқ хосса-хусусиятлари, иқлим, озиқа миқдори ва бошқаларининг таъсири бўлган.

Тупроқнинг ҳайдалма қатламини компостга айлантириш туфайли, ўрганилган тупроқларнинг сув-физик, агрохимёвий хоссалари яхшиланган, тупроқда ва ўсимлик органларида озиқа элементлар миқдори меъёрида бўлиши кузги буғдойнинг ўсиши-ривожланиши ва ҳосилига ижобий таъсир кўрсатган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Сатторов Ж. Қолдиқ ва чиқиндиларнинг ҳар хил турларини ўғит сифатида ишлатиш. Республика илмий анжумани материаллари тўплами. Бухоро, 2006 й.
2. Атоев Б.Қ., Қайпназаров Ж.Ж. Тупроқда органика, макро ва микро элементларни кўпайтириш агротехнологияси// “Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журналининг “Агроилм” илмий иловаси журнали. -Тошкент, 12, 2022. №4.
3. Б.Қ.Атоев. Тупроқда табиий озиқа элементларни кўпайтиришнинг аҳамияти. O‘ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI- Ilmiy-amaliy j. 2024-14 200- б.
4. Б.Атоев., Б.Бобожонов. Тупроқнинг механик таркиби, сув-физик ва агрохимёвий хоссаларини ўзгариши. “Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” илмий журнали. 2024. 12-б.
5. Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии Издание 5-е.-Т.: 1977. -12-18 б.
6. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.: 1985. – С. 248-255.

ORGANIK O'G'ITLAR

Atoev Baxtiyor Qo'ldoshevich,

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodimi,
Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti, Toshkent

Annotatsiya. Tuproqda doimo o'zgarishlar boradi. Tuproq degradatsiyasiga tabiiy yoki antropogen omillar ta'sir ko'rsatadi. Tuproqda organika, makro va mikro elementlarni ko'paytirishda organik o'g'itlarni alohida o'rni bor. Organik o'g'itlar tuproq xossa xususiyatlarini yaxshilaydi. Tadqiqotlarda, chiqindi va qldiqlardan foydalanib, organik o'g'itlar tayyorlab tuproqning haydalma (0-30 sm) qatlamini kompostga aylantirish agrotexnologiyasi yaratilgan.

Tayanch so'zlar: sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproq, organika, oziqlantirish me'yori va muddatlari.

Kirish. Tuproq tarkibi, tuzilishi bir-biridan farq qiladi. Tuproqning sifati -bu haydalma qatlamning unumdorligi hisoblanadi.

Unda oziqa elementlar pastki qatlamlarga nisbatan mo'l bo'lib, o'simlik yaxshi o'sib rivojlanadi. Bugungi kunda tuproqlarimizda tabiiy oziqa elementlar pasayib ketmoqda.

Bu borada, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 iyunda «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 277-sonli qarorida yoki 2024 yil 13 fevraldagi «Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga

qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida»gi 71-son qarori, respublikamizning tuproqlarining degradatsiya, eroziyaga uchragan xudularini aniqlash, salbiy holatlarni oldini olishga qaratilgan va bu bo'yicha muhim vazifalar amalga oshirilmoqda[1 va 2].

Shuning uchun tuproq unumdorligini oshirishda, oziqa elementlar bilan boyitish va qishloq xo'jalik ekinlardan yuqori va sifatli hosil yetishtirishning ilmiy asoslangan yechimlarini topish dolzarb masalalardan hisoblanadi[3, 36 b].

Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqotlar Navoiy viloyati Qiziltepa tumanidagi sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar sharoitida o'tkazilgan.

Dala tajribalarini qo'yish, fenologik kuzatishlar, tuproq va o'simlik namunalari olish va kimyoviy tahlili, hosildorlikni aniqlash «Dala tajribalarini o'tqazish uslublari»[4, 132-139 b], «Metodika polevogo opyta» [5, 248-255 b] uslubiy qo'llanmasi asosida, tuproq namunalari kimyoviy tahlillari «Metody agroximicheskix analizov pochv i rasteniy Sredney Azii», [6, 12-18 b.] asosida o'rganilgan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Ma'lumki, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan halqni ta'minlash, har qanday mamlakatlar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri, buning uchun tuproqlar sof va doimo oziqaga boy bo'lishi kerak.

Gap shundaki, hozir agrotexnologiyalar qanchalik rivojlangan bo'lmasin, agar yer unumdor bo'lmasa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirib bo'lmaydi, ya'ni ko'zlangan hosilni olish mushkul.

Bugungi kunda soni tobora ortib borayotgan aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli miqdorda ta'minlash masalasi bizda qolaversa dunyoning barcha mamlakatlarida organik mahsulotlar yetishtirish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Ilmiy-amaliy tadqiqotlar 2020-2023 yillarga mo'ljallangan AM-PZ-201906218 "Ekin dalalarining o'zida chiqindi va qoldiqlar hisobidan organika, makro va mikro elementlarni ko'paytirish agrotexnologiyasini yaratish" amaliy loyihasi bo'yicha amalga oshirilgan. Uch yillik dala tadqiqotlar asosida muhim natijalarga erishilgan.

Tadqiqotlar sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda 5 variant 3 qaytariqda turli o'g'it fonida dala tajribalar o'tkazilgan. Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi yoki sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar juda ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsada, aynan shu xudud uchun ular genetik-geografik va ekologik meliorativ jihatdan hali ham atroflicha tahlil etilmagan. Sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibi bo'yicha yengil qumoqli.

Tuproqlar kam gumusli tuproqlar qatoriga kiradi. Tuproqda umumiy gumus miqdori 0,27-1,09 % gacha, azot miqdori 0,032-0,093 % gacha, fosfor miqdori 0,096-0,132 % gacha va kaliy miqdori 0,8-1,2 % gacha tebranadi. Azot bilan o'rtacha, fosfor va kaliy bilan o'rtachadan past ta'minlangan. Sizot suvlar sathini 1,6-2,0 metr atrofida ko'tarilgan. Quruq qoldiq miqdori 3,700 g/l. Tuproq va yer osti suvi xlorid-sul'fatli tuzlar bilan o'rtacha darajada sho'rlangan bo'lsa, sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibi bo'yicha o'rta qumoqli.

Tuproqda umumiy gumus miqdori 0,40-1,20 % gacha, azot miqdori 0,11-0,16 % gacha, fosfor miqdori 0,098-0,162 % gacha, kaliy miqdori 0,9-1,8 % gacha tebranib turadi. Azot, fosfor va kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan.

Sizot suvlar sathini 2,0-2,5 metr atrofida ko'tarilgan. Quruq qoldiq miqdori 1,900 g/l. Tuproq va yer osti suvi xlorid-sul'fatli tuzlar bilan kuchsiz darajada sho'rlanganligi aniqlangan. Organik o'g'itlar ta'sirida, kuzgi bug'doyning "Vassa" navi urug'ining eng yaxshi unib chiqishi yuqorida har ikkala o'rganilgan tuproqlar sharoitida ham 10 tonna/ga chiqindi, qoldiqlar va (sof holda) N154P112K35 kg/ga o'g'it me'yorlarida aniqlangan (1-jadval).

1-jadval.
Kuzgi bug'doyni oziqlantirish tizimi, kg/ga

O'g'itlar ning yillik me'yori	Ekishdan oldin			Ekishdan keyin			Tuplanish davri			Naychalash davri			Boshloqlash davri						
	Chiqindi va qoldiqlar, t/ ga	Mineral o'g'itlar, kg/ga		Chiqindi va qoldiqlar, t/ ga	Mineral o'g'itlar, kg/ ga		Chi qindi va qoldiqlar, t/ ga	Mineral o'g'itlar, kg/ga		Chiqindi va qoldiqlar, t/ ga	Mineral o'g'itlar, kg/ga		Chiqindi va qoldiqlar, t/ ga	Mineral o'g'itlar, kg/ga					
		N	P		K	N		P	K		N	P		K	N	P	K		
10 tonna/ga chiqindi va qoldiqlar	10,0	-	67	21	-	31	22	7	-	38	17	5	-	54	6	2	-	31	-
Yillik ozilantirish miqdori, %	100	-	60	60	-	20	20	20	-	25	15	14	-	35	5	6	-	20	-

sug'oriladigan sur tusli qo'ng'ir-o'tloqi va sug'oriladigan o'tloqi tuproqlar

Sug'oriladigan tuproqlarga nisbatan sug'oriladigan sur tusli (mis, rux, manganets va bor) elementlar vegetatsiya davri boshidan qo'ng'ir-o'tloqi tuproqlarda 1-2 kunga ertaroq, unib-chiqish miqdori oxiriga qadar kamayib borgan, ayniqsa sug'oriladigan o'tloqi tuproqlarda ham 2-4 % ga ko'p bo'lgan.

Organik o'g'itlarning tuproqqa shuningdek, kuzgi bug'doyning **Xulosa.** Tadqiqotlar natijalari bo'yicha, sug'oriladigan tuproqning o'sishi va rivojlanishida ham ta'sir ko'rsatgan. Har ikkala o'rganilgan haydalma (0-30 sm) qatlamini kompostga aylantirish agrotexnologiyasi tuproqlar sharoitida ham kuzgi bug'doy tarkibida vegetatsiyaning yaratilgan bo'lib, shu asosida kuzgi bug'doy ekini uchun maqbul boshidan oxirigacha azotni o'rtacha, fosfor va kaliyni nisbatan kamroq oziqlantirish tizimi (me'yori, miqdori va muddatlari) ishlab to'plashi aniqlangan. Xuddi shuningdek, harakatchan shakldagi mikro- chiqilgan.

Eng maqbul 10 tonna/ga chiqindi, qoldiqlar va sof holda N154P112K35 kg/ga o'g'it qo'llash) me'yorlari hamda azotli o'g'itni yillik me'yorining 20 % i ekishdan keyin, 25 % i tuplanish davrida va 35 % i naychalash davrida va 20 % i boshqalash davrida; fosforli o'g'itni yillik me'yorining 60 % i ekishdan oldin, 20 % i ekishdan keyin, 15 % i tuplanish davrida, 5 % i naychalash davrida; kaliyli o'g'itni yillik me'yorining 60 % i ekishdan oldin, 20 % i ekishdan keyin, 15 % i tuplanish davrida va 5 % i naychalash davrida qo'llash miqdorlari va muddatlari ishlab-chiqarishga keng tavsiya etilgan.

Kuzgi bug'doy hosili va don sifatini oshirishga qaratilgan maqbul (10 tonna/ga chiqindi, qoldiqlar va N154P112K35 kg/ga o'g'it qo'llash) me'yorlari va muddatlarida, o'rganilgan tuproqlarning suv-fizik, agrokimyoviy xossalari yaxshilagan, makro va mikro oziqa elementlar ko'payganligi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 10 iyunda "Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 277-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 13 fevraldagi "Qishloq xo'jaligi yerlari degradatsiyasiga qarshi kurashish, tuproqning gumus miqdori va unumdorligini oshirishni qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 71-son qarori.
3. Muxammadjonov A.R. Qo'yi Zarafshon vodiysining sug'orish tarixi. Qadimgi davrdan to XX-asr boshlarida. -Toshkent: 1994. -36 b.
4. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari.T.:O'zPITI,2007. 132-139 b.
- 5.Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М.1985 Агропромиздат.С.248-255.
6. Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии Издание 5-е. -Toshkent. 1977. 12-18 b.
7. Б.Қ.Атоев., Ш.Д.Обидов. Тупроқда озиқа элементларни қўпайтиришда инновацион технологияларни қўллашнинг аҳамияти "Suv xo'jaligini barqaror rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati" mavzusidagi anjumani, TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy reseryslarni boshqarish instituti.2024y. 258 b.

O'LIY TA'LIM TIZIMIDA TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETINING ETUK MALAKALI KADRLARNI ETISHTIRISHDADUAL TA'LIMNI TASHKIL ETILISHI

Oblomuradov N. N., Fatxullayev A., Iskandarov Z. S.,

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ikki muhim omil - kasbiy faoliyat va kasbiy kompetentlik masalalari xaqida yoritilgan. Maqolada bu ikki tushunchaning mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, kasbiy faoliyatni takomillashtirish va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy mutaxassislarga o'z kasbiy mahoratlarini oshirishda yordam beruvchi amaliy tavsiyalar va nazariy asoslarni taqdim etadi.

Tayanch so'zlar: kasbiy faoliyat, kasbiy kompetentlik, mutaxassis, kasbiy rivojlanish, mehnat bozori, kasbiy mahorat, uzluksiz ta'lim, innovatsion yondashuvlar, kasbiy etika, zamonaviy texnologiyalar, kasbiy tajriba, shaxsiy fazilatlar, kasbiy o'sish, raqobatbardoshlik.

Oliy ta'lim tizimida "Dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 16.01.2025 yil № 14-son Qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorga binoan ilk bor Toshkent davlat agrar universiteti va Respublikamizda ilg'or tadbirkorlik sub'ekti bo'lgan "Promeat Group Corp" MChJ korxonasi o'rtasida imzolangan shartnomaga

asosan universitetning 3-kurs talabalarini va ularga universitet tomonidan biriktirilgan amaliyot raxbari bilan birgalikda, talabalarni dual ta'lim shaklida amaliyotini o'tash va ishlab chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lishini ta'minlash yo'lga qo'yilgan.

Zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun har bir mutaxassis o'z kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishi va yuqori

darajadagi kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi zarur. Bu ikki tushuncha - kasbiy faoliyat va kasbiy kompetentlik - bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mutaxassisning muvaffaqiyatli karyerasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi.



Kasbiy faoliyat - bu talabning ma'lum bir kasb doirasida amalga oshiradigan maqsadli harakatlari va faoliyatidir. Bu faoliyat maxsus tayyorgarlikni talab qiladi, muayyan sohaga yo'naltirilgan, jamiyat uchun foydali natijalar beradi va odatda moddiy yoki ma'naviy mukofot bilan taqdirlanadi. Kasbiy faoliyat turli sohalarda, jumladan ta'lim, tibbiyot, muhandislik, huquqshunoslik, san'at va boshqa ko'plab yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Har bir soha o'ziga xos bilim, ko'nikma va yondashuvlarni talab qiladi. Bu faoliyat odatda quyidagi xususiyatlarga ega:

- Maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qiladi
- Ma'lum bir sohaga yo'naltirilgan
- Jamiyat uchun foydali natijalar beradi
- Odatda moddiy yoki ma'naviy mukofot bilan taqdirlanadi.

Kasbiy kompetentlik esa shaxsning o'z kasbiy vazifalarini samarali bajarish uchun zarur

bo'lgan bilim, ko'nikma, tajriba va shaxsiy fazilatlar majmuidir. U quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi: nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kasbiy tajriba, shaxsiy fazilatlar, kasbiy etika va qadriyatlar, texnologik kompetensiya hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiya.



Yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik mutaxassisga murakkab kasbiy vazifalarni samarali hal qilish, yangi sharoitlarga tez moslashish, kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishish va karyerada o'sish imkoniyatlarini beradi. Kasbiy kompetentlik quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- Nazariy bilimlar
- Amaliy ko'nikmalar
- Kasbiy tajriba
- Shaxsiy fazilatlar (masalan, mas'uliyatlilik, kommunikativ qobiliyatlar)
- Kasbiy etika va qadriyatlar

Kasbiy faoliyat va kasbiy kompetentlik bir-biri bilan uzviy bog'liq. Kasbiy kompetentlik kasbiy faoliyat uchun asos bo'lib xizmat qilsa, kasbiy faoliyat o'z navbatida kompetentlikni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Yuqori darajadagi kompetentlik kasbiy vazifalarni samarali bajarishga imkon beradi, amaliy faoliyat davomida esa mutaxassis

o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtiradi, yangi tajriba orttiradi. Bilimli va tajribali mutaxassis o'z ishini yuqori sifat bilan bajaradi, yangi vazifalar va muammolar esa mutaxassisni yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga undaydi.



Dual ta'limning nazariy va amaliy qismi muddatlari hamkor korxonada va tashkilotlar bilan kelishilgan holda, oliy ta'lim tashkiloti tomonidan belgilanadi hamda o'quv rejasida talabalarning oliy ta'lim tashkilotida ta'lim dasturining nazariy va amaliy qismini, ishlab chiqarish bilan bogliq amaliy qismlarini korxonada o'tkazishlari nazarda tutiladi.

Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik) xususiyatidan kelib chikib, talabalarni dual ta'lim asosida bir haftada kamida ikki kun ta'lim dasturining nazariy qismini oliy ta'lim tashkilotida, qolgan kunlari esa ishlab chiqarish bilan bogliq amaliy qismlarini korxonada o'tkazish orqali yoki amaliyot shaklida ham tashkil etilishi mumkin.

Dual ta'limning nazariy qismi qonunchilik xujjatlariga muvofiq oliy ta'lim tashkilotida har yili sentyabr oyining birinchi haftasidan boshlab tashkil etiladi. Korxonaning tegishli buyrug'i asosida dual ta'lim bo'yicha talaba(lar)ga tajribali xodimlardan amaliyot rahbari (ustoz) birlashtiriladi.

Amaliyot rahbariga (ustozga) korxonada tomonidan belgilangan tartibda qo'shimcha ravishda mehnatga haq to'lash tartibi joriy etiladi.

Amaliyot rahbarining faoliyati korxonada tomonidan nazorat kilinadi.

Talabaga dual ta'lim jarayonida korxonadagi faoliyati uchun korxonada tomonidan qonunchilik xujjatlariga muvofiq ish haqqi to'lanadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uzluksiz jarayon bo'lib, quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

- Uzluksiz ta'lim va malaka oshirish
- Amaliy tajriba orttirish
- O'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil o'rganish
- Kasbdoshlar bilan tajriba almashish
- Yangi texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish



Talabalarda kasbiy faoliyatni takomillashtirish uchun esa ish jarayonlarini optimallashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, kasbiy hamkorlikni kuchaytirish, muntazam ravishda o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash, innovatsion yondashuvlarni qo'llash kabi usullardan foydalanish mumkin.

Shuningdek, vaqtni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish va stress boshqaruvi usullarini o'zlashtirish ham kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- Ish jarayonlarini optimallashtirish
- Yangi texnologiyalarni joriy etish
- Kasbiy hamkorlikni kuchaytirish
- Muntazam ravishda o'z faoliyatini tahlil qilish va baholash

• Innovatsion yondashuvlarni qo'llash

Zamonaviy, tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir yosh mutaxassis o'z kasbiy kompetentligini muntazam ravishda rivojlantirib borishi va kasbiy faoliyatini

takomillashtirishga intilishi lozim. Bu nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki butun jamiyat rivojiga ham hissa qo'shadi.



Uzluksiz o'rganish, o'z ustida ishlash va yangiliklarga ochiq bo'lish - bular zamonaviy mutaxassisning asosiy xususiyatlari bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov, Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. (2020) Toshkent: Fan va texnologiya.
2. G'ulomov, S.S. Menejment asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya. (2019)
3. Zaynutdinov, Sh.N. Innovatsion menejment. Toshkent: Moliya (2018)
4. Fayazova D. Условия формирования профессиональных компетенций. Scientific Impulse, 1(8), 565-570. (2021)
5. Bozorova, O. H. Dekart koordinatalari sistemasi va sferik koordinatali sistemasi orasidagi bog'lanish. Экономика и социум, (12 (115)-2), 87-90. (2023)
6. Qutlimurodov A. R., Bozorova O. H. Parallel ko'chirishlar. Academic research in educational sciences, (CSPI conference 1), 507-511. (2021)
7. Urinbayeva, Z. Xalqaro baholash dasturlarida kreativ fikrlash va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. Creative Education, 1(1), 364-367. (2024)

УЧЁНЫЙ МАТЕМАТИК, ГОСУДАРСТВЕННЫЙ И ОБЩЕСТВЕННЫЙ ДЕЯТЕЛЬ

«Самое большое богатство – разум и наука, самое большое наследство – хорошее воспитание, самая большая нищета – отсутствие знаний».

*Ш.М. Мирзиёев,
Президент Республики Узбекистан*



Сарымсаков Ташмухаммада Алиевич родился 10 сентября 1915 года в селе Шахрихан Андижанской области Республики Узбекистан.

Его отец – Хайдарали ота был из состоятельных крестьян, прогрессивным человеком. Он очень был строг в вопросах

воспитания детей, стремился воспитать детей образованными людьми. Не случайно, двое его сыновей были в своё время министрами, а один к тому же академиком...

Писатель Абдуманноп Эгамбердиев – известный писатель и поэт, доктор экономических наук, являвшийся зятем его сына Ахмадали, с восхищением рассказывал о его мудрости, о том, как он глубоко разбирался в жизненных вопросах...

В 1931–1936 годах, Т. А. Сарымсаков учился на физико-математическом факультете Среднеазиатского государственного университета (ныне это Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека).

В формировании его как учёного большую роль сыграл известный математик, профессор Всеволод Иванович Романовский (1879–1954 г.г.), представитель всемирно известной петербургской математической школы.

В 1942 году Т. А. Сарымсаков защитил докторскую диссертацию на тему «К теории однородных стохастических процессов со счётным множеством возможных состояний» и в том же году стал профессором.

В 1943 году, он стал действительным членом Академии наук Узбекистана, был избран её президентом (1946–1952 г.г.), затем работал министром высшего и среднего специального образования республики (1960–1971 г.г.).

Трижды занимал должность ректора Ташкентского государственного университета (1943–1944, 1952–1958, 1971–1983 г.г.), являлся заведующим кафедрой функционального анализа ТашГУ (1983–1994 г.г.).

Оказал большое влияние на научные исследования таких видных математиков, как С. Х. Сирожиддинов, С. В. Нагаев, М. Я. Антоновский, Е. Х. Кучкаров, Ш. А. Аюпов, В. И. Чилин.

Он является основателем научной школы по функциональному анализу

и топологии, теории полуполей и её приложений в Узбекистане. Был удостоен премии имени Абу Райхона Беруни. Почётного звания Героя Труда и посмертно был награждён орденом «Буюк хизматлари учун». Т. А. Сарымсаков является автором более 200 научных работ и восьми монографий...



На снимке: сын академика Т. А. Сарымсакова Олим (второй слева) с автором статьи (в центре), другими родственниками

Читатели хорошо знают известного казанского математика Фоата Фаритовича Султанбекова, окончившего механико-математический факультет Казанского университета в 1972 году и затем долгие годы работавшего в стенах этого университета.

Десятки лет он читал студентам механико-математического факультета Казанского государственного университета (с 2010 года – Института математики и механики имени Н. И. Лобачевского Казанского федерального университета) курсы лекций по математическому и функциональному анализу, теории вероятностей и математической статистике, специальные курсы лекций. Лекции Фоата Фаритовича всегда отличали глубина, строгость, продуманность изложения материала.

Его научные интересы связаны с функциональным анализом и квантовыми логиками. Учёный любит поэзию и сам пишет стихи...

Он с большим уважением относится к учёным Узбекистана, своим коллегам. Отрадно отметить, что он в своё время написал стихи об академике Т. А. Сарымсакове и его талантливом ученике Ш. А. Аюпове.

В этих стихах есть такие строки:

ТОШМУХАММАД САРЫМСАКОВ

Край самых ароматных яблок Андижан
Приветствовал рожденье Тошмухаммада.
Как математику он полюбил Тянь-Шань,
Чтил Романовского и молодёжь как надо.
Начав анализ свой с классических задач,

Процессам Маркова нашёл он приложение.
Затем, подняв все паруса своих всех мачт,
Он в море топологий продолжал движенье.
И в квантовой теории он оставил след,
Взрастив учеников, чтоб и у них учиться!
В дискуссиях научных до преклонных лет
Он мудр и прост и простотою не стыдится.
Министр, ректор, академик и Герой труда,
Для многих, многих – путеводная звезда.

ШАВКАТ АЮПОВ

Ещё среди юных подданных наук царицы
Он отличался точным целеполаганьем.
Задач олимпиадных лучшие страницы
Шепнули: «Математика – твоё призванье».
Ташкент. Университет. Мехмат. Тошмухаммад
Тогда заметил сразу молодое дарование.
И пригласил в свои «полуполя»: «Строй град».
Град йордановых алгебр встал в его ваянии.
Так к алгебрам в Ташкенте отнеслись любовно
Развив дифференцирование в разных классах
Операторов; и приложения искали, безусловно.
Подтянут, добр, стремителен. И в меру строг
К ученикам, их наставляя: «Трудись без страха
И упорно – в науке нет проторенных дорог!»

Академик Академии наук Республики Узбекистан, директор Института математики им. В. И. Романовского АН РУз, Герой Узбекистана, член Сената Олий Мажлиса Республики Узбекистан, Лауреат

Государственной Премии Узбекистана в области науки и техники, многоуважаемый Шавкат Абдуллаевич Аюпов в воспоминаниях о своём учителе писал:

«Конечно, все описанное выше – это только некоторые эпизоды из повседневного сотрудничества с моим незабвенным учителем, которое происходило в течение почти 20 лет нашего сотрудничества.

Исходя из всего опыта моего общения с ним, я могу выделить следующие основные черты его характера:

- простота, скромность и порядочность;
- высокая культура общения;
- заботливое отношение к талантливому молодому ученому и студентам;
- преданность к своей науке и памяти своего учителя – Всеволода Ивановича Романовского;
- широта научного кругозора и постоянное стремление к новому;
- абсолютная демократичность в научных дискуссиях.

Он очень часто и с теплотой вспоминал своего учителя – академика В. И. Романовского, и я уверен, что многие свои черты Ташмухаммад Алиевич унаследовал от него.

А сам он личным примером оказал огромное влияние на формирование, как личностных качеств, так и научного мировоззрения своих учеников.»



На снимке: автор статьи с академиком Ш. А. Аюповым.

Известный журналист Носирхон Таиров в своей статье «Учёный математик, создавший свою школу» приводит выдержки из книги академика Т.А.Сарымсакова «Постижение»:

“...Осень жизни. Не так, как прежде, светит солнце, хотя оно всё ещё большое и тёплое. Наступает пора собирать урожай. Что выросло на поле, возделанном тобой?

Можно, конечно, с заслуженной гордостью перечислить имена своих учеников и названия многочисленных научных статей и монографий. Можно достать из шкафа свой парадный пиджак и ещё раз всмотреться в награды, которыми Родина отметила твои заслуги... Казалось бы, есть все основания быть довольным собой, спокойно спать, не мучаясь назойливыми мыслями, и неторопливо прогуливаться по знакомым улицам прошлого.

Можно. Но как же тогда быть с постижением истины? В науке? В жизни? Ведь истина снова впереди, всегда впереди, как горная вершина, окутанная призрачной дымкой. За ней нужно идти вперёд, вверх, ни на миг не прекращая восхождение. И это стремление к истине ценнее, дороже уверенного обладания ею.”, и член Союза журналистов Узбекистана Носирхон Таиров делает вывод: «Думается, эти слова выдающегося учёного могут стать программой действий для каждого учёного.»



На снимке: автор статьи с журналистом Н. А. Таировым.

Ученик академика Сагди Хасановича Сираждинова, академический директор

МГИМО-Ташкент, доктор физико-математических наук, профессор Матёкуб Тешаевич Бакоев всё время повторяет: «Мы молодые математики 80-десятых годов хотели равняться к учёным академикам: Т.А.Сарымсакову, С.Х.Сираждинову и М.С.Салахитдинову».



На снимке: автор статьи с академическим директором МГИМО-Ташкент, профессором М. Т. Бакоевым.

Сегодня мы с глубоким уважением вспоминаем выдающегося учёного математика академика Т.А.Сарымсакова, тысячи учеников которого работают в различных отраслях науки и производства, принимают активное участие в строительстве Нового Узбекистана и создании основ III Ренессанса.

Фозилхон Таиров,
независимый исследователь МГИМО-Ташкент.

КУЗГИ ЮМШОҚ БУҒДОЙ НАВЛАРИНИНГ МАРКАЗИЙ МИНТАҚА ШАРОИТИДА ДОННИНГ ТЕХНОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРИ

Махамматова М. У.

ТошДАУ доценти, қ.х.ф.д.

Аннотация. Мақолада Кузги юмшоқ буғдой навларининг технологик сифат кўрсаткичларидан энг асосийси ҳисобланган оқсил ва клейковинадир. Кузги юмшоқ буғдой навларининг доннинг сифат кўрсаткичлари ўрганилган натижалари бўйича маълумотлар асосида хулосалар қилинган ва баён этилган.

Таянч сўзлар: кузги юмшоқ буғдой, дон сифат кўрсаткичлари, оқсил, клейковина, дон сифати, қимматбахон навлар.

Кириш. Кузги юмшоқ буғдой сифат кўрсаткичлари бўлиб, унга дон навларини дон сифат кўрсаткичларини таркибидаги оқсил, клейковина миқдори ўрганиш қимматбахо дон етиштириш донининг ялтироқлиги, ИДК кўрсаткичи талабларига мос дон сифатига эга янги каби кўрсаткичлари киради.

навлар яратиш ва ишлаб чиқиш жорий этиш буғдой селекцияси бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Доннинг энг муҳим сифат кўрсаткичларидан бири-бу технологик

Тажриба натижалари. Тажриба-миздаги ўрганилган навларнинг оқсил миқдори, ўрганилганда навларда қуйидагича бўлди. Маҳаллий навлар орасида юқори натижалар Яксарт, Чиллаки, Ёнбош

навларида андоза Ҳазрати башир нави (13,2 %) даражасида кузатилиб, тегишли равишда 13 % ни ташкил этди (1-жадвалга қаранг). Краснодар селекциясига мансуб навларда оқсил миқдори 11,6 (Звезда, Сила) %дан 12,5 (Эсаул) %гача бўлганлиги қайд этилди.

Ўсимликлар генетик ресурслари илмий тадқиқот институти навларида оқсил миқдори нисбатан юқори даражада бўлиб, 13 % (Васса)дан 13,4 % (Яксарт, Ҳозғон) гача бўлганлиги қайд этилди.

Демак, оқсил миқдорини оширишда маҳаллий навлардан Яксарт, Чиллаки, Ёнбош навларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

1-жадвал маълумотларига кўра, марказий минтақада етиштирилган юмшоқ буғдой навларининг клейковина миқдори андоза Ҳазрати башир навида 31 % ни ташкил этиб, маҳаллий навлардан Замин-1 навида 31,4 % ни ташкил этиб, андоза навадан бирмунча юқорироқ натижа юқорироқ натижа қайд этилди.

1-жадвал

Кузги юмшоқ буғдой навларининг доннинг сифат кўрсаткичлари.

№	Нав номи	Оқсил миқдори, %	Клейковина миқдори, %
1	Ҳазрати башир	13.2	31.0
2	Бунёдкор	13.0	30.5
3	Бобур	12.9	30.1
4	Замин-1	12.5	31.4
5	Дурдона	12.7	30.1
6	Аср	12.6	30.6
7	Чиллаки	13.0	30.5
8	Ёнбош	13.0	30.6
9	Ҳозғон	12.2	29.5
10	Краснодор-99	12.3	29.5
11	Гром	12.4	29.6
12	Эсаул	12.5	28.7
13	Зимница	12.0	29.4

14	Звезда	11.6	28.7
15	Сила	11.6	28.8
15	Яксарт	13.4	31.4
16	Ғозғон	13.4	31.9
17	Аср	13.2	31.4
18	Васса	13.0	31.8
19	Юксак	13.3	31.7
20	Хазрати башир	13.2	31.0

Хулоса. маҳаллий навларда 29,5 дан 29,6 % (Гром) гача бўлганлиги намоён (Ғозғон) %дан 30,6 (Аср, Ёнбош) % гачани бўлди. Краснодар-99 навида белги бўйича ташкил этди. кўрсаткич 29,5 % ни ташкил этди. Маҳаллий

Краснодар селекциясига мансуб навларининг барчасида клейковина навларда бу кўрсаткич маҳаллий навлардан миқдори юқори бўлиб, Юксак навида 31,4 бирмунча пастроқ бўлиб, 28,8 % (Сила) % дан 31,8 % ни ташкил этди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алиқулов С, А.Аманов, З.Зиёдуллаев, М.Юлдашев “Сурхондарё вилоятида юмшоқ буғдойнинг технологик сифат кўрсаткичлари”.Ўзбекистон аграр фани хабарномаси.№1-2. 2009.7-10бет.
2. Аманов О, А.Файзуллаев “Республикамизнинг жанубий минтақасида янги юмшоқ буғдой намуналарининг дон сифати кўрсаткичлари”. Агроилм.№4.2019й.23-24бетлар.
3. Аманов О, А.Шаймуродов, Ш.Дилмуродов “Лалмикор майдонларда қаттиқ буғдойнинг дон сифат кўрсаткичлари”.Агроилм.№1.2019й.16-17бетлар.
4. Дилмуродов Ш, Ш.Ҳазратқулова “Юмшоқ буғдойнинг дон сифати юқори тизмалари селекцияси”.Агроилм.№6.2019й.32-33 бетлар.

ШЎР ЮВИШ МУДДАТИНИ ТЎҒРИ ТАНЛАШ – МУҲИМ АГРОТЕХНИК ТАДБИР

Тошпулатов Ч. В.,

Тошкент давлат аграр университети, қ.х.ф.д.

Аннотация. Тупроқ шўрини ноябрь ойида ювишда, тузнинг тўлиқ ювилишига эришишнинг муҳим омили, бу даврда ҳали тупроқлар ва шўр ювишга ишлатиладиган сув совиб улгурмаган бўлиб, сизот сувлар сатҳи вегетация охирига бориб ўзининг энг чуқур сатҳига яқинлашади. Жумладан, шўр ювилиши ҳисобига қуруқ қолдиқ - 61%, бикорбонат тузи - 47% ва хлор иони - 39,9-41,2% фоизгача ювилган бўлса, февраль ойида шўр ювиш ҳисобига қуруқ қолдиқ - 40%, бикорбонат иони - 34% ва хлор иони - 24% фоизгача ювилган. Энг муҳими ноябрь муддатида шўр ювиш натижасида тупроқнинг пастки қатламига ювилган сув билан ювилиб тушган туз зовур сувлари билан ҳудуддан ташқарига чиқиб кетади. Тупроқнинг қайта шўрланиш жараёни кузатилмади.

Таянч сўзлар: тупроқ, туз, сув, жўхори, иқлим, вариант, тажриба, самара, қуруқ қолдиқ, таҳлил, натижа, сизот сув.

Мавзунинг долзарблиги. Дунёда иқлимни кескин ўзгариши ҳаво ҳароратини ортиб бориши, шўрланган экин майдонларининг кенгайиши ҳамда сув манбаларининг камайиб кетиши минтақада қишлоқ хўжалик экинларини етиштиришда илмий асосланган ва ишлаб чиқаришда юқори самара берадиган такомиллашган тизимни жорий этишни талаб этмоқда.

Жўхори шўрланган ерлар шароитида яхши ўсиб юқори ҳосил бериш имкониятига эга бўлган ўсимлик ҳисоблансада қишлоқ хўжалигида янги технологиялар ва навларни кириб келиши жараёнида бу соҳада кўп изланишлар олиб борилмоқда.

Айниқса, глобал иқлим ўзгариши ва шўрланган ерлардан тўғри фойдаланишда шўрга бардошли қишлоқ хўжалик экинларини

жумладан, жўхорини экиб парвариш қилиш бўйича тадқиқотлар ўтказиш долзарб бўлиб ҳисобланади (2,3,4,5).

Тадқиқот ўтказиш шароити ва услублари. Дала тажрибаларида қишлоқ хўжалик экинларида муаллиф Доспехов Б.А. томонидан тайёрланган “Дала тажрибалари олиб бориш услубияти” М.Колос.1979 й. ва Нурматов Ш., Мирзажонов Қ., Авлиёқулов А. ва бошқалар томонидан тайёрланган «Дала тажрибаларини ўтказиш услублари»дан (Қўлланма. Т.:2007–1476.) фойдаланилди. Дала тажрибаси учун Сирдарё вилоятининг табиий иқлим шароитидан келиб чиқиб, Оқ-олтин туманининг ўртача шўрланган ерлари танланади, ҳамда ушбу ернинг мелиоратив-экологик ҳолати ўрганилади (1).

Тадқиқот объекти. Тадқиқотлар олиб бориш учун Сирдарё вилояти Оқ-олтин туманидаги: Бобур СФУсидаги “Бекзафарлик чорвадорлар” фермер хўжалиги танланди. Тупроғи ўтлоқлашиб бораётган – бўз, механик таркиби бўйича ўрта қумоқ.

Дала тажрибаси 9 та вариантда 4 такрорийликда қўйилди. Вариантлар бир ярусли қилиб жойлаштирилди. Эгат узунлиги

50 м қилиб олинди. Ҳар бир делянка 8 та қатор, яъни сеяланинг бир бориб келиши ҳисобида (8x60 см=4,8 метр, 4.8x50 метр=240 м² ни ташкил этади) олинди. Демак 1-та делянка умумий майдони 240 м², ҳисобий майдони 120 м² қилиб белгиланди. Тажрибанинг умумий майдони 8640 м², ҳисобий майдони эса 4320 м².

Тажриба натижалари. Сирдарё вилояти шўрланган тупроқлари шароитида қишлоқ хўжалик экинларини парвариш қилиш билан боғлиқ ҳолларда энг аввало тупроқ шўрини ювиш асосий агромеиоратив тадбир бўлиб ҳисобланади.

Шўр ювиш учун тупроқ қатлами 1,0 м қилиб белгиланади. Бизнинг тажрибамизда шўр ювиш меъёри 2000-2200 м³/га. қилиб олинди. Тупроқ шўри 2 босқичда ювилди. Дастлабки шўр ювишда 1500 м³/га меъёрда сув берилган бўлса 2-босқичда 700 м³/га меъёрда сув берилди.

Шўр ювишдан олдин тажриба даласининг 1 метрлик тупроқ қатламида тузларнинг умумий миқдори қуруқ қолдиқ бўйича олинган нуқталарда, жумладан 1-нуқтада 0,839 %, 2-нуқтада-0,855% ва 3-нуқтада -893% ни ташкил этган (1–жадвал).

1–жадвал. Шўр ювишда олдин ва кейин тупроқдаги қуруқ қолдиқ ва туз ионларининг миқдори. (ўртача 1 м қатламда) 2019-2020 йиллар.

Намуна олинган нуқталар	Қуруқ қолдиқ, %	НСО ₃	Cl	SO ₄
Шўр ювишдан олдин				
1	0,839	0,034	0,059	0,374
2	0,855	0,038	0,057	0,375
3	0,893	0,031	0,063	0,333

Шўр ювишдан кейин (ноябрь ойида тупроқ шўрини ювиш натижалари)				
1	0,301	0,010	0,032	0,269
2	0,329	0,011	0,030	0,288
3	0,323	0,008	0,034	0,281
Шўр ювишдан кейин (февраль ойида тупроқ шўрини ювиш натижалари)				
1	0,478	0,021	0,039	0,332
2	0,470	0,024	0,042	0,337
3	0,482	0,019	0,054	0,306

Шунга мос ҳолатда бикарбонат, хлор, сульфат ионларининг миқдори ҳам ўзгарган. Тупроқ шўрини ювишдан кейинги натижаларни таҳлили шуни кўрсатдики, ноябрь ойида тупроқ шўрини ювиш, февраль ойида тупроқ шўрини ювишга нисбатан юқори бўлганлигидан далолат беради. Таҳлиллар шуни кўрсатдики, ноябрь ойида шўр ювишдан олдин қуруқ қолдиқ миқдори 1-нуқтада 0,839% бўлган бўлса, шўр ювишдан кейин қуруқ қолдиқ миқдори 0,201%, яъни тузнинг ювилиши 64% ни ташкил қилган. Шўр ювиш февраль ойида ўтказилганда эса тупроқда ювилмай қолган тузнинг миқдори 0,478% бўлиб бу кўрсаткич ноябрь ойига солиштирилганда тузнинг ювилиши 22%га кам бўлган. Жумладан, ювилмай қолган тузнинг миқдори 20% ни ташкил этди. Анионлар бўйича энг кўп ювилиш хлор анионида кузатилди. Жумладан, тупроқ шўрини ювишдан олдин хлор аниони 1-нуқтада 0,059% 2-нуқтада -0,057% ва 3-нуқтада - 0,063% ни ташкил этган. Ноябрь ойида шўрни ювилиши ҳисобига хлор иони 1-нуқтада 0,032 % иккинчи нуқтада - 0,030 % ва 3-чи нуқтада 0,034 % туз сақланган, ёки бу муддатда тупроқдаги хлор ионининг ювилиш самарадорлиги 0-10 см.да 78,9 % га 0-50 см.да

24,3% ва 0-100 см.да 16,7 % натижада 1 метрлик 41,2% ни ташкил этган. Февраль ойида хлор ионининг ювилиш самарадорлиги 1-100 см. лик қатламда 30% ни ташкил қилган ва туз ювиш самарадорлиги бу ойда ноябрь ойига нисбата 15 % га камайган. Энг кам туз ювилиши сульфат ионида кузатилган бўлиб, ноябрь ойида 12,0-14,0% туз ювилган бўлса, февраль ойида шўр ювиш ҳисобига 9-10% ни ташкил этган.

Тупроқ шўрини ювиш бўйича ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатдики, ўтган асрнинг 60-90 йилларигача бўлган муддатларда шўр ювишнинг оптимал муддатлари сифатида ноябрь ва февраль ойлари қабул қилинган эди. Аммо республика деҳқончилигига сўнгги 15-20 йилда кузги ғалла экинларининг кириб келиши ва у билан боғлиқ агротехник тадбирлар, жумладан суғориш жараёнидаги график ўзгаришлар, яъни ғаллани суғориш мавсумини эрта бошланиши тупроқ тузи кеч ювилган далаларда тузнинг тупроқдан тўлиқ ювилмай қолиш ҳолларига сабаб бўлмоқда. Чунки, ушбу муддатларда тупроқ шўрини ювишнинг самараси пастлигига асосий сабаб бу даврда сизот сувлар ҳаракати кўтарила бошлаган бир давр бўлиб, тупроқ ҳали совуқ, тузнинг эриши

секин кечади ва тузнинг пастки қатламларга ювилиши сустлашади. Бу эса тупроқдаги тузни февраль-март ойида ювишнинг самараси пастлигини кўрсатмоқда.

Иккинчидан февраль ойида шўр ювишнинг салбий томони шундаки, бу даврда шўр ювилган далалар сизот сувларининг ҳаракатини тезлашиши ва атмосфера ҳамда тупроқ ҳароратининг пастлиги ҳисобига уни етилиши секинлашади, баҳорги пол ва марзаларни бузиш, текислаш, маҳаллий ва минерал ўғитларни ерга солиш жараёнлари чўзилиб кетади ва охир-оқибатда баҳорги экиш ишларини кечикишига олиб келади.

Хулоса. Тупроқ шўрини ноябрь ойида ювишда, тузнинг тўлиқ ювилишига

эришишнинг муҳим омили, бу даврда ҳали тупроқлар ва шўр ювишга ишлатиладиган сув совиб улгурмаган бўлиб, сизот сувлар сатҳи вегетация охирига бориб ўзининг энг чуқур сатҳига яқинлашади.

Жумладан, шўр ювилиши ҳисобига қуруқ қолдиқ - 61%, бикорбонат тузи - 47% ва хлор иони - 39,9-41,2% фоизгача ювилган бўлса, февраль ойида шўр ювиш ҳисобига қуруқ қолдиқ - 40%, бикорбонат иони - 34% ва хлор иони - 24% фоизгача ювилган. Энг муҳими ноябрь муддатида шўр ювиш натижасида тупроқнинг пастки қатламига ювилган сув билан ювилиб тушган туз зовур сувлари билан ҳудуддан ташқарига чиқиб кетади. Тупроқнинг қайта шўрланиш жараёни кузатилмади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Нурматов Ш. ва бошқалар «Дала тажрибалари услубияти. Тошкент -2007.
2. Широкова Ю., Садиев Ф., Палуашова Г., Шарафутдинова Н., Худойназаров И., Тураев А. “Сирдарё вилояти шўрланган тупроқлари шўрини ювиш ва вегетатив суғориш учун “Биосольвент” препаратининг синови” “Агро илм-Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журнали №1(57) 2019 йил, 59-60-бет.
3. Массино И.В. Ресурсы фотосинтетически активной радиации и резервы производства кормов на орошаемых землях Узбекистана. Ташкент, 2006, 161 с.
4. Тўхтаев Б., Бердиев Э. “Шўрланган тупроқларни ўзлаштирувчи ўсимликлар” “Агро илм-Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги” журнали 2016 йил, №1/39. Б. 58
5. Тореев Ф., Собирова З. “Шўрланган майдонларда оқ жўхорини экишнинг аҳамияти” “Селекция ва уруғчиликда инновацион технологияларнинг истиқболлари ҳамда ноқулай омилларга бардошли ашёлар яратишнинг назарий ва амалий асослари” Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами, Тошкент – 2017 йил 22 декабрь. 72-73 б.

ГЕННАЯ ТЕРАПИЯ НАСЛЕДСТВЕННЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ: УСПЕХИ И ВЫЗОВЫ XXI ВЕКА

Жумашев М. М.,

Ташкент, Астраханский Государственный Технический университет,
филиал ФГБОУ ВО АГТУ в Ташкентской области, доцент

Аннотация. В статье рассматриваются основные достижения в области генной терапии, примеры успешного клинического применения, а также существующие проблемы - технические, этические и правовые. Особое внимание уделяется перспективам развития методов доставки генетического материала и безопасности их использования в медицинской практике.

Ключевые слова: генная терапия, наследственные заболевания, редактирование генома, CRISPR-Cas9, генные мутации, этические проблемы, персонализированная медицина.

mln. t), Ukraina (1,21 mln. t.) va AQSH (1,0 mln. t.) davlatlarida keng miqyosda etishtirilmogda. O'zbekistonda 2022-yilda asosiy ekin sifatida qovoq etishtirilgan umumiy maydoni 5 ming gektar bo'lib, yalpi hosil 156,4 ming tonna va hosildorlik 206,3 s/ga tashkil qilgan.

O'zbekistonda agroklastar, fermer, dehqon va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarini daromadini, qayta ishlash korxonalarini ishlab chiqarish hajmini oshirishda sabzavotchilik, polizchilik sohasidagi ilm-fan yutuqlari, xususan kompleks qimmatli xo'jalik belgilari yuqori yangi navlar hamda

takomillashtirilgan agrotexnologiyalar tadbiri qilinmoqda. Shunga qaramasdan, respublikamizda so'nggi yillarda qovoq hosildorligi va sifatini oshirish bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsada, biroq, qovoq ekinini takroriy ekin sifatida etishtirish uchun mos nav namunalarni tanlash hamda etishtirish texnologiyalari ilmiy asoslanmagan.

Tadqiqot uslublari. Dala tajribalarda qovoqning "Shirintoy" va "Palov kadu 268" navlarini 20 kunlik ko'chatlar quyidagi ekish sxemalari bo'yicha amalga oshiriladi: $(280+70)/2 \times 30$ sm, $(280+70)/2 \times 50$ sm, $(280+70)/2 \times 70$ sm (nazorat) va $(280+70)/2 \times 90$ sm. Tadqiqotlar 4 qaytariqli, 2 qatorli, egatlar uzunligi 23 m, hisobli maydon 80 m² hisoblanib, har bir namunada 30 dona o'simliklarda iyun oyining birinchi dekadasida ekildi.

Dala tajribalarida quyidagi fenologik kuzatishlar, biometrik va boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha hisob-kitoblar «Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o'tkazish metodikasi» (Azimov B.J., Azimov B.B., 2002), «Методика полевого опыта в овощеводстве и бахчеводстве» (Belik V.F., 1992), «Методика полевого опыта в овощеводстве» (Litvinov S.S., 2011.) va «Методические указания ВИР по изучению и поддержанию мировой коллекции тыквенных культур (qovoq)» (1977) uslubiy qo'llanmalari asosida olib borildi. Tadqiqot natijalarining statistik tahlili «Excel 2010» va «Statistica 7.0 for Windows» kompyuter dasturida, 0,95% ishonchlilik oralig'i bilan «Методика полевого опыта» (Dospexov B.A., 1985) dispersion usuli bo'yicha hisoblandi.

Tadqiqot natijalari. Takroriy ekinda qovoq yetishtirishda "Shirintoy" va "Palov kadu 268" navlarini $(280+70)/2 \times 90$ sm ekish sxemasida ekilganda eng uzun asosiy poyani (mos ravishda:

365,5 va 429,4 sm sm), yon shoxlarini (1090,4 va 1050,3 sm) va umumiy poyalarni (1455,9 va 1479,7 sm) shakllangan bo'lsa, aksincha, $(280+70)/2 \times 30$ sm ekish sxemasida eng kalta asosiy poyani (297,4 va 325,0 sm), yon shoxlarini (711,2 va 724,4 sm) va umumiy poya uzunligini (1008,5 va 1049,3 sm) namoyon qildi. Qovoqning "Shirintoy" va "Palov kadu 268" navlarini takroriy ekinda $(280+70)/2 \times 90$ sm ekish sxemasida ekilganda eng ko'p yon shoxlari soni (mos ravishda: 4,8 va 4,2 dona) va bir tupdagi eng barg soni (340,2 va 292,9 dona) shakllangan bo'lsa, aksincha, $(280+70)/2 \times 30$ sm ekish sxemasida eng kam yon shoxlari soni (3,8 va 3,2 dona) hamda bir tupdan eng kam barg soni (295,8 va 217,2 dona) aniqlandi.

Takroriy ekinda qovoqning "Shirintoy" va "Palov kadu 268" navlarini $(280+70)/2 \times 90$ sm ekish sxemasida ekilganda eng uzun barg bo'yi (mos ravishda: 15,0 va 16,6 sm sm) hamda eng keng barg eni (19,1 va 19,9 sm) namoyon qilgan bo'lsa, aksincha, $(280+70)/2 \times 30$ sm ekish sxemasida eng kalta barg bo'yi (13,9 va 15,5 sm sm) va eng enzis barg eni (18,0 va 19,1 sm) shakllanganligi ma'lum bo'ldi.

Takroriy ekinda qovoqning "Shirintoy" va "Palov kadu 268" navlarida eng yirik mevani (meva uzunligi × eni) $(280+70)/2 \times 90$ sm ekish sxemasida (27,4 × 13,8 sm; 35,8 × 18,8 sm) shakllangan bo'lsa, aksincha, eng kichik mevani $(280+70)/2 \times 30$ sm ekish sxemasida (20,1 × 12,3 sm; 26,0 × 16,9 sm) aniqlandi.

Takroriy ekinda qovoqning "Shirintoy" va "Palov kadu 268" navlarida eng eng ko'p meva soni $(280+70)/2 \times 90$ sm sxemasida (2,9 va 1,7 dona) shakllangan bo'lsa, aksincha, $(280+70)/2 \times 30$ sm ekish sxemasida (1,7 va 1,8 dona) mevalar soni kam bo'ldi. "Shirintoy" va "Palov kadu 268" navlarida eng og'ir vaznli meva $(280+70)/2 \times 90$

sm sxemasida (1,8 va 3,1 kg) shakllangan bo'lsa, aksincha, eng engil vaznli meva (280+70)/2×30 sm ekish sxemasida (1,1 va 1,9 kg) aniqlandi.

Qovoqning “Shirintoy” va “Palov kadu 268” navlarini takroriy ekinda etishtirilganda bir tupdan eng yuqori meva hosili (280+70)/2×90 sm sxemasida (5,3 va 5,4 kg) shakllangan bo'lsa, aksincha, bir tupdagi eng kam meva hosili

(280+70)/2×30 sm ekish sxemasida (1,9 va 2,1 kg) aniqlandi. Takroriy ekinda qovoqning “Shirintoy” va “Palov kadu 268” navlarida eng yuqori umumiy hosildorlikni (280+70)/2×50 sm sxemasida (39,9 va 45,3 t/ga) shakllangan bo'lsa, aksincha, eng kam umumiy hosildorlikni (280+70)/2×90 sm ekish sxemasi (33,4 va 34,2 t/ga) namoyon qildi (1-jadval).

1-jadval

Takroriy ekinda turli ekish sixemalarida ekilgan qovoq navlarining hosildorligi (2020-2022 yy.)

Ekish sixemasi, sm	Umumiy hosildorlik, t/ga	Tovarbob hosildorligi, t/ga					Umumiy hosildagi tovarbob hosil ulushi, %
		2020-yil	2021-yil	2022-yil	o'rtcha	nazoratga nisbatan, %	
“Shirintoy” navi							
(280+70)/2×30	36,1	28,2	35,1	26,8	30,0	92,6	83,1
(280+70)/2×50	39,9	35,2	40,8	32,9	36,3	111,9	90,8
(280+70)/2×70 (nazorat)	36,4	32,5	35,1	29,7	32,4	100,0	89,2
(280+70)/2×90	33,4	29,8	34,6	26,2	30,2	93,1	90,4
EKF ₀₅	0,4	1,2	1,1	0,9	0,3	-	-
Sx _%	1,2	3,8	2,9	3,3	1,0	-	-
“Palov kadu 268” navi							
(280+70)/2×30	40,6	33,8	41,6	24,3	33,2	98,8	81,5
(280+70)/2×50	45,3	36,1	44,7	34,9	38,6	114,7	85,2
(280+70)/2×70 (nazorat)	38,1	32,6	39,8	28,5	33,6	100,0	88,5
(280+70)/2×90	34,2	30,7	37,3	25,4	31,1	92,6	90,8
EKF ₀₅	0,5	1,3	1,2	0,9	0,3	-	-
Sx _%	1,2	3,8	3,0	3,3	1,0	-	-

Takroriy ekinda qovoqning “Shirintoy” va “Palov kadu 268” navlarida eng yuqori tovarbop hosildorlikni (280+70)/2×50 sm sxemasida (36,3 va 38,6 t/ga) shakllangan bo’lsa, aksincha, eng kam tovarbop hosildorlikni (280+70)/2×90 sm ekish sxemasida (30,2 va 31,1 t/ga) aniqlandi.

Xulosa. Takroriy ekinda qovoqning “Shirintoy” va “Palov kadu 268” navlari ko’chatlarini

(280+70)/2×50; (280+70)/2×50; (280+70)/2×70; (280+70)/2×90 sm sxemalarda ekib o’rganilganda, eng yuqori hosildorlik (280+70)/2×50 sm sxemada gektariga 11,4 ming tup ko’chat ekilgan variantda (36,3 va 38,6 t/ga) bo’lib, barcha variantlarga nisbatan 12,4-24,1% gacha yuqori bo’lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajribalar o’tkazish metodikasi. – Toshkent, 2002.
2. Белик В.Ф. Методика опытного дела в овощеводстве и бахчеводстве. – М: Агропромиздат, 1992.
3. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Колос, 1985.
4. Литвинов С.С. Методика полевого опыта в овощеводстве. М., ВНИИО, 2011.
5. Методический указания ВИР по изучению и поддержанию мировой коллекции тыквенных культур (Тыква). – Москва, 1977. – С. 11-15, 59-62
6. Балашев Н.Н. Бахчеводство. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – 148 с.
7. Балашев Н.Н., Земан Г.О. Овощеводство. – Т.: Ўқитувчи 1972. – 325 с.
8. Синягин И.И. / Способы посева и посадки. Форма площади питания и гнездовое размещение растений. Площади питания растений М.: Россельхозиздат 1975,- с. 78-87.
9. Тараканов Г.И. Сорт - основа промышленной технологии // Новое в овощеводстве. М.: Знание, 1975, с. 33-40.
10. Эдельштейн В.И. Площадь питания и междурядья овощных культур. // Плодоовощное хозяйство. 1936, No 2, с. 1-9.

SOYA NAVLARI DALA UNUVCHANLIGIGA TURLI EKISH MUDDAT VA ME'YORLARINING TA'SIRI

Abduazimov Akbar M.¹, Chuliev Maxmatmurod N.², Ismatova Mahliyo A.³,

¹q.x.f.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti professori,

²q.x.f.f.d., Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti,

³Qarshi davlat texnika universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Tadqiqotda soya ekinlarining dala unuvchanligiga ekish muddati va ekish me'yorlarining ta'sirini aniqlash maqsadida "O'zbek-6" va "Nafis" navlarida agrotexnik tajribalar o'tkazildi. Uch xil ekish muddati (01.04; 15.04; 01.05) hamda turli urug' me'yorlari (325–400 ming urug'/ga) sharoitida olingan natijalar urug'ning unib chiqish darajasi tashqi muhitning termik rejimi va boshlang'ich o'simlik zichligiga sezgir ekanini ko'rsatdi. O'rta muddatdagi ekish tuproqning barqaror harorati va yetarli namligi sababli ikki navda ham yaxshiroq unuvchanlikni ta'minladi. Urug' miqdorining ortishi esa dala zichligining optimallasuvi orqali unuvchanlikning oshishiga xizmat qildi.

Tayanch so'zlar: dala, urug', nav, me'yor, zichlik, variant, o'simlik, ildiz, ekish sxemasi, ko'rsatgich, unuvchanlik.

Kirish. Soya hosildorligini shakllantiruvchi eng muhim bosqichlardan biri uning urug'lari dala sharoitida qanday unib chiqishidir. Dala unuvchanligi ko'plab agrotexnik omillar bilan belgilanadi, biroq eng muhimlaridan ikkisi — ekish muddati va ekish me'yori. Dunyo dehqonchiligida ekin maydonlari hajmi jihatidan soya bug'doy, sholi va makkajo'xoridan keyingi o'rinda turadi [1].

Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doydan so'ng takroriy ekin sifatida ekilgan soya ekinida ko'chat qalinligini ortishi o'simlikning vegetativ qismini rivojlanishga ijobiy ta'sir qiladi [2].

Respublikamizning barcha xo'jaliklarida qator oralarini 60-70 sm kenglikda gektariga 80 kg urug' sarflash maqsadga muvofiq. Ertapishar

navlarni ekish gektariga 90-100 kg, o'rtapishar navlar o'zidan yon shoxlar chiqarib, baland bo'lyi bo'lganligi uchun gektariga 70-80 kg urug' ekish lozim [3]. Soyaning ekish me'yorlari urug'ning yirikligiga va navning tezpisharligiga qarab belgilanadi. Soyadan mo'l va sifatli hosil olish ko'p jihatdan urug'ni o'z vaqtida maqbul muddatlarda ekish va sifatli urug'likdan foydalanishga bog'liq [4].

Tajriba dalasida soyaning "O'zbek-6" va "Nafis" navlari erta (01.04), o'rta (15.04) va kech

(01.05) muddatlarda gektariga 325 ming, 350 ming, 375 ming hamda 400 ming unuvchan urug' hisobida ekildi [5]. Soya navlarining ekish muddat va me'yorlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, unuvchanlikning eng past ko'rsatkichi "Nafis" navi erta muddatda ekish me'yori 325 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda 80,3 % ni tashkil qilgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich "O'zbek-6" navi o'rta muddatda ekish me'yori 400 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda 95,1 % ni tashkil qildi (1-jadval).

1-jadval

Ekish muddat va me'yorlari ta'sirida soya navlari dala unuvchanligining o'zgarishi, % (2022-2024 yy.)

T/r	Ekish muddati	Ekish me'yori	Nav nomi	Unuvchanlik, %	Ekish muddatlari bo'yicha		
					Erta muddat	O'rta muddat	Kech muddat
1	Erta muddat (01.04)	325 ming/ga	O'zbek-6	81,7		-3,3	-2,7
2			Nafis	80,3		-5,2	-2,3
3		350 ming/ga	O'zbek-6	84,1		-5,4	-3,9
4			Nafis	83,7		-5,5	-3,8
5		375 ming/ga	O'zbek-6	86,0		-8,0	-5,8
6			Nafis	86,3		-4,9	-3,6
7		400 ming/ga	O'zbek-6	88,6		-6,5	-4,5
8			Nafis	87,0		-5,7	-3,5
9	O'rta muddat (15.04)	325 ming/ga	O'zbek-6	85,0	3,3		0,6
10			Nafis	85,6	5,2		2,9
11		350 ming/ga	O'zbek-6	89,5	5,4		1,5
12			Nafis	89,2	5,5		1,7
13		375 ming/ga	O'zbek-6	94,0	8,0		2,2
14			Nafis	91,1	4,9		1,2
15		400 ming/ga	O'zbek-6	95,1	6,5		2,0
16			Nafis	92,7	5,7		2,2

17	Kech muddat (01.05)	325 ming/ga	O'zbek-6	84,4	2,7	-0,6	
18			Nafis	82,7	2,3	-2,9	
19		350 ming/ga	O'zbek-6	88,0	3,9	-1,5	
20			Nafis	87,5	3,8	-1,7	
21		375 ming/ga	O'zbek-6	91,7	5,8	-2,2	
22			Nafis	89,9	3,6	-1,2	
23		400 ming/ga	O'zbek-6	93,0	4,5	-2,0	
24			Nafis	90,5	3,5	-2,2	

Olib borilgan agrotexnik tadbirlar bo'yicha urug'larning unib chiqishi tahlil qilinganda, soya navlarining unib chiqishi erta muddatda 325 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 81,7 % ni, "Nafis" navida 80,3 % ni, 350 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 84,1 % ni, "Nafis" navida 83,7 % ni, 375 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 86,0 % ni, "Nafis" navida 86,3 % ni, 400 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 88,6 % ni, "Nafis" navida 87,0 % ni qayd qilganligi aniqlandi.

Soya navlarining unuvchanligi o'rta muddatda 325 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 85,0 % ni, "Nafis" navida 85,6 % ni, 350 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 89,5 % ni, "Nafis" navida 89,2 % ni, 375 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 94,0 % ni, "Nafis" navida 91,1 % ni, 400 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 95,1 % ni, "Nafis" navida 92,7 % ni tashkil qildi.

Kech muddatda 325 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 84,4 % ni, "Nafis" navida 82,7 % ni, 350 ming dona

unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 88,0 % ni, "Nafis" navida 87,5% ni, 375 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 91,7 % ni, "Nafis" navida 89,9 % ni, 400 ming dona unuvchan urug'/ga hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 93,0 % ni, "Nafis" navida 90,5 % ni tashkil qilganligi qayd qilindi.

O'rta muddatda ekilganda erta muddatda ekilganga nisbatan ekish me'yori 325 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 3,3 % "Nafis" navida 5,2 %, ekish me'yori 350 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 5,4 %, "Nafis" navida 5,5 %, ekish me'yori 375 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 8,0 %, "Nafis" navida 4,9 %, ekish me'yori 400 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 6,5 %, "Nafis" navida 5,7 % hisobida qo'shimcha unuvchanlik shakllandi.

O'rta muddatda ekilganda kech muddatda ekilganga nisbatan ekish me'yori 325 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 0,6 %, "Nafis" navida 2,9 %, ekish me'yori 350 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 1,5 %, "Nafis" navida 1,7 %, ekish me'yori 375 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 2,2 %, "Nafis" navida

1,2 %, ekish me'yori 400 ming unuvchan urug' hisobida ekilganda "O'zbek-6" navida 2,0 %, "Nafis" navida 2,2 % qo'shimcha unuvchanlik olindi.

Xulosa. "O'zbek-6" va "Nafis" navlari erta (01.04), o'rta (15.04) va kech (01.05) muddatlarda gektariga 325 ming, 350 ming, 375 ming hamda 400 ming unuvchan urug' hisobida ekildi.

Soya navlarini o'rta muddatga (15.04) ekilganda O'zbek-6 navida eng yuqori ko'rsatkich

95,1 % eng past ko'rsatkich erta muddatda (01.04) Nafis navida 80,3 % urug' unuvchanligi aniqlandi.

Erta muddatda ekilganda tuproqda optimal unib chiqish uchun yetarlicha harorat bo'lmaganligi uchun unuvchanlik o'rta va kech muddatlarga nisbatan 2,3-8,0 % gacha past bo'lganligi, aksincha kech muddatda tuproq harorati o'ta oshib ketishi natijasida ham unuvchanlik o'rta muddatga nisbatan 0,6-2,9 % gacha pasayib ketishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Norbekov O. Soya keltiradi sarmoya // O'zbekiston qishloq xo'jaligi Toshkent, 2009. №10. – B. 7.
2. Xalikov B.M., Amanov O.A., Qashqadaryo viloyati sharoitida boshqoli don ekinlaridan keyin takroriy yeryong'oq, soya va mosh yetishtirish agrotexnikasi bo'yicha Tavsiyalar Qarshi, 2020. – B. 32.
3. Yormatova D. Soyaning tuproq hosildorligini oshirishdagi o'rni. Tavsiyanoma. Toshkent, 2008. – B. 21.
4. Shodieva G., Saimnazarov Yu. Soyaning "Toshkent" navi biometrik ko'rsatkichlariga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'siri // O'zbekiston qishloq xo'jalik Toshkent, 2017. №7, – B. 41.
5. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта.- М.: Колос,1985.- 416.

БАНК РИСКЛАРИНИ СУҒУРТАЛАШ

Ботиров Эркинжон Хайитович,

ТДИУ, “Минтақавий иқтисодиёт” кафедраси доценти., и.ф.д. (DSc)

Аннотация. Барқарор иқтисодий вазиятда банклар уни ташқи ва ички омиллар таъсиридан ҳимоя қилиш масаласига дуч келмоқдалар, уларнинг таъсири кредит ташкилотининг молиявий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Ушбу муаммони ҳал қилиш учун асосий эътибор банк менежментининг энг муҳим йўналишларидан бири сифатида банк рискларини бошқариш муаммосига қаратилади.

Ушбу мақола Ўзбекистонда банк суғуртасини таҳлил қилади, банкларнинг ўз хатарларини суғурталаш зарурлигини аниқлайди, банк рискларини суғурталашнинг асосий муаммоларини аниқлайди ва ушбу муаммоларни ҳал қилиш бўйича тавсиялар ишлаб чиқади.

Тижорат банклари ўз ишларида дуч келадиган асосий хатарлар аниқланади ва Ўзбекистонда банк суғурта бозорининг ҳажми ва динамикаси таҳлил қилинади.

Таянч сўзлар: банк rischi, рискларни бошқариш тизими, банк, суғурта, полис эгаси, суғурталовчи.

Кириш. Банк сектори турли хил хатарларга дуч келади, уларнинг таъсирини ўз табиатига кўра бартараф этиб бўлмайди. Шунинг учун банклар учун вазифа хавфни бартараф этиш эмас, балки уни бошқариш ва унинг таъсирини назорат қилишни ўрганишдир. Хатарларни бошқаришнинг энг самарали усулларида бири бу суғурта.

Банк рискларини суғурталашни қўллашда банкнинг пул оқимларини барқарорлаштириш, ноаниқлик даражасини пасай-

тириш ва хавфли ҳодиса юз берганда йўқотишларни минималлаштириш мумкин бўлади, бу танланган тадқиқот мавзусининг долзарблигини белгилайди.

Замонавий бизнес шароитида банк фаолияти кўплаб хатарларнинг пайдо бўлиши билан боғлиқ бўлиб, банкнинг мақсади фойдани кўпайтириш бўлганлиги сабабли, у ўз операцияларини минимал мумкин бўлган хатарлар билан амалга оширишга катта эътибор бериши керак.

Банк сектори турли хил хатарларга дуч келади, уларнинг таъсирини ўз табиатига кўра бартараф этиб бўлмайди, шунинг учун банкнинг вазифаси хавфни бартараф этиш эмас, балки уни бошқариш ва унинг таъсирини назорат қилишни ўрганишдир. Шунинг учун банкларнинг рискларини бошқариш банкнинг асосий вазифаларидан биридир.

Банк фаолиятининг ўзига хос хусусиятларини тушуниб, шуни айтишимиз мумкинки, банк хавфни бартараф этиш учун қандай чоралар кўрмасин, у юзага келадиган хавфлардан халос бўлолмайди ва уларнинг таъсиридан қочиб қутула олмайди. Банкнинг вазифаси нафақат рискни бошқариш, балки унинг молиявий барқарорликка таъсири даражасини минимал даражага туширишдир, бу банк рискларини суғурталаш каби воситадан фойдаланиш орқали мумкин.

Банк рискларини суғурталаш банк капиталини катта йўқотишлардан ҳимоя қилишнинг энг самарали воситаларидан биридир. Шу сабабли, иқтисодий ривожланган мамлакатларнинг аксарияти ундан узоқ вақт давомида муваффақиятли фойдаланаётгани тушунарли.

Адабиётлар таҳлили. Хорижий муаллифларнинг кўплаб нашрлари тижорат банкларининг рискларини баҳолаш ва рискларни бошқариш усулларига бағишланган. Бироқ, банк рискларини суғурталаш масаласи етарлича ўрганилмаган ва бугунги кунда ҳам долзарбдир.

Банк рискларини комплекс суғурта қилиш муаммоси Л. Андрианова, И. Балабанов, А. Беляков, О. Белокрилова, С. Волков, О. Лаврушин ва бошқа олимларнинг илмий ишларида кўриб чиқилган.

Ушбу олимларнинг асарлари кредит ташкилотларида рискларни бошқариш масалаларига, шунингдек, хавфларни минималлаштириш усулларидан бири сифатида банк рискларини суғурталаш масалаларига бағишланган. Банк ва суғурта капитални ўртасидаги ўзаро муносабатлар соҳасидаги илмий тадқиқотлар деярли амалга оширилмайди, чунки бизнинг чет эллик ҳамкасбларимиз билан таққослаганда, россиялик иштироқчилар бу борада тажрибага эга эмаслар.

Банк рискларини суғурталаш баъзи иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш учун жуда самарали воситадир, чунки у мавжуд назорат тартиб-қоидалари ва хавфсизлик чораларига қарамай, банкларга одатда кундалик фаолиятида юзага келадиган йўқотишлар эҳтимолини камайтиришга имкон беради. Аммо ушбу суғурта соҳасининг функционал ривожланишига тўсқинлик қиладиган баъзи тўсиқлар ҳам мавжуд.

Ўз фаолияти давомида банк муассасалари хатарларнинг юзага келишининг объективлигига дуч келишади ва шубҳасиз уларнинг хизматларидан фойдаланадиган суғурта компаниялари билан ўзаро алоқада бўлишади. Иқтисодиётнинг банк секторининг аҳамияти, банк ишининг индивидуаллиги ва банклар фаолияти кўламининг доимий равишда кенгайиб боришини ҳисобга олган ҳолда банк суғуртаси тизими ишлаб чиқилган ва ривожланмоқда.

А. Зверевнинг таъкидлашича, суғурта бозори молия бозорининг асосий сегментларидан бири бўлиб, унинг роли доимий равишда ошиб бормоқда. Ушбу бозорнинг аҳамияти иқтисодий ва ижтимоий беқарорлик

даврида алоҳида таъкидланган. Суғурта механизми замонавий молия бозорининг энг кучли воситаларидан биридир, чунки у иқтисодиётнинг исталган соҳасидаги хавфларни камайтириш, керакли рентабеллик ва тежаш даражасини сақлаб қолиш имконини беради [5, п. 54].

Банк рискларини суғурталаш асосий индивидуалликни ўз ичига олади, бу уларни нафақат банк муассасаларига ва ўзига хос бўлганларга хос бўлган умумий қўлланиладиганларга бўлишдан иборат. Иккинчиси фақат банкда молиявий операцияларни бажариш учун хосдир. Шунга асосланиб, хатарлар уларнинг пайдо бўлиш сабабига кўра ҳам бўлинади: ташқи ва ички. Ташқи кучлар форс-мажор ҳолатларида, шу жумладан ҳарбий ҳаракатлар, табиий офатлар ва маълум бир мамлакатга нисбатан қўлланилган санкциялар туфайли олинган йўқотишларни ўз зиммасига олади.

Кредит бериш тез-тез банк операцияси бўлганлиги сабабли, банклар биринчи навбатда қарз олувчининг мижоз кредит шартномаси бўйича сотиб олган маблағлари ва мол-мулкига нисбатан жавобгарлигини суғурталашга ҳаракат қилишади. Банклар улардан кредит берган мижозлар у бўйича тўловларни амалга оширмаслиги мумкинлигидан кўрқишади. Шунинг учун банк ташкилоти банк хизматларини хавфсиз тақдим эта оладиган аҳолини диққат билан танлаши керак.

А. Зверев ва Ю. Болденкова шундай дейди: «кредит рискларини камайтириш учун банк муассасаларига потенциал мижозларнинг кредитга лаёқатлилигини баҳолашнинг янги усулларида фойдаланиш тавсия этилади. Шундай қилиб, келажакдаги қарз олувчининг

молиявий аҳволи доимий равишда ўзгариб туради, шунинг учун банклар тезкор молиявий таҳлилга жараён ёндашувининг таъсиридан фойдаланишлари керак. [3, 78-81б].

Тадқиқот усуллари. Мавзу доирасида илмий изланишлар олиб боришда суғурта фаолиятини тартибга солишга оид маълумотларни тизимлаштириш, таққослаш, назарий ва амалий материалларни жамлаш ҳамда тизимли таҳлил, эксперт баҳолаш ва прогнозлаш, мантиқий фикрлаш каби усуллардан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Мижозлар ривожланишнинг турли босқичларида, молиявий ҳолатни нафақат ҳозирги вазиятга қараб, балки прогноз версиясида ҳам таҳлил қилиш муҳимдир.

Банк рискларини суғурталашнинг қуйидаги асосий усуллари ажратиш мумкин:

- хеджлаш;
- хавфдан қочиш;
- хавф концентрациясини чеклаш;
- хатарларни диверсификация қилиш;
- суғурта;
- махсус захира фондларини яратиш.

Банк муассасалари фаолиятининг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқиб, банк рискларини суғурталашнинг қуйидаги асосий турларини ажратиш одатий ҳолдир:

банк муассасасини ишдан бўшатишдан суғурталаш. Шартномада кўрсатилган сабабга кўра маълум вақт давомида кутилаётган даромадни олмаслик хавфи ушбу хавф объекти сифатида кўриб чиқилади. Бунга қуйидагилар киради:

- АТМ суғурта. Бу банк филиалидан ташқарида касса операцияларини амалга ошириш учун ишлатиладиган ускуналар.

Натижада кутилмаган вазиятлар хавфи ортади. Суғурта компаниялари талончилик, ёнғин, портлаш, табиий офатлар каби суғурта ҳодисалари содир бўлган тақдирда молиявий йўқотишларни қоплайди;

- банк ходимларининг жавобгарлигини суғурталаш. Бу ҳозирги ходимларга ҳам, нафақага чиққан ходимларга ҳам тегишли. Суғурта компанияси мижозларнинг ходимларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатлари билан боғлиқ даъволарини қондириш мақсадида банк харажатларини қоплайди. Шу билан бирга, ҳар бир ходим ҳам, бутун ходимлар ҳам суғурта қилиниши мумкин. Шунини таъкидлаш керакки, иккала кассир-операторлар, бухгалтерлар, тизим маъмурлари ва бошқа ҳар қандай ходимлар, ҳатто қўриқчилар ҳам зарар етказиши мумкин.

Кредит рискларини суғурталаш икки йўналишда амалга оширилади: тўғридан-тўғри кредит суғуртаси ва қарз олувчининг кредит шартномаси бўйича мажбуриятларини бажармаганлик учун жавобгарликни суғурталаш.

Бундай суғуртанинг моҳияти виждонсиз мижоз томонидан банкка кредитни тўламаслик ва маблағларни ундира олмаслик туфайли суғурта компаниясига банк томонидан етказилган зарарни қоплашдан иборат.

Кредит хавфини суғурталашнинг асосий мақсади суғурталовчини суғурта қилдирувчиларнинг зарарларини маълум бир ҳақ эвазига қоплашни мажбур қилишдир.

Кредит хавфи қарз олувчининг тўловга лаёқатсизлиги билан боғлиқ. Кредит хатарларидан ташқари, валюта хатарлари ҳам суғурта қилинади. Бундай суғурта қонуний суғурталовчи ва полис ўртасида шартнома

остида берилиши керак.

Банк карталари эмитентлари ва эгаларининг хатарларини суғурталаш ҳам кенг тарқалган. Бундай суғуртанинг моҳияти иқтисодий жиноятлар билан боғлиқ бўлиши мумкин бўлган хавфлардан, яъни маълумотларнинг тарқалиши, карталарни рухсатсиз ишлаб чиқариш ва қалбакилаштириш, улардан тўлов тизимида фойдаланишдан ҳимоя қилишдир.

Хулоса. Ушбу суғурталардан ташқари, ходимларнинг жавобгарлигини суғурталаш, банк ходимларининг ҳаёти ва соғлигини суғурталаш, банкларнинг кўчмас мулкни суғурталаш, банкларнинг автоулов паркни суғурталаш ва бошқалар мавжуд.

Шундай қилиб, банк суғурта бозори 2017 йилдан 2025 йилгача тезлашди. Келгусида бир қатор кўрсаткичларини камайтириш кутилмоқда, масалан, банкларнинг суғурта хатарлари ва уларнинг мижозларининг хатарлари, қарз олувчилар-юридик шахсларни суғурталаш, кредит бериш билан боғлиқ бўлмаган банк мижозларини суғурталаш.

Шундай қилиб, биз банк суғурта бозори беқарор ҳолатда деган хулосага келишимиз мумкин. Банк кредитларини суғурталаш бозори динамикасининг ўсишини тиклашнинг асосий омили кредитларга фоиз ставкаларининг пасайиши ҳисобига талабнинг ошиши бўлади.

Йирик банклар, агар улар ҳаётни суғурталаш полисига эга бўлса, имтиёзли ипотека ставкаларини таклиф қилишади, бу ҳам банк хатарларидан суғурталашнинг бир тури ҳисобланади.

Шу билан бирга, банк суғуртаси банк ичидаги ҳодиса сифатида бутун банк сектори хавфсизлигининг энг муҳим шартидир, яъни

у энг машхур суғурта турларидан бири бўлиб мўлжалланган.
қолади. Ошкор қилиш, баҳолаш ва хатарларни Суғурта шартномасини тузиш орқали
бошқариш бўйича турли хил ички банк банк йўқотишларни минималлаштиришга,
чоралари банк ҳаётидаги хавфли ҳодиса- яъни исталмаган ошкораликни йўқ қилишга
ларнинг олдини олиш ёки ҳеч бўлмаганда ва бошқа молия институтлари бозорида яхши
уларнинг оқибатларини камайтириш учун обрў ва ишончни сақлашга қодир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг 23.11.2021 йилдаги ЎРҚ-730-сон “Суғурта фаолияти тўғрисида” Қонуни., <https://lex.uz/docs/>
2. Винникова И. С., Кузнецова Е. А., Базин В. Е., Вишневский Д. И. Основные тенденции развития сегмента страхования банковских рисков на российском рынке/Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2018. №5-2. С. 422-426.
3. Зверев А. В., Болденкова Ю. С. Управление активами коммерческого банка // Финансовые рынки и банковская система в условиях цифровой экономики: проблемы и перспективы. 2018. С. 78-81.
4. Зверев А. В., Мандрон В. В., Мишина М. Ю. Механизм санации кредитных организаций: российская практика // Финансы и кредит. 2019. №8 (788). С. 1727-1741.
5. Зверев А. В., Мишина М. Ю., Иванова В. Д. Совершенствование системы страхования денежных накоплений населения и её роль в решении современных социально-экономических задач // EuropeanSocialScienceJournal. 2016. №3. С. 54-60.
6. Мерцалова А. И. Страхование банковских рисков // Современное состояние и перспективы развития рынка страхования. 2018. С. 102-109.
7. Шпакова Т. А. Страхование банковских рисков // Экономическая безопасность России: вызовы XXI века. 2018. С. 123-126.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ИҚТИСОДИЙ ҶСИШ ОМИЛИ

Ботиров Эркинжон Хайитович,

ТДИУ, “Минтақавий иқтисодиёт” кафедраси доценти., и.ф.д. (DSc)

Аннотация. Мақолада инвестицияларга ижтимоий-иқтисодий наф келтиришга асосланган мақсадли қўйилмалар ва истиқболда даромад олиш билан боғлиқ операцияларни мужассамлаштирувчи инвестицион жараён ҳамда харажатлар, жамғариш ва капитални ўсишини ўзида мужассамлаштирувчи категория сифатида таърифлар берилган. Шунингдек, аграр соҳада инвестицион фаоллик ва фаолият самарадорлигини баҳолашда қишлоқ хўжалигига йўналтирилганлик инвестицияларнинг нисбий самарадорлиги иқтисодий таҳлил қилинган.

Таянч сўзлар: қишлоқ хўжалиги, аграр иқтисодиёт, аграр лойиҳа, инвестиция, инвестицион фаоллик, кафолатланган ўсиш, қишлоқ хўжалигига йўналтирилганлик инвестицияларнинг нисбий самарадорлиги.

Кириш. Республикамиз аграр соҳасида амалга оширилган иқтисодий ислохотлар натижасида ташкилий-иқтисодий, ҳуқуқий ва ижтимоий ўзгаришлар юз бермоқда. Хусусан, қишлоқ хўжалиги корхоналарини давлат тасарруфидан чиқариш ва улар мулкани хусусийлаштириш, жамоа хўжаликларига асосланган мулкчилик шаклини ташкил этиш жараёнида қишлоқ хўжалигида фермер ва деҳқон хўжаликлари ташкил этилиб пировард мақсад қишлоқ хўжалигида мавжуд иқтисодий салоҳиятдан унумли фойдаланишни таъминлаш ҳисобланади. Қишлоқ хўжалиги Ўзбекистон миллий иқтисодиётининг етакчи тармоқларидан бири ҳисобланади. Тармоқда мамлакат ялпи

ички маҳсулотининг қарийиб 28% яратилиб, деярли 30 % банд аҳоли айнан ушбу тармоқда фаолият олиб боради. Бундан ташқари, ушбу тармоқ бугунги кунда глобал масштабда долзарб муаммога айланиб бораётган жаҳон озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг негизини ташкил қилувчи ижтимоий аҳамиятга эга маҳсулотлар этиштирилади.

Шунингдек, қишлоқ хўжалиги саноатнинг қайта ишловчи соҳалари учун хом ашё этиштириб бериб, ушбу жиҳатдан саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш тизимини барқарор ривожланиши учун ҳам ресурс базаси вазифасини бажаради. Демак, юқоридагилардан хулоса қилиш мумкинки, Республикамизнинг

пахта тозалаш, тўқимачилик, енгил саноати, озиқ-овқат ва кимё саноати каби кўплаб тармоқларининг ривожланиш истиқболлари, иқтисодий ва молиявий аҳволи, бу бутун саноат салоҳиятининг ярмига яқини бевосита қишлоқ хўжалигига боғлиқ.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сонли Фармони билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегияси”да [1] ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 февралдаги ПҚ-5009-сонли “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясида белгиланган вазифаларни 2021 йилда амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [2] қарорида республикамизда аграр соҳани ривожлантириш, соҳанинг барча тармоқларида изчил ислохотларни олиб бориш мақсадида бир қатор вазифалар ва устувор йўналишлар белгиланган.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Бугунги кунчага фан сифатида қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодиёти ёки қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти сифатида ўрганилиб келинган. Ушбу фан таркибида қишлоқ хўжалигида ислохотларни томонидан қўллаб-қувватлаш масалалари фан таркибида ўрганилган бўлса ҳам, адабиётларда аграр соҳадаги ислохотларни олиб бориш қисман ёритилган. Ушбу йўналишда иқтисодчи олимлар Ж.Пенсон [3], М.Л.Лишанский [4], Эндрю Барклей [5], Б.Чарлз [6], Б. Эддон [7], Т.В.Сладкова [8] ва бошқа олимларнинг асарларида қишлоқ хўжалиги корхоналарини молиявий қўллаб-қувватлашнинг назарий ҳамда амалий асослари ўз ифодасини топган. Хусусан, пахта тозалаш, текстиль, енгил, озиқ-овқат ва кимё саноат тармоқлари каби

саноатнинг қарийиб ярим тармоқларининг молиявий-иқтисодий ривожланиши бевосита қишлоқ хўжалигини ривожланишига боғлиқдир. И.А.Минаков [9], В.А.Кундиус [10], Л.А.Третьяк [11] каби иқтисодчилар, мамлакат миллий иқтисодиёти ва аҳолининг турмуш фаровонлиги айнан бутунлай ушбу тармоқнинг ривожланишига чамбарчас боғлиқлигини таъкидлашади.

Қишлоқ хўжалиги корхоналари, фермер хўжаликларини давлат томонидан молиявий қўллаб-қувватлашга доир масалаларини тадқиқ этишга мамлакатимиз олимларидан У.Умурзаков [12], Ч.Муродов [13], А.Абдуғаниев [23], Р.Ҳақимов [14] ва бошқалар катта ҳисса қўшганлар. Унинг фикрича молиявий қўллаб-қувватлаш тизими, алоҳида иқтисодий агентларни молиявий таъминот тизимини маълум ноаниқликлар шароитида оптимал таъминлашни мувофиқлаштириш ҳисобланади. Юқоридаги иқтисодчи олимларнинг илмий асарларини ўрганиш натижасида аграр соҳадаги ислохотларни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг механизмлари чуқур ўрганилмаганлигини кўрсатди ва бу ўз навбатида мавзу доирасида тадқиқот олиб боришни тақозо этади.

Тадқиқот методологияси. Аграр соҳадаги ислохотларнинг босқичлари ва концептуал асосларини тадқиқ қилишида илмий абстракциялаш, индукция-дедукция каби назарий усулларидан ва кузатиш, статистик таҳлил, вертикал ва горизонтал таҳлил, иқтисодий-математик каби эмпирик усуллардан кенг фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар. Кўпгина тадқиқотчилар аграр соҳанинг ривожланиши ва унинг умуман ижтимоий-иқтисодий ўсишга таъсири муҳимлигини таъкидлайдилар. Масалан, БМТнинг озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги

ҳалқаро ташкилоти (FAO) тадқиқотчилари иқтисодийнинг бошқа соҳаларига қараганда қишлоқ хўжалигидаги иқтисодий ўсиш нисбатан юқори мултипликатив таъсирга эгаллигини таъкидлаб, глобал қашшоқликни камайтиришда бошқа тармоқларга нисбатан юқори аҳамиятга эгаллигини таъкидлайди.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги ташкилоти (FAO) тадқиқотчилари шундай хулосага келишганки [27], қишлоқ хўжалигидаги иқтисодий ўсишнинг ҳар бир фоизи камбағаллик даражасини ўртача даражасини 1,5 фоизга қисқартириш имкониятларини беради. Қишлоқ хўжалигида маҳсулот ишлаб чиқариш тенденцияси номинал мазмунда ўсиш тенденциясини намоён қилган. Чунки, саноат ва хизматлар соҳаси каби нисбатан юқори қўшилган қиймат даражасида қишлоқ хўжалигида яратиш имкониятлари чекланганлигига қарамадан, мамлакатимиздаги тармоққа хос бўлган улкан имкониятлар ҳамда тармоқда яратилган маҳсулотларга бўлган аҳолининг реал ижтимоий эҳтиёжлари ушбу тармоқни ҳам ривожлантириш давлат сиёсатида устувор аҳамият касб этган.

Кейинги даврларда (2017 йилдан кейинги даврназардатутилмоқда) қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришини модернизациялаш ва уни интенсив ривожлантириш курсига ўтказиш масаласида бир қатор ислохотлар амалга оширилди. Кластер тизими орқали ярим тайёр маҳсулотлардан тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришнинг барча жараёнларини бирлаштириш орқали ягона ишлаб чиқариш занжирини ўзида мужассамлаштирувчи комплекс ишлаб чиқариш муносабатларини ўзида ифодалайди. Қишлоқ хўжалигида кластер тизимининг киритилиши қишлоқ хўжалиги маҳсулотлар етиштирувчиларни тайёр маҳсулот

ишлаб чиқарувчилар билан тўғридан-тўғри ишлаш орқали хом ашёдан тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи саноат корхоналари билан мустаҳкам занжирини ҳосил қилишда муҳим аҳамият касб этади.

Кўп профилли фермер хўжалиklarини ташкил қилиш қишлоқ жойларида ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлашнинг бош кафолати ҳисобланади. Чунки кўп профилли фермер хўжалиklари нафақат қишлоқ аҳолиси учун кундалик истеъмол қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини тақдим этади, балки улар саноатда қайта ишланадиган маҳсулот ва хизматларни ҳам тақдим этиш имкониятларига эга бўладилар. Қолаверса, улар фаолиятининг кенг спектрдаги ривожланиши ҳозирги кунда долзарб бўлиб турган қишлоқ аҳолисининг бандлигини таъминлаш, замонавий иш ўринларини яратиш имкониятларига эга бўладилар. Шунингдек, текстил корхоналари қишлоқ хўжалигини нафақат жорий ривожланиши учун балки, улардаги ишлаб чиқаришни технологик жиҳатдан модернизациялашга ҳам молиявий ресурсларни жалб қилиш имкониятларига эга бўладилар.

Бу жорий ҳолатда қишлоқ хўжалиги тараққиётининг муҳим заиф жиҳатларидан бири бўлган, паст молиявий салоҳият натижасида тараққиётдан нисбатан ортда қолишга таъсир этувчи асосий омилларидан бири ҳисобланади.

Юқори технологик машина ва техникалар билан жиҳозланган паркларнинг вужудга келиши қишлоқ хўжалигидаги долзарб муаммолардан бири бўлган таннархни иқтисод қилиш ва рентабеллик кўрсаткичларини оширишни таъминлайди.

2019 йилда Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-5853-сон Фармони билан “2020-2030 йилларда Ўзбекистон Республикаси

қишлоқ хўжалигини ривожлантириш стратегияси” тасдиқланиб, ушбу Фармонга асосан 2020 йилдан бошлаб қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда туб ислохотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг стратегик истиқболли йўналишлари 2-расм маълумотларида келтирилган: 2020-2030 йилларда Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари марказида аҳолининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш туриши табиий ҳолдир. Аҳолининг озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда асосий эътибор уларнинг озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлигини таъминлаш ва истеъмол рационини яхшилаш назарда тутилиб, аҳолининг кенг ижтимоий қатламлари учун зарурий миқдордаги озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни назарда тутадиган озиқ-овқат хавфсизлиги давлат сиёсатини ишлаб чиқиш ва жорий этиш кўзда тутилган.

Бу ўз навбатида экологик тоза табиий қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқиш ва аҳолининг кенг эҳтиёжларини таъминлаш орқали рўёбга чиқарилади. Ушбу масала нафақат миллий масштабдаги долзарб масала, балки, глобал масштабда долзарб масалалардан бирига айланиб бормоқда.

Хулоса ва таклифлар. Қишлоқ хўжалиги тармоғининг ривожланишига салбий таъсир этувчи асосий омил асосий маҳсулотга нисбатан давлат буюртмаларининг мавжудлиги ва ушбу буюртмалар бўйича белгиланган фиксирланган

нархларнинг амал қилиши ҳисобланар эди.

2020 йилда дон маҳсулотларига давлат буюртмаси 25 фоизга қисқариб, 2021 йилдан давлат харидлари учун нархларни белгилаш амалиёти бекор қилинди. Шунингдек, пахта хом ашёси учун нархларни белгилаш амалиёти бекор қилинди. 2020-2030 йилларда Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг стратегик йўналишларида қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини харид қилиш ва сотишда бозор тамойилларини кенг жорий этиш, сифат назорати инфратузилмасини ривожлантириш, юқори қўшилган қийматли қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат товарлари ишлаб чиқаришни назарда тутувчи қулай агробизнес муҳитини ва қўшилган қиймат занжирини яратиш белгилаб олинган бўлиб, ушбу ислохотларни амалга ошириш орқали аввало қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириб беришдаги баҳолар паритетининг бузилиши ҳолатларини олди олиниши ва уларда бозор даражасидаги тармоқ рентабеллигини таъминлаши мумкин. Ушбу ислохотлар натижасида 2030 йилга бориб қишлоқ хўжалиги учун фойдаланиладиган ерларнинг майдони 1,1 млн. гектарга ортиши кутилмоқда. Шунингдек, қишлоқ хўжалигидаги ўртача унумдорлик даражаси 1,7 баробарга ортиб, ҳар бир банд ишчилар учун 6,5 минг АҚШ долларини ташкил қилиши режалаштирилган.

Қайта ишланадиган маҳсулот ҳажмини 30 % гача ошириш орқали тайёр маҳсулот ҳажмини кўпайтириш ва экспортнинг номинал қийматини 20 млрд. долларга ошириш кўзда тутилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <https://lex.uz>
2. <https://lex.uz>
3. Penson, John. Introduction to Agricultural Economics (What's New in Trades & Technology) 7th

Edition (2022)

4. Лишанский М.Л. Краткосрочное кредитование сельскохозяйственных предприятий: учебное пособие для вузов. - М.Юнити-Дана, 2000.

5. Сладкова, Т. В. Государственная поддержка сельского хозяйства как фактор повышения конкурентоспособности АПК в условиях ВТО / Т. В. Сладкова, Н. И. Пыжикова; Сибирский федеральный университет. – Красноярск: Сибирский федеральный университет (СФУ), 2016. – 124 с.

6. Минаков И. А., Сабетова Л.А., Касторнов Н.П. и др. Экономика сельскохозяйственного предприятия 2-е изд., пер. и доп. Учебник / под ред. И.А. Минакова. – М.: - Инфра-М, 2018. – 363 с.
2. Минаков И.А. Экономика предприятий АПК. Учебник / И.А. Минакова. – изд-во Мичуринского госагроуниверситета. 2019.

7. Кундиус, В. А. Экономика агропромышленного комплекса: учебное пособие для системы доп. проф. образования; доп. МСХ РФ [Текст] / В. А. Кундиус. - М.: Кнорус, 2013.

8. Третьяк, Л.А., Белкина, Н.С., Лиховцева, Е.А. Экономика сельскохозяйственной организации: Учебное пособие, 2-е изд. [Текст] / Л.А. Третьяк. – М.: ИТК Дашков и К, 2015

9. У. Умурзаков, У.Сангирова. “Экономика АПК”, Учебное пособие. – Т.: ТИИИМСХ, 2019. – 300 стр.

10. Муродов Ч., Саттаров Р. Қишлоқ хўжалигини ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш.

11. Ҳакимов Р. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти (дарслик), Т. 2007.

12. Kuznetsov, S.A. (1998). Great Dictionary of the Russian language. – St. Petersburg, “Norint”

13. Bodi, Zv., Merton R.K. (2013). Finance. – Moscow, Publishing House “Williams”, 2013. Bolshakov, S.V. (2006). Finance companies. Theory and practice. – Moscow: Book World, 2006. – 617 p.

14. Barulin, S.V. (2010). Finance. – Moscow, KNORUS, 640 p.

15. Zyatkovskyy, I.V. (2000). The financial support of business – Ternopol, Economic thought, 215 p.

16. Sokolska, T.V. (2014). Financial support for agriculture. Economy and management of agribusiness, issue 1, p. 140-146.

17. Oparin, V.N. (2001). Finance (general theory). – Kyiv, Kyiv National Economic University, 240 p.

18. Dikan, L.V., Holub, Yu.O. (2007). Financial support for the enterprise: the nature and source. Economy Development, issue 3 (43), p. 65–68.

19. Rajabov N. Zonal Policy Concept: Prospects For Effective Investment Climate Management // Экономика и образование. – 2022. – Т.

20. Осмоловская П.С. Инвестиционное развитие сельского хозяйства региона. // Текст научной статьи по специальности «Экономика и экономические науки» <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsionnoe-razvitiye-selskogo-hozyaystva-regiona>.

21. Аганбегян А.Г. Устойчивый рост сельского хозяйства и его финансовое обеспечение. // Ж. Деньги и кредит. №7, 2017 г

22. Нейфельд, О.П. Оценка управленческих рисков в аграрной сфере - важная задача мониторинга / О. П. Нейфельд // Агропродовольственная политика России. – 2016. – № 9. – С. 47-50.

23. Абдуғаниев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. -Т.: Адабиёт жамғармаси. 2007. -340 б.

Muassis:

Toshkent davlat agrar universiteti

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining "Ilmiy maqolalarning milliy iqtibos indeksini va ilmiy nashrlarning bibliografik ma'lumotlar bazasini o'z ichiga olgan platformasi"ga kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2021-yil 24-iyunda 1191-sonli guvohnoma bilan qayta ro'yxatdan o'tkazilgan.

Jurnal respublika bo'yicha tarqatiladi, sotuvda kelishilgan narxda. Jurnal sahifalarida chop etilgan materiallardan foydalanilganda "Agro Inform" jurnalidan olindi, deb ko'rsatilishi shart. PR belgisi bilan berilgan maqolalar tijorat maqolalari hisoblanadi.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar muallifga
qaytarilmaydi.

ISSN 2181-2411 (Print)
ISSN 2181-2519 (Online)

Veb-sayt: agro-inform.uz
Telegram: agroinform_uz
E-mail: agroinform@mail.uz

Nashr indeksi: 1020

Tahririyat manzili:
100140, Toshkent viloyati,
Qibray tumani, Universitet
ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: +99895 195-52-52.
Tel: +99897 480-34-82.

Jurnal "Agro Inform" MChJ
kompyuter markazida
sahifalandi:
20.11.2025-yil
chop etildi:
26.11.2025-yil
Guvohnoma raqami: №990721
2021-yil 17-mayda berilgan.

Qog'oz bichimi 60x84¹/₈.
Buyurtma № 02.
Adadi: 1100 nusxa.

Manzil:
Toshkent viloyati, Qibray
tumani, Universitet ko'chasi
2-uy

MUNDARIJA

Makhkamov A. Real-world applications of state machines and context-free grammars	2
Farmonov E. T., Mirzaeva Sh. X., Xodjaqulova N. X. Desertification and sustainable agricultural engineering: a bibliometric analysis from 2013 to 2024, highlighting the importance of seeder	6
Hakimova M., Yarkulova Z. Kalendulani buxoro viloyati sharoitida yetishtirish texnologiyasi	12
Мадалиев X. A. Қишлоқ хўжалигида агротехник тадбирларни интеграциялашнинг аҳамияти	14
Mirzabdullayev G' N., Xolmurodova G. R., Tursunbayev F. F., Ahmadjonov D. O. Kuzgi yumshoq bug'doyda biofortifikatsiyalash tadqiqot natijalari	21
Раупов S. A., Xolmurodova G. R., Mamedova F. F. Markerlarga asoslangan seleksiya asosida nav va tizmalardan olingan barg to'qimasi namunalaridan stab usulida genom dnk ajratilishi	24
Галина Долгая. Памяти Насира Абдулхаковича Таирова	28
Рустамов С. Дийдор ғанимат!	30
Оqqo`ziyev I. O`., Abdullaev D. M., Abdullayeva M. M., Niyazova D. X. Baqlajon (solanum melongena L.) Namunalarining fenologik ko'rsatkichlari va hosildorlikni baholash	32
Тоиров А. Табиатга кўмак – ўзимизга кўмак!	38
Ғулوم Мирзо. "Бизни уйғотур садолар, садоларга биз – фидолар"	39
Тоиров А. Шаҳримизнинг биринчи рақамли китобхони 65 ёшда	42
Атоев Б. Қ. Кuzgi буғдой таркибида озиқа элементлар миқдори	44
Атоев В. Қ. Organik o'g'itlar	49
Obломуратов N. N., Fatxullayev A., Iskandarov Z. S. O'liy ta'lim tizimida toshkent davlat agrar universitetining etuk malakali kadrlarni etishtirishdual ta'limni tashkil etilishi	53
Таиров Ф. Учёный математик, государственный и общественный деятель	57
Махамматова М. У. Кuzgi юмшоқ буғдой навларининг марказий минтақа шароитида доннинг технологик кўрсаткичлари	62
Тошпулатов Ч. В. Шўр ювиш муддатини тўғри танлаш – муҳим агротехник тадбир	65
Жумашев М. М. Генная терапия наследственных заболеваний: успехи и вызовы ххi века	69
Жумашев М. М. Генетика сегодня и завтра	72
Mirzabdulleev G' N. Kuzgi yumshoq bug'doyning raqobat nav sinash ko'chatzorida seleksion tizmalarni noqulay omillariga bardoshligi	76
Эргашев И. Т., Хуршидова М. Картошканинг вирусларга чидамлик селекциясининг истиқболлари	81
Xodjayeva B. X. O'zbekistonda kutubxonachilik sohasida amalga oshirilayotgan ishlar	86
Исмаилова Д. М., Ахмедова Д. Х., Джумашев М. М. Кариотипическая дифференциация и идентификация хромосом хлопчатника методом поликариограммного анализа	90
To'ramatov R. G'., Shokirov A. J. Takroriy ekinda qovoq ko'chatlarini qulay ekish sxemasi	94
Abduazimov Akbar M., Chuliev Maxmatmurod N., Ismatova Mahliyo A. Soya navlari dala unuvchanligiga turli ekish muddat va me'yorlarining ta'siri	98
Ботиров Э. Х. Банк рискларини суғурталаш	102
Ботиров Э. Х. Қишлоқ хўжалигида иқтисодий ўсиш омили	107